

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2016**

**6-son**  
(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



**TAHRIRIYAT**

- 4 Ilmiy-metodik jurnallarda maqola nashr etishga zamonaviy talablar



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

- U. Inoyatov 7 Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishga innovatsion yondashuv
- B.Shermuhammadov 14 Yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini rivojlantirish – milliy g'oya targ'ibotini tashkil etishning muhim omili
- N. Narziyeva 18 O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda muammoli ta'larning o'rni
- R. Musurmonov 23 Bolani uzlusiz ta'lim jarayoniga tayyorlashda oilaviy muhitning ta'siri
- R. Boymirzayeva 28 "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

- M. Hazratqulov 33 Umumumiyligida o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining yozma nutqini insho yozish orqali rivojlantirish usullari
- M. Abdullayeva 38 Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning pedagogik asoslari
- O'. Farmonov 42 Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ijodiy faoliyatining o'ziga xos jihatlari



**TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT**

- Q. Inoqov 47 Hamkorlik pedagogikasi – ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashning muhim omili



**KASB-HUNARGA YO'NALТИРИШ**

- G. Ernazarova 54 Shaxs rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar



**HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA**

- B. Po'latov 58 Yoshlarga oid davlat siyosati va uning istiqbollari
- Z. Usmanova 64 O'quvchilarning siyosiy-huquqiy bilimdonligini oshirishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning o'rni



**MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH**

- S. Abdullayev 68 Malaka oshirish ta'lim muassasasi pedagog-xodimlarining malakasini uzlusiz oshirishga tizimli yondashuv



## MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- |              |    |   |
|--------------|----|---|
| S. Maxmudova | 75 | O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda musiqaning o'rni |
| I. Kamolov   | 80 | Zargarlik ta'llimining an'anaviy amaliy san'at tizimidagi o'mi          |
| Z. Eshanova  | 83 | Barqaror epik formulalarda tog' obrazi va uning semantik ko'lami        |



## TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

- |            |    |   |
|------------|----|---|
| K. Karimov | 89 | Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etiladigan pedagogik uyushmalar uzlusiz pedagogik ta'limga taraqqiy etayotgan modeli sifatida |
|------------|----|---|



## TA'LIMNI INFORMATIZATSİYALASH

- |                         |     |   |
|-------------------------|-----|---|
| N. Taylakov, R. Eshimov | 97  | Ta'limga muassasalarida kompyuterli o'qitish vositalaridan foydalanish asoslari   |
| Z. Madaminova           | 102 | Boshlang'ich ta'limga jarayoniga yangi avlod darslik majmualari va zamonaqiy axborot texnologiyalarini joriy etish: muammo va yechimlar |



## PSIXOLOGIYA

- |                 |     |  |
|-----------------|-----|--|
| A. Hayitov      | 108 | Boshlag'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirish         |
| H. Jabborov     | 112 | Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari             |
| M. Badritdinova | 116 | Ta'limga jarayonida o'quvchilarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari |



## TAJRIBA MAKTABI

- |                |     |  |
|----------------|-----|--|
| S. Norqo'ziyev | 120 | VI sinf o'quvchilariga tarix fanidan bilimlarni singdirish sohasidagi tajribalar |
|----------------|-----|--|



## MEDIA TA'LIM

- |               |     |   |
|---------------|-----|---|
| S. Babadjanov | 126 | Yosh avlodni voyaga yetkazishda axborot texnologiyalari va mediakompetentlikning roli |
|---------------|-----|---|



## МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- |                |     |   |
|----------------|-----|---|
| Ф. Саидова     | 130 | Совершенствование профессиональной подготовки будущих учителей как средство управления качеством непрерывного образования |
| Л. Хамдам-Заде | 135 | Сопоставительный метод в обучении русскому языку  |



## ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

- |               |     |  |
|---------------|-----|--|
| Ф. Раимбекова | 140 | Влияние утренней гимнастики на двигательную активность детей старшего дошкольного возраста |
|---------------|-----|--|

## ILMIY-METODIK JURNALLARDA MAQOLA NASHR ETISHGA ZAMONAVIY TALABLAR

Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlash ta'lim tizimining ustuvor vazifasi sanaladi. Bunda ta'lim oluvchilarning bilimlari, ularning zamonaviy texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o'rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanishi hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, uzuksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, ilmiy-metodik jurnallarning o'rni katta. Chunki bugungi kunda ilmiy-metodik jurnallar o'qituvchilarga ko'makchi bo'lib, ularning o'z ustida ishlashiga, pedagogik mahoratini yanada oshirib borishga undaydi.

Umrini yosh avlodga ta'lim berishga bag'ishlagan jonkuyar o'qituvchi borki, al-batta, pedagogika sohasida to'plagan tajribasini, bilimlarini hamkasblari bilan o'rtoqlashishga intiladi. Bu jarayonda eng qulay yo'l – ilmiy-metodik nashrlarda ilmiy-tahliliy maqolalar e'lon qilib, sohadagi ilg'or ish uslublarini ommalashtrishdir.

Shu o'rinda ilmiy maqolaning g'oyasi, dolzarbliji va tuzilishi tizimga oid muammolarning yechimi qanday bo'lishi zarurligi haqida to'xtalib o'tish foydadan holi emas.

Pedagoglar ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan maqolalarning tuzilishi, g'oyaviy mazmuni va qanday maqsadlarga xizmat qilishi muhim o'rinn tutadi. Har bir ilmiy-tahliliy maqolada pedagogikaga oid dolzarb muammolarning qo'yilishi va atroficha tahlil qilinishi talab etiladi. Shu bois ilmiy maqola aniq tuzilishga ega va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerak:

- maqolaning nomi (sarlavhasi);
- annotatsiya (o'zbek, rus va ingliz tillarida);
- kalit so'zlar (o'zbek, rus va ingliz tillarida);
- kirish;
- mavzuga oid adabiyotlar tahlili;
- asosiy qism (metodologiya, natijalar);
- xulosalar va tadqiqotning kelajakdag'i vazifasi, qimmati, foydasi;
- foydalilanigan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

Maqolalarning tahlili va tahriri shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda maqolaning kirish qismiga urg'u berilib, asosiy maqsadini yoritishga e'tibor qaratilmaydi. Yoki kirish qismi bayon etilmasdan to'g'ridan-to'g'ri maqolaning maqsadi yoritiladi. Natijada maqola chop etilish talablariga javob bermaydi.

Shuning uchun maqolaning kirish qismida asosiy e'tiborni bugungi kunda ta'lim tizimiga oid dolzarb masalalarga qaratish hamda mavzuga oid manbalardan iqtiboslar keltirish maqsadga muvofiqdir. Har bir maqolada mavzudan kelib chiqib, ta'lim tizimiga

---

oid yangilik yoki o'qitishning zamонавиј metodologik uslublari bayon qilinishi kerak. Bu ilmiy ishning yanada sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Maqolada ko'tarilgan muammo va masalalarga qiziqqan o'quvchi mavzuga oid adabiyotlarni topish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Agar o'quvchi zarur adabiyotlarni topa olmasa, ilmiy maqolaga nisbatan ishonchi yo'qolishi mumkin.

Maqolaning mazmunli bo'lishi, albatta, omma tushunadigan til va uslubda yozilishi talab etadi. Shu bois, maqolada:

➤ barcha tushunadigan, ko'p hollarda foydalaniладиган, aniq, bir necha ma'nolar ni anglatmaydigan atamalardan foydalanish;

➤ yangi atama kiritilayotganda uning ma'nosini sharhlab berish;

➤ ko'p ma'nolarni ifoda etuvchi so'zlardan foydalanmaslik;

➤ xorijiy atamalarni zarur hollarda va o'z o'rнida ishlatalish zarur.

Ilmiy-metodik журнallarda e'lon qilinayotgan maqolalarning salmoqli va mazmunli bo'lishi nafaqat tahririyatda xizmat qilayotgan xodimlarga, balki ilmiy ishlarning mualiflariga ham bevosita bog'liq.

Maqola yozishdan oldin quyidagi savollarga javob bering?

1. Qanday mavzuda maqola yozmoqchisiz?

2. Maqolangizning dolzarbliji nimada?

3. O'z fikringizni qanday yetkazib bermoqchisiz? Qanday tajribalar o'tkazish zaur?

### **Ilmiy maqola yozish qoidalari**

➤ Maqolaning nomi maqolaning mazmunini to'liq aks ettirishi, o'quvchining e'tiborini jalb etishi lozim. Aksincha bo'lsa, zarur va muhim maqola e'tibordan chetda qoladi.

➤ Annotatsiya maqola nomining kengaytirilgan ko'rinishidir, unda maqolaning mazmuni qisqacha yoritiladi.

➤ Annotatsiyada muallif tomonidan ushbu materialning qimmatli va amaliyotdagи foydali tomonlari yoritiladi.

### **Kirish qismi**

➤ Ushbu qismga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

➤ Ko'pchilik holatlarda mualliflar kirish qismiga asosiy urg'uni berib, maqolaning asosiy maqsadini yoritishni yoddan chiqarib qo'yishadi.

➤ Yoki kirish qismi berilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri maqolaning asosiy maqsadi yoritiladi.

➤ Kirish qismida asosiy e'tiborni adabiyotlar tahlillariga qaratish (muammo yoritilgan adabiyotlar, maqolalar, hisobotlar, internetdan olingan ma'lumotlar) maqsadga muvofiqdir.

➤ Maqolada ko'tarilgan muammo va masalalar yangilik bo'lishi mumkin, ammo mavzu yuzasidan boshqa mualliflar ham shug'ullaniganligini e'tiborga olish kerak va maqolani tanqidiy-tahliliy ruhda yozish lozim. Tanqidiy tahlil siz shug'ullanayotgan muammo va masalalar ustida ishlagan tadqiqotchilarni hurmat qilgan holda amalga oshirilishi kerak.

### **Asosiy qism**

➤ Bu qismda maqolaning asosiy maqsadi yoritiladi. U quyidagi tarkibiy qismlaridan iborat:

Vazifaning qo‘yilishi.

➤ Tadqiqot qanday maqsadda olib borilayapti?

Tadqiqot metodlari.

➤ Bunda tadqiqot olib borilgan va siz taklif qilayotgan metod to‘liq ochib berilishi lozim, ortiqcha tushuntirishlarsiz bo‘lishi shart.

➤ Kamchilik va nuqsonlarni ham ko‘rsatib o‘tishni unutmang.

### Natijalar va ularning tahlillari

➤ Ushbu qism juda muhim, bunda ilmiy maqola nega yozilganligi ayon bo‘ladi. Natijalar mantiqiy-strukturaviy sxemalar, grafik, jadval ko‘rinishida bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### Xulosalar

➤ Xulosalar annotatsiya emas! ularning vazifasi o‘zgacha.

➤ Xulosalarda qanday natijalar olinganligi, annotatsiyada esa – qanday ishlar amalga oshirilganligi yoritiladi.

### Foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar

➤ Maqolangizdagagi mavzuga qiziqqan shaxs ko‘rsatib o‘tilgan adabiyotlarni topish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Agar u adabiyotlarni topa olmasa, Sizga va Sizning ishingizga ishonch yo‘qolishi mumkin.

➤ Havolalar sahifa tagida beriladi, unda adabiyotning mualifikasi, nomlanishi, nashriyotning qaysi shaharda joylashganligi, nashriyot nomi (ular qaysi til va yozuvda bo‘lsa, shu til va yozuvda keltiriladi), nasr yili, fikr olingan yoki asoslangan sahifasi ko‘rsatiladi hamda o‘rnatalgan tinish belgilari tizimiga amal qilinadi.

### Ilmiy maqola tili

➤ Ilmiy maqola tushunarli, amaliyotchiga yaqin tilda bo‘ladi.

➤ Maqola tahririyatga taqdim etilgani bilan chop etiladi degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki muharrirlar maqolani o‘qib, tahrir qiladi va chop etilishi yoki etilmasligini aniqlaydi.

➤ Muharrir maqolada qo‘ylgan maqsadga erishildimi, barcha jihatlar o‘quvchiga tushunarli tilda ochib berildimi, degan savolga javob beradi.

➤ Muharrir muallifdan qo‘srimcha tushuntirishlar kiritishni, atamalarni aniqlashtirishni talab qilishi, ayrim holatlarda o‘z fikrlarini bildirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-metodik jurnallar yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonini yanada takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

**Ulug'bek INOYATOV,**  
pedagogika fanlari doktori, professor

## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISHGA INNOVATION YONDASHUV

### **Annotatsiya**

Maqolada umumiy o'rta ta'lismuassasalarida aniq va tabiiy fanlar – matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya va informatika fanlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunda ta'limning ustuvor vazifasi ekanligiga e'tibor qaratilgan. Muallif maqolada aniq va tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ustuvor vazifalarga, xususan, kadrlar salohiyatini va o'qitish sifatini oshirish, o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlarga qiziqishlarini orttirish kabi masalalarga to'xtalib, ularning ahamiyatini ochib bergen hamda o'qituvchilarining pedagogik kompetentliligin rivojlantirish borasida taklif va mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Aniq va tabiiy fanlar, tajriba va malaka, mahorat maktablari, salohiyat, o'qitish sifati, qiziqish, faktorlar, mezon, ko'satkich, pedagogik kompetentlilik.

В статье рассмотрены приоритетные задачи современного образования относительно поднятия на новую ступень качества обучения точным и естественным предметам – математике, физике, химии, биологии, географии и информатике. Автором определены важнейшие задачи совершенствования обучения точным и естественным дисциплинам, в частности, особое внимание уделено вопросам повышения кадрового потенциала и качества обучения, мотивации интереса учащихся к точным и естественным наукам.

**Ключевые слова.** Точные и естественные дисциплины, опыт и навыки, школы мастерства, способность, качество обучения, интерес, факторы, критерий, показатель, педагогические компетенции.

The article deals with the priorities of modern education with respect to raising the quality of training on the new stage of precise and natural sciences – mathematics, physics, chemistry, biology, and geography and computer science. The author defined the most important tasks of improving learning the exact and natural disciplines, in particular, special attention is paid to increasing human resources and the quality of teaching, improvement of students' interest to the exact and natural sciences.

**Key words.** Exact and natural sciences, experience and skills, schools of skill, ability, quality of teaching, interest, factors, criteria, indicators, pedagogical competence.

**T**a'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar har bir shaxsdan bilim, yuksak madaniyat, yuqori malaka, ijodkorlik, jamiyat oldida mas'uliyatni his etishni talab qiladi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ta-shabbuslari bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham xalqning boy intellektual merosi hamda iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya

yalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Bizning asosiy maqsadimiz – o'quvchi-yoshlarga ta'lif va tarbiya berish orqali ularning iqtidorlarini erta aniqlash, kashf etish va rivojlantirishdan iboratdir. Bu o'rinda aniq va tabiiy fanlar ta'lifining alohida o'rni bor. Mazkur fanlardan ta'lif-tarbiya berish o'quvchilarni bevosita kundalik hayot, tevarak-atrof, tabiiy muhit, voqeа va hodisalar, jarayonlar, fan-texnika, texnologiyalarning turli sohalari haqida ta'lif berib, axloqiy sifatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi texnika va texnologiya asrida aniq va tabiiy fanlarning, ularni yoshlariga sifatlari o'qitishning hayotimizdagi, qolaversa, mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ortiqcha izohlashga hojat bo'limasa kerak.

O'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashi, mantiqiyl fikrlash qobiliyati, aqliy salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini egallashga qodir bo'lgan barkamolinsonlarni tayyorlashda aniq va tabiiy fanlarning o'rni beqiyosdir.

Buyuk ajdodlarimiz Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi o'rtasrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy meroslari, ularning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi ahamiyati, ayniqsa, allomalarining aniq va tabiiy fanlarning rivojiga qo'shgan beqiyos hissalari jahon hamjamiyati tomonidan asosli ravishda e'tirof etilgan.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti qariyb 6 barobar o'sdi, bugungi kunda iqtisodiyotda sanoatning ulushi 34 foizni, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko'paytirish, iqtisodiyotimiz tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha aniq choralar belgilab olingan.

Mazkur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun, albatta, yoshlarimizning aniq va tabiiy fanlarni puxta bilishlari, olgan bilimlarini hayotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalasi ta'lif tizimi xodimlari, o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahliillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi paytda umumta'lif maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitish, buyuk ajdodlarimizning izdoshlari bo'la oladigan yosh iqtidor egalarini tarbiyalash, ta'lif muassasalarida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish ishlari bugungi kun talablariga javob bermayapti.

Biz aniq va tabiiy fanlar deganda, umumta'lif maktablarida o'qitilayotgan 6 ta, ya'ni matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya va informatika fanlarini nazarda tutamiz.

Umumta'lif maktablarida ushbu fanlarni o'qitishga jami 2850 soat ajratilgan bo'lib, bu jami fanlarga ajratilgan 8616 soatning 33 foizini tashkil etadi.

Har bir fanning o'qitilish sifati birinchi navbatda shu fan o'qituvchisining malakasi va tajribasiga bog'liq.

Demak, bugungi kunda respublikamizdagi 9692 ta umumta'lif maktablarida fizika fanidan – 11483 nafar, matematikadan – 25072 nafar, informatikadan – 9027

---

nafar, geografiyadan – 11921 nafar, biologiyadan – 13352 nafar, kimyodan – 9588 nafar yoki aniq va tabiiy fanlardan **jami** 80443 nafar o'qituvchilar faoliyat ko'satmoqda, bu esa jami umumta'lim maktablari o'qituvchilarining 21 foizini tashkil etmoqda.

Toifalar bo'yicha tahlil qilganimizda matematika fani o'qituvchilarining 6,7 foizi oliy, 19,8 foizi 1-toifaga ega. Fizika fani o'qituvchilarining 6,2 foizi oliy, 17,4 foizi 1-toifaga ega. Toifa bo'yicha eng past ko'satkich informatika fani o'qituvchilarida bo'lib, ularning atigi 2,1 foizi oliy, 11,2 foizi 1-toifaga ega.

Bugungi kunda umumiyo'rta ta'lif maktablarida aniq va tabiiy fanlar yo'nali-shida Respublika bo'yicha jami 1160 nafar mutaxassisiga ehtiyoj mavjud. Shundan informatika fanidan 293 ta, kimyodan 240 ta, fizikadan 202 ta, geografiyadan 168 ta, matematikadan 149 ta va biologiyadan 108 tani tashkil qiladi.

Demak, ushbu fanlarni o'qitishning sifatini ko'tarmoqchi ekanmiz, avvalo, kadr-larga bo'lgan ehtiyojni to'liq qoplashimiz, ularning malaka toifalarini oshirish uchun o'qituvchilariniing o'z ustida ishlashlarini ta'minlashimiz zarur.

Ma'lumki, aniq va tabiiy fanlar bevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi sababli dars jarayonining sifatini oshirishda fan xonalarining o'quv-laboratoriya jihozlari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda maktablarimizning 88 foizi fizika, kimyo va biologiya laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan va 82 foizi zamonaviy kompyuter bilan jihozlangan infor-matika xonalariga ega.

Lekin o'qituvchilarimizning mazkur laboratoriya jihozlaridan foydalanish samara-dorligi , aniq va tabiiy fan o'qituvchilarining bilim darajalari, pedagogik mahoratlari va o'z ustida ishlashlari bugungi kun talabiga javob bermaydi.

Ta'lif muassasalaridagi mavjud laboratoriya jihozlarini o'quvchilarga ko'rgazma sifatida namoyish qilish emas, balki laboratoriya ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli foydalanish zarur. Bu uchun albatta pedagog kadrlarimizni laboratoriya jihozlaridan samarali-maqsadli foydalanishlarini kafolatli ta'minlovchi malaka oshirish kurslarini ishlab chiqishimiz talab etiladi.

Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari, axborot-kommuni-katsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanayotgani ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiya sifati va mazmunini muntazam ravishda yangilab, boyitib borishni talab etmoqda.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqqan holda, malaka oshirish va qayta tayyor-lash institutlari o'qituvchilarining ham kompetensiyalarini, saviyalarini, ularning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini, motivatsiyalarini o'rganishga ehtiyoj se-zilmoqda.

Bugungi kunda o'qituvchilarimiz yo'nalishlar bo'yicha har 3-5 yilda malaka oshi-rish kurslariga jalb etilmoqda. Aynan mana shu kurslarda o'qituvchilarga o'quvchilar ni o'z faniga qiziqtirish, bilimi sodda-ravon tilda yetkazish, har bir darsga yangicha metodika bilan yondashish, ularni ishlab chiqish bo'yicha variativ malaka oshirish kurslarini tashkil qilish maqsadiga muvofigdir.

O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, hozirgi zamon fan va tex-nikasini o'rganishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish, ularni ijodkorlikka undash, na-

zari bilimlarini amaliyotda qo'llash malakasini hosil qilish uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, o'zaro tajriba almashishi va ilg'or metodlarni ommalash-tirish maqsadida respublika miqyosida barcha hududlarda “Mahorat maktablari” va videokonferensiya aloqasi orqali “Masofaviy metodik xizmat tizimi”ni keng qo'llash ham o'z samarasini beradi deb o'ylaymiz.

***Uzluksiz ta'limga tizimida chet tillarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish tajribasidan kelib chiqib, aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ham kom-petensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limga amaliyotga joriy etish, o'quv-chilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda mus-taqil ta'limga olish ko'nikmalari rivojlantirilishi mumkin.***

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish borasida quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur. Bular:

***Birinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish.***

- aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'zaro tajriba almashishlarini ta'minlash va ilg'or metodikalarni ommalashtirish maqsadida har bir tuman (shahar)da har bir fandan tajribali, o'qitishda ijobiy natijalarga erishgan 3-4 nafardan ilg'or o'qituvchilarni belgilash;

- o'qituvchilarga yaqin-atrofdagi maktab o'qituvchilarini fanlar kesimida birikti-rish va shu orqali “Mahorat maktablari” faoliyatini kuchaytirish;

- o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash yuzasidan oliv ta'limga muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarining o'quv dasturlarini kuchaytirish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish bo'yicha zamonaviy interfaol va psixologik metodlarni hamda laboratoriya ishlari amaliyotini ko'paytirish nuqtayi nazaridan tubdan takomillashtirish va amaliyotga joriy etish;

- malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarining kadrlar salohiyatini oshirish, eng ilg'or fan o'qituvchilarini malaka oshirish institutlari o'qituvchiligidiga jalb qilish;

- tuman (shahar) xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limlaridagi aniq va tabiiy fanlar metodistlari faoliyatini tahlil qilish va ular tomonidan maktablarga sifatli metodik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash.

***Ikkinchidan, aniq va tabiiy fanlarni o'qitish sifatini oshirish.***

- takomillashtirilgan davlat ta'limga standartlari va o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish bo'yicha joylarda seminarlar tashkil etish;

- umumta'limga fanlaridan darslik va o'quv-metodik majmualarni takomillashtirilgan davlat ta'limga standartlariga muvofiqlashtirish;

- o'quvchilarning davlat ta'limga standartlarini to'liq o'zlashtirishlarini ta'minlash bo'yicha xolisona ichki va tashqi nazoratni muntazam o'tkazilishini yo'liga qo'yish;

- o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlari, dars jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashlari, laboratoriya jihozlaridan foydalanishlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

- 
- malaka oshirish kursidan qaytgan har bir o'qituvchining mакtab pedagogik jamoasida taqdimotini eshitishni tizimli yo'lga qo'yish;

- o'quvchilar bilimida va o'qituvchilar mahoratida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha metod birlashmalarining faoliyatini kuchaytirish;

*Uchinchidan, o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish.*

- fan to'garaklarining har bir fan o'qituvchisi tomonidan o'tilishini qat'iy ta'minlash, bunda ko'proq amaliy va virtual laboratoriya ishlarini bajarish, o'quv filmlarini namoyish etishga asosiy e'tiborni qaratish;

- soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, hududdagi yangi texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan korxonalarga ekskursiyalar uyushtrish;

- ta'lif muassasalarida aniq va tabiiy fanlardan fan klublarini tashkil etish, mакtab miqyosida turli tanlov va viktorinalar o'tkazish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalgalashuvchi oshirish, ta'lif muassasalarida aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun malakali kadrlar tayyorlab berishning asosiy omillari desak adashmaymiz.

Quyida umumta'lif maktablarida o'qitilayotgan aniq va tabiiy fanlarni o'qitilishi ga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsatib o'tishni lozim topdik:

➤ Pedagogik texnologiyalar, o'qitishning innovatsiyaviy metod va usullari, didaktik materiallar, mediaresurslarini aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida samarali qo'llash;

➤ Davlat ta'lif standartlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini monitoring qilib borish, ular bilimidagi aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishda eng maqbul o'qitish metodlarini qo'llash;

➤ Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi talablari doirasida qo'shimcha mashg'ulot, to'garaklarni olib borish monitoringini o'qituvchi tomonidan ijodiy yondashgan holda olib borish va samaradorlikni oshirish choralarini ko'rish;

➤ Ta'lif muassasalarida xalq ta'limi tizimida joriy etilgan axborot xavfsizligi siyosatiga qat'iy amal qilinishini ta'minlash;

➤ Globalashuvning salbiy oqibati bo'lgan ma'naviy tahdidlar – insonlarning ma'naviy olami, ruhiyatini izdan chiqarishga qaratilgan turli shakldagi g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish, ijtimoiy intellekt, o'z xatti-harakati va qarorlari uchun javobgarlik hissini tarkib toptirish;

➤ O'quvchilar va ularning ota-onalari uchun Internet tizimining imkoniyatlari va axborot xavfsizligi bo'yicha davra suhbatlari tashkil etish;

➤ Pedagoglarga manzilli metodik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

➤ Xududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va ta'lif muassasalariga yetkazib berilgan kompyuterlar, noutbuklar to'plami va internet tarmog'i imkoniyatlardan foydalananib, o'qituvchilarga onlayn va oflaysiz tartibda metodik yordam ko'rsatish;

➤ Mahorat maktablari o'quvlarida o'qituvchilardan test, turli so'rovnomalar olish orqali ularning kasbiy faoliyatidagi bo'shliqlar, metodik ehtiyojlarini aniqlash va chuqur tahlillar asosida tajriba almashishni yo'lga qo'yish;

- Maktab, tuman (shahar), viloyat miqyosida o'quvchilarning davlat ta'lif standartlarini o'zlashtirish monitoringi natijalarini tahlil qilish, aniqlangan bo'shlari va o'zlashtirish murakkab bo'lgan mavzulari bo'yicha metodik mahsulotlar ishlab chiqish va ta'lif muassasalariga yetkazish;
  - Metodik birlashmalar rahbarlarining elektron pochtalariga o'qituvchilar ehtiyojlari ko'ra metodik mahsulotlarni jo'natish, doimiy ravishda ma'lumot almashtish;
  - Viloyat, shahar, tuman veb-saytlariga o'quv-metodik mahsulotlar, eng yaxshi ish tajribalari namunalarini joylashtirish va foydalanish monitoringini olib borish;
  - Umumta'lif maktablarida tashkil etilgan fan metodik birlashmalarini rahbarlarini to'g'ri tanlash va tayinlash, ular mehnatini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ishlarini yo'lga qo'yish;
  - Metodistlar va metodbirlashmalar rahbarlarining elektron tarmoqda doimiy ma'lumotlar almashib turishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish.
- Aniq va tabiiy fanlarni o'qitilishiga ta'sir qiluvchi omillarga bevosita ta'sir qiluvchi mezon-ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish mumkin:
- O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi.
  - Nazariy, ilmiy-amaliy bilimlarini ta'lif-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi.
  - Dars mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuvdan kelib chiqqan holda ta-komillashtirish.
  - Ta'lif beruvchilarning malaka amaliyotlarini oshirish.
  - Doimiy ravishda pedagoglarning ilmiy stajirovkalarini tashkil qilish.
  - Zamonaviy ta'lif vositalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish.
  - Doimiy ravishda fan olimpiadalari va bilimlar bellashuvi g'oliblari bilan uchra-shuvlarni tashkil qilish.
  - Pedagoglarga toifa berishda kompetensiyaga asoslanish.
  - Avgust kengashlarining didaktik maqsadini oshirish.
  - Pedagoglarning o'z ustilarida ishlashlarini ta'minlash maqsadida aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi yoritilayotgan jurnallar mazmuni bilan tanishib borish.
  - Muntazam ravishda metodik yangiliklarni ommaviy axborot vositalarida nashr etish.
  - Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tanlov fanlarini o'quv reja va das-turlariga kiritish.
  - Malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari professor-o'qituvchilarini mun-tazam malaka oshirishlarini ta'minlovchi qisqa muddatli seminar-treninglar tashkil etishni yo'lga qo'yish.
  - Ta'lif oluvchilar motivatsiyasini ta'minlovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.
  - Ixtisoslashtirilgan maktablar, iqtidorli o'quvchilar uchun variativ darsliklar ish-lab chiqish.

Bugungi kunda ta'lifda Davlat umummilliyl dasturi doirasida yaratib berilgan moddiy-teknik va o'quv-metodik shart-sharoitlardan oqilona, maqsadli foydalanish, moddiy boyliklarni avaylab-asrash, ta'lif-tarbiya sifati, samaradorligini yuqori ko'r-

---

satkichlarga ko'tarishda maktab pedagogik jamoasi va o'qituvchilarning roli, mas'uliyati hamda shaxsiy javobgarligini oshirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni. – Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-avgustdag'i "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanaada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234-sonli qarori. (1-ilova: Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to'g'risida nizom) –T., Ta'lism taraqqiyoti, №4.
3. Inoyatov U.I., Xojayev B. Umumta'limi kompetensiyalarni loyihalashtirishning konseptual asoslari // Xalq ta'limi jurnali. 2016. №2. 7-15-b.
4. Djurayev M. Fizika o'qitish metodikasi (Umumiyy masalalar). – T.: Abu Matbuot-konsalt, 2015. 324-b.
5. Tolipova J. Biologiya o'qitishning innovatsiyasi. – T.: Cho'lpox, 2011.
6. Yunusova D. Matematikani o'qitishda zamонавиyy texnologiyalar. – T.: Ilm ziyo, 2010.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz) axborot-ta'lim portali.
8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) veb-sayti.
9. Respublika ta'lim markazining [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) veb-sayti.
10. Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazining [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz) veb-sayti.
11. Миркамилова Ш.М., Бердикулов Р. Методические основы применение информационных технологий при обучении химии. – Наука. Образование. Техника. Международный научный журнал №1(27) часть 1, спец выпуск, Ош-2009, Киргизия. – С. 154-156.

**Bahodir SHERMUHAMMADOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchisi, p.f.n.

## YOSHLARNING IJTIMOIY TASHABBUSLARINI RIVOJLANTIRISH – MILLIY G’OYA TARG’IBOTINI TASHKIL ETISHNING MUHIM OMILI

### **Annotatsiya**

Maqolada milliy g’oya targ’ibotini amalga oshirishda yoshlarning ongi va qalbiga bosqichma-bosqich izchil ta’sir ko’rsatish mexanizmlarini qo’llash, yoshlarning talab va ehtiyojlari, dunyoqarashlarini alohida hisobga olish, buning uchun pedagoglar tajriba va bilimga, ishontirish qobiliyatiga ega bo’lishlari, pedagogik ta’sirning samaradorligi o’qituvchining nutqi, fikr bayon qilish mahorati bilan bog’liqligi ta’kidlangan. Shuningdek, muallifning yoshlar muammolarini aniqlash tizimini yaratish bo'yicha bergan takliflari, xususan, ijtimoiy, ma’naviy-mafkuraviy, huquqiy muammolar soha mutaxassislarini qiziqtirishi, shubhasiz.

**Kalit so’zlar.** Yoshlar tashabbuslari, milliy g’oya targ’iboti, milliy qadriyat, ma’naviy tадид, ijtimoiy muammolar, ma’naviy-ma’rifiy muammolar, huquqiy muammolar, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati.

В статье показаны механизмы последовательного внедрения в сознание молодежи национальной идеи с учетом запросов и интересов обучающихся, определены требования к педагогам в отношении их профессионального мастерства, культуры речи и умения излагать свои мысли. Автором предложены рекомендации по выявлению и решению проблем социального, духовно-идеологического, правового развития будущих специалистов.

**Ключевые слова.** Инициативы молодежи, пропаганда национальной идеи, национальные ценности, духовная агрессия, проблемы, духовно-просветительские проблемы, правовые проблемы, общественное движение молодежи “Камолот”.

Article shows the consistent implementation mechanisms in the minds of young people the national idea to satisfy needs and interests of students, identified the requirements for teachers in relation to their professional skills, culture of speech and the ability to express their thoughts. The author offers advice on identifying and solving problems of social, spiritual, ideological, legal development of future specialists.

**Key words.** Youth initiatives, promotion of national ideas, national values, spiritual aggression, problems, spiritual and educational problems, legal problems, social movement of youth “Kamolot”.

**M**illiy g’oya targ’ibotini amalga oshirishda yoshlarning ongi va qalbiga bosqichma-bosqich izchil ta’sir ko’rsatish mexanizmlarini qo’llash, ularning talab va ehtiyojlari, dunyoqarashlarini alohida hisobga olish talab etiladi. Buning uchun pedagoglarning ma’lum tajriba va bilimga, ishontirish qobiliyatiga ega bo’lishlari taqozo qilinadi.

Pedagogik ta’sirning samaradorligi o’qituvchining nutqi, fikrni bayon qilish mahorati bilan bog’liq. Shu bilan bir qatorda, mazkur jarayonda o’zaro suhbat, bahs-muno-

---

zara va ishchan muloqotga kirishish metodlaridan foydalanish zaruriyati ham mavjud. Ayniqsa, yoshlarga taqdim etiladigan axborotlar mazmunida ezgu g'oyalarning ishonarli tarzda ifodalanishi, xususan, vatanparvarlik, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyat-larga hurmat, ayolni ulug'lash, oila muqaddasligini anglash, mahallani tarbiya maskani sifatida idrok etish, umuminsoniy qadriyatlar – ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'lishini anglash talab etiladi.

Yoshlar diniy va dunyoviy bilimlarni o'zaro farqlagan holda ularning mohiyatini anglab yetishlari kerak. Ma'rifikatning shaxs intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi imkoniyati, mafkuraning falsafiy asosini yaratishdagi ahamiyati, huquqiy madaniyatning mohiyati kabilarni yoshlar ongiga yetkazish milliy g'oya targ'ibotining asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lif dasturlarini yaratish va Respublika ta'lif tizimiga joriy etish to'g'risida"gi 1331-sonli Farmoyishi asosida ta'lif tizimida mazkur fanning o'qitilishi uzyviylik va uzluksizlik tamoyiliga muvofiq joriy etilmoqda. O'sha yildan boshlab umumta'lim maktablarining 1-4-sinflarida "Odobnoma" fani, 5- va 6-sinflarida "Vatan tuyg'usi" fani, 7-, 8- va 9-sinflarida "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlari mustaqil fan sifatida o'qitala boshlandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori ham milliy qadriyatlarimizni yanada hurmat qilishga qaratilgan hujjatlardan biri bo'ldi. Zero, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi.

Shu nuqtayi nazardan, ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizmini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globalashuv sharoitida, bir tomonidan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomonidan, milliy g'oya targ'ibotiga asoslangan ma'naviy-huquqiy yangilanish jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining ibratomuz, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta ola-digan urf-odatlari, an'analari, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda oilada bolalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy tahdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishda muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'tgan yillar davomida yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifasi milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish jarayonida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarimiz ongu tafakkurida paydo bo'lgan g'oya va tashabbuslar qimmatli ahamiyat kasb etib, ularning aksariyati yuzaga kelayotgan muammo-larni tahlil etishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan yoshlar muammolarini aniqlash tizimini yaratish bu boradagi ishlarimizning samaradorligini ta'minlaydi.

**Ijtimoiy muammolar:** O'zbekistonda yoshlarning hayotiy faoliyatidagi ijtimoiy masalalari va muammolarini hal etishning ustuvor yo'nalishlari qatorida mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznesini mus-tahkamlashning iqtisodiy imkoniyatlarini joriy etilishi, "Kelajak ovozi", "Kamolot" yosh-

lar ijtimoiy harakati faoliyatining tashkil etilishi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimida ularning rolini oshirishga doir bir qator tadbirlar va islohotlarni amalga oshirilishi o‘z navbatida yoshlarning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklari bartaraf etishning omillari sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Jumladan, kredit olish, uy-joy qurish yoki sotib olish, ishga joylashish, o‘z biznesini boshlash va h.k.

**Ma’naviy-mafkuraviy muammolar:** Hozirgi vaqtida ma’naviy-mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik, shovinizm, terrorizm va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidan. Bir so‘z bilan aytganda, dunyoning turli burchaklarida inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda. Natijada yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy etishiga katta xavf tug’dirmoqda. Butun dunyoning mafkuraviy manzarsini o‘z maqsadlari yo‘lida o‘zgartirmoqchi bo‘layotgan mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda.

**Huquqiy yo‘nalishdagi muammolar:** Jamiyatda demokratik tamoyillar ustuvorligini ta’minlash fuqarolar, ayniqsa, yoshlardan huquqiy savodxonlikni talab qiladi. Afsuski, ayrim hollarda aynan huquqiy bilimsizlik tufayli inson jinoyat ko‘chasiga kirib qoladi, o‘z xatti-harakati qonun orqali taqiqlanganini anglamagani bois jinoyatga qo‘l uradi. Hatto g‘araz niyatli diniy oqimlarga qo‘shilib qolgan ayrim kimsalarning shu yo‘lga kirishiga ham huquqiy savodsizligi sabab bo‘lyapti. Qonunlarni bilmaslik, o‘z haq-huquqini talab qila olmaslik holatlari ham huquqiy muammolarning asosini tashkil etadi.

Albatta, bunday hollarni bartaraf etishda yoshlar bilan intensiv ishlarni tashkil etish, tizimli yondashuv munosabatlarini tiklash, ushbu yo‘nalishlarda ijro samaradorligini va o‘rganishning yo‘nalishlarini aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, monitoring ishini tashkil etish, umumlashtirish, qayta ishlash, statistik, tahliliy hisobot tayyorlash, muammolarni mintaqaviy, hududiy va mahалий darajalarga taqsimlash va dastur tuzish, dastur ijrosini nazorat qilish yuzasidan monitoring tashkil etish, monitoring maqsad-mohiyati va xususiyatlarini, samaradorlikni aniqlash kabi vazifalar katta ahamiyatga ega.

Shu bois yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining faoliyatidan samarali foydalanish zarur. Bu jarayonda avvalo asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish kerak bo‘ladi.

Harakatning joylardagi bo‘limlarda doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi yoshlar tashabbuslarini o‘rganish bo‘yicha monitoring guruhini tashkil etish bugungi kun talabiga aylanib borayapti.

Ammo kishini o‘ylantiradigan jihatlardan biri shuki, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan bugungi kunda aksariyat hollarda yoshlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlash nazardan chetda qolmoqda. Harakat va yoshlar orasida ayrim hollarda “masofa” paydo bo‘lmoqda.

Harakatning barcha boshlang‘ich bo‘g‘inlarida yoshlar tashabbuslari, takliflari va g‘oyalarini qabul qilish markazini tashkil etish, ushbu markazlar yoshlar takliflарини qabul qilish, maxsus qayd daftarlari va zaruriy hujjalarni yuritish, tartibga solish va yuqori tashkilotga taqdim etish, yoshlar tashabbuslari bo‘yicha e’lonlar berib borish, zaruriy

---

hollarda yashirin taklif qutilarini jamoat joylariga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda umumta'lim maktablaridagi yetakchilarning amaliy tayyorgarligini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning siyosiy, huquqiy, ma'naviy-mafku-raviy tayyorgarligi ishni samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Shu jihatdan yetakchilarning ilmiy saviyasini oshirib borish maqsadga muvofiq, bunda: "Kamolot" YOIH tizimida o'qitish dastur va rejalarini ishlab chiqish, yetakchi-larni o'qitishda didaktik jarayon loyihasining interfaol usullarini yaratish va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.

Biz bugun "Kamolot" faoliyatining yo'nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashda bir qadar orqada qolmoqdamiz. Ilmiy tadqiqot institutlari bilan aloqalar deyarli yo'q, "Kamolot" bo'yicha qo'llanmalar yaratilmagan, o'quv-metodik adabiyotlar deyarli mavjud emas.

Muammoni bartaraf etishning yo'li – Harakat qoshida uning har bir yo'nalishini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlovchi va kelgusida ishlarni belgilovchi ilmiy-amaliy markaz tuzish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Xususan, "Yetakchiga yordam" rukni asosida muntazam ravishda risolalar chiqarish, yirik mutaxassislarni jalb etish va tadqiqotlar salmog'ini oshirish, shu yo'nalishdagi ishlarni jonlantirish bo'yicha ilmiy-tek-shirish institutlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, joylardagi keng yoshlar ommasiga yetib borishini ta'minlash ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar*. – T.: O'zbekiston, 2000.
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishi*. 2001-yil 18-yanvar.
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori*. Xalq so'zi, 2006-yil 26-av-gust.

Nargiza NARZIYEVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O’zPFITI mustaqil izlanuvchisi

# O’QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KO’NIKMALARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIMNING O’RNI

## Annotation

Maqolada ta’lim jarayonida o’quvchilarga integrativ yondashuv asosida tadqiqotchilik elementlarining ilmiy asoslari hamda ularda tadqiqotchilik ko’nikmalarini shakllantirishni muammoli ta’lim orqali amalga oshirilishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o’quvchi fan mazmunini taylor holda emas, balki o’zi kashf etib o’zlashtirishi va unda yaratuvchilik qobiliyatini o’stirish omillari ko’rsatib berilgan.

**Kalit so’zlar.** Tadqiqotchilik elementlari, integrativ yondashuv, tadqiqotchilik ko’nikmalari, ijodiy fikrlash, inson tafakkuri, yangilangan pedagogik tafakkur, o’quvchining shaxsiy xususiyatlari.

В статье изложены научные основы применения элементов исследования на основе интегративного подхода в процессе обучения, отражена проблема формирования у учащихся исследовательских навыков через проблемное обучение, показаны возможности обучающихся усваивать содержание учебных предметов не в готовом виде а путем собственных поисков и открытый.

**Ключевые слова.** Элементы исследований, интегративный подход, исследовательские навыки, творческое мышление, идеология человека, обновленная педагогическая идеология, индивидуальные особенности учащегося.

The articles concerns the ideas of integrative approach of scientific base of elements of research through problematic teaching in education process of students, as well as formation of skills of research for them. In addition, student should not learn ready materials, he must learn material independently by researching materials and developing his creative ability.

**Key words.** Elements of resarches, research practice, creative thinking, ideology of human, renewed pedagogical view, main characteristics of a pupils, spiritual, mental, physical abilities of a pupil.

**P**edagog olimlar tomonidan uzlusiz ta’lim jarayonini faollashtirish, integrativ yondashuvlar asosida zaruz usullarni izlab topish maqsadida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar zamirida muammoli ta’lim tizimi alohida o’rin tutadi.

Muammoli ta’limning asosiy maqsadi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining sifat bosqichi talablari asosida o’quvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkuri rivojlantirish, o’zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir.

---

Pedagogikaga yo'naltirilgan adabiyotlarda muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta'limning metodi, prinsipi yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta'limni qanday nomlashdan qat'i nazar, uning asosiy xususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, integrativ yondashuv asosida o'zi uchun yangi bilim, ko'nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir.

Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadi-gan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisiga muammoli ta'lim deyildi.

Muammoli ta'lim o'zining maxsus tushunchalariga ega bo'lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg'ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo'lmaydi.

Muammoli ta'lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:

muammo; muammoli savol; muammoli vazifa; muammoli topshiriq; muammoli vaziyat.

Mazkur ta'limning asosiy tushunchalariga izoh berishdan oldin, tayyor bilimlarning o'qituvchi tomonidan berilishi yoki o'quvchining mustaqil egallashining izohli-ko'rgazmali metodi natijasi sifatida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo'lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o'rnlidir.

Axborot shaklidagi savol: tayyor javobi bo'lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo'lib, "nima?", "kim?", "qachon?", "qayerda?", "qanday?", "qancha?", "qaysi?", kabi so'roqlar asosida javobi aniqlanadi.

Ta'limning dastlabki tushunchasi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha "problem" so'zidan olingan bo'lib, vazifa, topshiriq degan ma'noni anglatadi.

Tayyor javobi bo'limgan, o'rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi. Shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, turmush muammolari, ta'lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o'ziga xos yechim yo'llariga ega. Ta'limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy jarayonni bajarishni talab etadi. Bu jarayonlar muammoli holatning xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi.

Muammoli ta'limning keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol sanaladi. Muammoli savol axborot shaklidagi savoldan farqli o'laroq tafakkur qilish yo'li bilan izlangan noma'lumni topishni ta'minlaydigan so'roq bo'lib, alohida holda, muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo'lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi.

"Nima uchun, nima sababdan, buni qanday tushunsa bo'ladi, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin ...?" kabi so'roqlar muammoli savol paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Yechimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog'liq holda qo'yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo'lgan, kimningdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchadir.

Muammoli vazifaning mazmuni bilim oluvchiga aniq bo'lgan masalaning noanig'i bilan ziddiyatlashuvidan iboratdir. Noaniq topilishi zarur bo'lib, izlanishni, fikrlashni, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta'minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelsi mumkin. Muammoli topshiriq – o'qituvchi, ta'lim beruvchi, kitob muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan

o‘quv topshirig‘idir.

Muammoli topshiriqda muammoli savol va vazifalarning elementlari mavjud bo‘la-di. Muammoli topshiriqning yechimini hal etishda uning qo‘yilish sharti ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, muammoli savol, vazifalarning elementlari birga-likda muammoli topshiriqni tashkil etadi va muammoli topshiriq esa o‘z navbatida mu-ammoli vaziyatga olib kiradi.

Muammoli vaziyat – subyektning psixologik holati bo‘lib, muammo bilan duch kel-ganda aqliy qiyinchilikning paydo bo‘lishi zudlik bilan hal qilishga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarni izlab, ularni topib, hosil bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishi ta’minkaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da‘vat etadi. O‘quv jarayonini mu-ammoli tarzda tashkil etish o‘quv xonasiga o‘ziga xos psixologik jihatdan yondashuvni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hech qanday psixologik g‘ov bo‘imasligi, iliq psixologik muhit yaratilishi lozim. Psixologik g‘ovni olish uchun tanishuv treningi o‘tkazish tavsiya etiladi. Tanishuv treningida har bir o‘quvchilar ismini, uning ma’nosini aytishi, yoki ismini aytib, o‘zida mavjud bo‘lgan biror fazilatni ifoda etishi lozim. So‘ngra bugungi mashg‘ulotni samarali o‘tkazish qoidasi qabul qilinadi. Ushbu jarayon o‘quvchilar bilan birlashtiriladi. O‘qituvchi bugungi mashg‘ulotning samaradorligini ta’minalash uchun o‘quvchilar qanday qoidalarga amal qilishi lozimligini sindan so‘raydi. Mashg‘ulotning samaradorligini ta’minalash uchun quyidagi qoidalarga amal qilinishi tavsiya etiladi: gapni bo‘imaslik; bir-birini eshitish bilish; tinglay olish ko‘nikmasi; navbat bilan gapirish ko‘nikmasi; qo‘l ko‘tarish qoidasiga amal qilish; sabr-toqatli bo‘lish va o‘zaro hurmat ko‘rsatish.

Darsni muammoli tarzda tashkil qilish uchun avvalo, o‘quvchilar bahs-munozara yuritishga, fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun qo‘yiladigan muammolarga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yuzaga keltiriladi. So‘ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma’lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalananadi.

Muammoni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirotini ta’minalash maqsada mazkur jarayonni shartli ravishda quyidagi uch fazaga ajratish mumkin:

- chaqiruv fazasi;
- anglash fazasi;
- fikrlash fazasi.

Birinchi faza chaqiruv fazasi bo‘lib, o‘quvchilarda mavjud tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Chaqiruv fazasini tashkil etish uchun quyidagi savollardan unumli foydalanish mumkin:

Bu haqda qanday ma’lumotlarga egasiz? Bu xususida nimani bilishni xohlaysiz? Nima uchun bu muhim?...

Anglash fazasida qo‘yilgan muammoni anglab yetish va hal etish nazarda tutiladi. Bunda turli interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jumladan, kichik guruuhlar tuzish, munozara tashkil etish va quyidagi tartibda savollar qo‘yish mumkin:

Siz uchun yangi ma’lumotlar bormi? Ushbu masala yuzasidan sizning fikringiz qanday? Sizda qaysi jihat eng katta taassurot qoldirdi? Buning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz? Qanday natija beradi deb o‘ylaysiz?

Fikrlash fazasida muammoning yechimi chiqarilib, mulohazalar bildiriladi. O‘quv-

---

chilarning o‘zлari xulosa chiqaradi. O‘quvchilarni fikrlash fazasiga jaib etish uchun quyidagilar bilan murojaat qilinishi samarali sanaladi:

Bilim oluvchining oldiga muammo qo‘yilgandan keyin uning mohiyatini tushunish zarur bo‘ladi. Muammoning ma’lum bo‘lgan shartlari asosida ongda muvaqqat bog‘lanish (assotsiatsiya) amalga oshadi. Muvaqqat bog‘lanishlar yechimga olib boruvchi farazlarni keltirib chiqaradi. Farazlarning to‘g‘riligi sinab ko‘rligandan keyin, agar u tasdiqlansa, muammo yechilgan hisoblanadi. Faraz tasdiqlanmaganda yangi faraz ilgari suriladi. Yangi farazning to‘g‘riligi tasdiqlanguncha davom etadi. Shu taxlitda bilim oluvchi o‘rganayotgan materiallarni mukammal o‘zlashtiradi va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi.

Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchilarda mayjud ilmiy tilni, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jihatlari va talablarini quyidagicha keltirdik:

1. Barcha fanlar ham aniq tushunchalar tizimini talab etadi. U tabiiy til asosida yaratiladi va ilmiy til, ya’ni fanlarning tushunchaviy-toifa tizimi shakllanib boradi.

2. Fanlarning ilmiy tilini shakllantirish murakkab jarayon, u hanuzgacha qoniqarli darajada tadqiq qilingan emas. Bizga ma’lumki, barcha fanlar hayotiy tildan ko‘plab atamalarni qabul qiladi. Uning vazifasi atamalardan bir xildagi tushunchalarni shakllantirishdir.

3. Barcha fanlarda ilmiy tilning lug‘at zahirasi yangi, maxsus atamalar va ta’riflar bilan boyib boradi, ba’zan u boshqa fanlar evaziga ham bo‘lishi mumkin (“boshqarish”, “kompyuter texnologiyasi”, “axborot texnologiyasi”) yoki eski ta’riflar yangicha talqinda ifodalanadi.

4. Foydalanimayotgan atamalarning aniq ta’rifi va maxsus lug‘atning shakllanishi fan tiliga mos holda amalga oshirilishi zarur. Umumiy o‘rtta ta’limda o‘qitiladigan fanlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, ularning tili odatiy (kundalik) tilga juda yaqin bo‘lgani uchun tushunish birmuncha yengil kechadi.

5. Belgilar yordamida aniq ilmiy tilni yaratish ushbu fanlarda ham kuzatiladi. O‘quvchilar o‘zlarining kichik tadqiqotlari natijalarini nafaqat yozma ravishda, balki chizma, jadval, shkalalar orqali ham ifodalashlari mumkin. Keyingi vaqtarda o‘quvchilar o‘zlarini tadqiqotchiliklari natijasini tahlili uchun informatikaning tushuncha va ramzlaridan keng foydalanoqda.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda fundamental bilimlari va amaliy ishlari natijalarining o‘zaro munosabatlarni quyidagicha talqin etamiz:

- fundamental va amaliy tadqiqotlar biri ikkinchisiga aloqasiz mustaqil rivojlanadi;
- fundamental tadqiqotlar bilimlarni chuqurlashtirishda amaliy tadqiqotlarni tortadi yoki asos bo‘ladi.

Amaliyot “yuqori qavat”ni quradi, ya’ni amaliyotda yuzaga keladigan ziddiyatlar maxsus fundamental tadqiqotlar yordamida yechiladi.

Muammoli ta’lim asosida ta’lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha fanlararo bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlarida so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O‘zlashtirishning keyingi darajalarida o‘quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma’lum natijalarni qo‘lga kiritish, to‘ldirish, boyitish, o‘zgartirish, o‘zining mustaqil nuqtayi nazariga ega bo‘lish talab etiladi. Bu o‘zlashtirish darajalari uchun o‘quvchi o‘zining ijodiy tadqiq qilish qobiliyatini ishga soladi va integrativ yondashuv talab etiladi. Bunda muammoli yondashuv ahamiyatli

hisoblanadi.

Tadqiqotchilik ko’nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishning zaruviy shartlaridan biri ta’lim jarayonida fanlararo tizimni bog’lovchi o’qituvchi, o’quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlovchi, yo’naltiruvchi, maslahat beruvchi, tafakkurini rivojlantirishning to’g’ri yo’llarini ko’rsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi. Bunga muammoli ta’lim orqali erishish eng ma’qul yo’l hisoblanadi.

Muammoli ta’lim mustaqil, ijodiy va faol o’zlashtirishni ta’minlash bilan birga, keng qamrovli fikr yuritishga, avvaliga o’zi uchun yangi bilmalarni kashf etishga va keyinchalik ilmni, fanni rivojlantiradigan kashfiyotlar qilishga zamin hozirlaydi.

Ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi xulosalarni berdi:

a. O’quvchilarning muayyan dunyoqarashini shakllantirishni uddalaydi, chunki bilmalarni egallashning yuqori mustaqilligi ularni ishonchga transformatsiyalash imkonini taqozo etadi.

b. O’quvchining shaxsiy motivatsiyasini, uning bilishga bo’lgan qiziqishlarini shakllantiradi.

d. O’quvchilarning fikriy qobiliyatini rivojlantiradi.

e. O’quvchilarning o’rganayotgan hodisa va qonuniyatlardagi yangi aloqalarni aniqlashini ta’minlaydi.

f. Tadqiqotchilikka o’rgatish, xususan, uzuksiz ta’limning bosh maqsadi bo’lmish ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashga asos bo’ladi. O’z fikri, o’z qarashiga ega bo’lish komil shaxsnинг muhim belgisi hisoblanadi.

g. O’qituvchi-o’quvchining ta’lim jarayonidagi munosabati subyekt-obyekt faoliyatidan pedagogik hamkorlik darajasiga ko’tarilib, o’quvchi dars jarayonining ijrochisiga – subyektiga aylansa, ta’lim olish qiziqarli bo’ladi, ijodiy faoliyat o’quvchi uchun hayotiy ehtiyojga, darslar esa samarali natijalarga erishish vositasiga aylanadi.

h. O’quvchining darslik yoki o’rganayotgan fan mazmunini o’qituvchisidan tayyor holda olmay, o’zi kashf etib o’zlashtirishi unda yaratuvchilik qobiliyatini uyg’otadi hamda yangi izlanishlar sari yetaklaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh.F. / Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta’limga asoslangan o’quv – metodik qo’llanma. –T.: Fan, 2005. 66-b.
2. Usmonova E.Z. O’quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? – T.: Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000. 36-b.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003.
4. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O’zMU. 2003.
5. Haydarova O. Bo’lajak o’qituvchilarni ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvga tayyorlash. Ped.fan.nom. diss. ... Qarshi: 2004. 159-b.

---

**Raxmatillo MUSURMONOV,**  
T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodimi, p.f.n.

## BOLANI UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIGA TAYYORLASHDA OILAVIY MUHITNING TA'SIRI

### Annotations

Maqolada farzandlarni uzluksiz ta'lim tizimi jarayoniga tayyorlashning dolzarb muammlari tahlil etilgan. Muammoni ijobji hal etishning omil va imkoniyatlaridan keng foydalanish yo'l-yo'rqlari ko'rsatilib, tavsiyalar ishlab chiqilgan. Oila bilan ta'lim muassasasi hamkorligi masalalariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar.** Oila, ota-onal ibrati, farzand tarbiyasi, mas'ullik hissi, milliy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, jonkuyarlilik, tashabbuskorlik,adolatlilik, uzluksiz ta'lim sifati.

В статье освещены проблемы подготовки детей к процессу обучения в системе непрерывного образования. Особое внимание уделено возможности качественной подготовки детей к обучению в системе непрерывного образования, а также проблемам взаимосвязи семьи и образовательных учреждений.

**Ключевые слова.** Семья, пример родителей, воспитание детей, чувство ответственности, национальные ценности, нравственные качества, преданность, инициативность, справедливость, качество непрерывного образования.

In article problems of preparing children for teaching process in system of life-long education are covered. Special attention is paid on a possibility of high-quality teaching of children for training of life-long education as well as problems of interrelation of a family and educational institutions.

**Key words.** Family, example of parents, training of children, sense of responsibility, national values, moral quality, commitment, initiative, justice, quality of life-long education.

**H**ar bir shaxs oilada shakllanadi va o'zi tarbiya topgan oila muhiti, an'analarining hayotida, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Zero, oila har bir xalqning an'analarini, milliy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazib, ularni rivojlanishiga yordam beradigan, avlodlar uzvyligini ta'minlaydigan, unda kamol topayotgan har bir yoshni zamon talabi darajasida ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalaydigan ijtimoiy institutdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolalar xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oli-

janoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poy-devori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir<sup>1</sup>.

O’tmishdan meros bo’lib kelayotgan tarbiya – shakl, usul va vositalarda oiladagi o’ziga xos urf-odatlar va an’analalar, ota-onalarning tarbiya haqidagi g’oyalari, hayotiy tajribalari milliy xalq tajribasi hisoblanadi. Xalq ertaklari, maqol, qo’shiq, afsona, topishmoq, latifa va boshqalarda bolalar hamda kattalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, ijobjiy va salbiy xususiyatlari haqida, adolat, to’g’rilik, yaxshilikning doimo yovuzlik va noplilik ustidan g’alaba qozonishi to’g’risidagi tushunchalar hikoya qilingan. Bolaning axloqiy fazilatlarini bekamu-ko’st shakllantirishda ota-onalar oldida qator vazifalar turadi. Bular:

- bola hayotining birinchi kunidayoq uning o’sishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;
- bolalarni atrofdagilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo’lishi, atrofdagi-larning ishlari, qiziqishlari, manfaatlari bilan hisoblashishga o’rgatish;
- bolaning jonkuyarlik, vazminlik, kamtarlik, umummanfaat bilan hisoblashish ko’nikmalarini tarkib toptirish;
- bolada nutq madaniyatini (odob bilan gaplashish) shakllantirish;
- kattalarni sizlab, ism-sharifini to’liq aytib murojaat qilishga, aniq talaffuz, muloyim va ortiqcha imo-ishorasiz so’zlashga o’rgatish;
- faoliyat madaniyati (o’ynichoqlar, kitoblar, shaxsiy buyumlar bilan muomala qilish) ko’nikmalarini shakllantirish;
- bolada burch hissini vujudga keltirish kabilar.

Ota-onha o’z farzandida xushmuomalalikni tarbiyalashi muhim. Bunday shaxs ochiq ko’ngilli, sofdir, boshqalar bilan samimi, odob bilan muomalada bo’ladi, shirinso’zlik, muloyim ovoz ohangiga ega bo’lish insonni bezaydi, atrofdagilarda unga nisbatan muhabbat uyg’onadi. Odoblilik xushmuomalalikning belgisi. Bunday xislatga ega bo’lgan inson hech qachon atrofdagilarga noxushlik keltirmaydi. Bolani ziyraklikka o’rgatish orqali unda rahmdillik qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Ziyraklik, fahm-farosat va odob inson xatti-harakatlarini tartibga solib turuvchi yo’lchi yulduzdir. Odob qachon gapga qo’shilish va qachon sukut saqlashni, nima mumkin va yaxshi, nima mumkin emas va yomon, birovni xafa qilmaslik uchun keskin vaziyatni hal etish va o’z fikrini ishonchli tarzda himoya qilish lozimligini, shu bilan bir vaqtida boshqalarni kam-sitmaslik, nafsoniyatiga tegmaslik kerakligini anglatadi. Jonkuyarlik esa atrofdagilarga nisbatan e’tiborli bo’lish, pok dilli bo’lishga xizmat qiladi.

Oilada kamolga yetayotgan har bir shaxsni mustaqil fikr yuritadigan, aql-idrok sohibi qilib yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Haqiqatan ham, mustaqil insongina har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, hayotda o’ziga to’g’ri yo’l topa oladi va boshqa oila a’zolarining ham haqiqiy yuksak inson bo’lib yetishishiga daxldor bo’ladi. Shunday ekan, ota-onalar, birinchi navbatda, oilaviy tarbiyaga e’tiborni kuchaytirishlari, jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashishlari zarur.

2008-yilning 7-yanvarida “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 4 bob, 32 moddadan iborat bo’lib, xalqimizning bolajonlik va bolaparvarlikka oid qarashlarining demokratik prinsiplarini asoslaganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida “Voya-ga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to’g’risi

<sup>1</sup> I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

---

da”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi va Oliy Majlisda ma’qul-landi hamda 2010-yilning 29-sentabridan kuchga kirdi.

Qonun 6 bob, 36 moddadan iborat bo’lib, unda milliy qadriyatlar va zamonaviy xalqaro huquqiy normalar uyg’unligi o’z e’tirofini topgan.

Qonunning 3-moddasida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan oila, “nazoratsiz”, “qarovsiz” tushunchalarining mohiyat e’tibori bevosita ta’lim-tarbiya ishi bilan shug’ul-anadigan ota-onalar va pedagoglarning rejali hamkorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo’lgan oila:

**Nazoratsiz** – ota-onasi yoki ota-onasi o’rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta’minlash, tarbiyalash va unga ta’lim berish bo’yicha o’z majburiyatini bajarishni istamaslik yoki lozim darajada bajarmaslik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

**Qarovsiz** – aniq yashash joyi bo’lmagan, nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan kabi tushunchalarni aniq va muxtasar ifodalanishi bevosita ushbu modda asosida ishlab chiqiladigan tarbiyaviy tadbirlarni maqsadli amalga oshishini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim sifatini ta’minlashda oilaning ishtiroki har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ajdodlardan meros bo’lib qolgan tarbiya mezonlari va an’analarni farzandlarga yetkazish ota-onasi zimmasida bo’ladi. Ota-onalarning muhim vazifalaridan biri – bu yetakchilikdir. Shunday ota-onalar bo’rki, ularning sa’y-harakatlari, ishbilar-monligi bilan oilasi obod, ammo taraqqiyotga emas, aksincha, beqarorlikka sabab bo’lgan yetakchi oilalardir. Bularidan notinch va jinoyatchilikka sabab bo’luvchi oilalar yuzaga keladi. Jamiyatimizda qonun ustuvorligi, xalq hokimiyyati va fuqarolik jamiyatini yuksalib borar ekan, oila yetakchilari bo’lgan ota-onaga nisbatan talablar ham o’zgarib boraveradi.

**Adolat** – ota-onalar shaxs ma’naviyatining asosiy fazilatlaridan biri. Oilada ota-onasi oilani boshqarishda adolat tamoyiliga riosa qilmas ekan, ularning farzand tarbiyasi jarayonidagi harakatlari talab darajasida bo’lmaydi. Milliy ma’naviyatimizning qadimiy odatiga ko’ra, ota-onalarning, oila boshqaruvchisining eng asosiy fazilati – adolat hisoblangan. Ayni paytda odil, adolatli ota-onasi bo’lish uchun oila a’zolarini boshqarib borishni o’z zimmasiga olgan shaxsdan ko’p narsa talab qilinadi.

**Oila rahbari** – ota-onasi, avvalo, oila a’zolari dardi bilan yashashni, zimmasiga oilaning og’irini yengil qilishdek mas’uliyat yuklanganligini teran his etishi lozim. Zero, halollik, adolatparvarlik, oilaparvarlik ota-onalarning ma’naviy qiyofasini belgilaydigan, uning obro’sini oshiradigan muhim omildir.

Tashabbuskor ota-onasi zavq-shavq bilan yashaydi va oilani boshqaradi, uning moddiy va ma’naviy ta’minotini yengillashtiradi, shunga yarasha mehnat qiladi. Ota-onaning tashabbuskorligi uch narsada bilinadi: oilani birlashtirishda, ularni boshqarish va tarbiyasini ta’minlashda. Birlik yo’q joyda oilada baraka va tinchlik bo’lmaydi, uning boshqaruvi zaif bo’lsa, tartib va intizomonga putur yetadi. Oila tartibli, tarbiyali bo’lmasa, birlik yo’qoladi. Oila a’zolari birlashsa, tarbiyasi mukammal bo’lsa, oila faravonlikka yuz tutadi. Oila a’zolarida mazmunli yashash va mehnat qilishga ishtiyoq kuchayaveradi. Muammo va illatlar kamayadi. Bularning barchasi ota-onaning oilani boshqarishiga, tashabbuskorligiga bog’liq.

Bugun zamonaviy ota-onasi qiyofasi yuqorida ta’kidlab o’tilgan fazilat va xislatlar dan tashqari, quyidagi qo’shimcha talablarni ham o’z tarkibiga olishi mumkin:

- oila yuritish intizomini ta’minlash;
- oilani boshqarishda izlanish, tashabbuskor bo’lish;

- oilaning boshqa a’zolari uchun shaxsiy namuna ko’rsatish;
- oilaning qadr-qimmatini yuksaltirish;
- farzandlarni sabr-toqatli bo’lishga o’rgatish;
- boqimandalikka yo’l qo’ymaslik;
- oila a’zolari manfaatlarini himoyalash;
- farzandlarga zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish, ularni kasb-hunarli qilish;
- ta’magirlikka qarshi kurashish;
- oila a’zolarini iqtisodiy va huquqiy himoya qilishni ta’minlash.

Bolaning tezkorlik bilan taraqqiy etayotgan jamiyat talablariga mos holda rivojlanishi va kamol topishida oilaning o’rnii va rolini oshirish, Davlat ta’lim standartlari darajasida bilim, ko’nikma va malakalarni egallashlari uchun o’z navbatida mas’uliyatni his etishlari lozim. Agar ota-onalarimiz “ta’lim-tarbiya matabning ishi” deb o’zlarini chetga olmoqchi bo’lsalar, qattiq yanglishadilar. To’g’ri, matabda tahsil olayotgan o’quvchilar ota-onalarining barchalari ham bir xil tayyorgarlik, tajriba va bilimga ega emasligi ma’llum. Hamma gap shundaki, ma’lumotlilik darajalari, tajribalari turlicha bo’lgan ota-onalarga bir xildagi tavsiyalar, maslahatlar, pedagogik-psixologik qo’llab-quvvatlashlar yetarli darajada o’z samarasini bermayapti.

Buning uchun eng avvalo, farzandi uzlusiz ta’lim tizimi (maktab, kollej, akademik litsey) muassasalarida ta’lim olayotgan turli darajadagi ma’lumotga ega bo’lgan ota-onalarning tarbiya sohasidagi tajribasi hamda pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash zarur. Ayniqsa, boshlang’ich sinflardan boshlab ota-onalarning kasb-kori, ma’lumotlilik darjasini, oilada bola tarbiyasidagi tajribasini mezonlar asosida toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu ish matabda amalga oshirilib, toifalarga ajratilgan ota-onalarni maxsus dastur asosida o’quv-seminarlari tashkil etish orqali tayyorlash mas’uliyati ham matab pedagogik jamoasi zimmasiga yuklatalidi. Agar biz ta’lim sifatini ko’tarishda ota-onalarning yordami, qo’llab-quvvatlashini bitta mezon sifatida qaraydigan bo’lsak, shu ishni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ayon bo’ladi. Demak, ta’lim sifati darajasini aniqlashning yana bitta mezoni – ota-onalarni tayyorlash yoki malakalarini oshirish tizimini ishlab chiqishdan iborat bo’ladi.


Ma’lumotlilik darajalariga qarab guruhlarga bo’lingan ota-onalar bilan maxsus dastur asosida mashg’ulotlar olib boriladi. Mashg’ulotlarni pedagoglar, sohaga taalluqli bo’lgan olimlar, farzandlari tarbiyasini risoladek olib borib, muvaffaqiyatga erishayotgan tajribali ota-onalar olib borishlari mumkin. Ko’tarilgan masalaga vaziyatli hamda tizimli yondashuv asosida yondashib, hayotiy voqealar, mahalliy misollar orqali xulosa chiqarish yaxshi natija beradi. Bu ishni dastlab ta’lim muassasasida tajribadan o’tkazib, keyin ommalashtirish ham mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda oila sharoitida bolalarda mas’uliyat hissini tarbiyalash imkoniyatini umumiylar tarzda 1-rasmida quyidagi ko’rinishda ifodalash mumkin<sup>2</sup>:

Shunday ekan, ota-onalar, birinchi navbatda, oilaviy tarbiyaga e’tiborni kuchaytirishlari zaruriy haqiqat ekanligini tushunib olishlari lozim. O’z navbatida ota-onalar:

- oilaning muqaddas dargoh ekanligini;
- oilaviy munosabatlarning mehr-muhabbat va sadoqatga asoslanganligi;

<sup>2</sup> Uzakov I. Bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda oilaning roli. “Xalq ta’limi” jurnalı. 2012-y. № 4, 129-133-b.



1-rasm

- o'zbek oilasida serfarzandlik va bolajonlilik;
- oilada ma'nnaviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob asosida qurish;
- ota-onalarning oilaparvarligi va bolaparvarligi;
- oilada milliy, diniy tarbiyaning ustuvorligi;
- ota-on, qarindoshlarni hurmat qilish;
- kattalar mehnatini qadrlash, ularni hurmat qilish;
- o'z mahallasi, qishlog'i, yurti, millatiga mehr-muhabbatli bo'lism;
- o'z farzandlariga mehribon bo'lism va ularni o'zlariga itoatli hamda sodiq qilib tarbiyalash;
- bolalarniadolatli, halol, to'g'riso'z, mehnatsevar qilib voyaga yetkazishlari uchun barcha aqliy salohiyatlari va hayotiy tajribalarini ishga solishlari kerakligini tushunib yetishlari zarur.

Ijtimoiy muhitning asosi bo'lgan oila o'smir xulqining shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Bolaning oilada olgan tarbiysi bir umrga saqlanib qoladi. Aylaning tarbiya instituti sifatida muhimligi shundaki, bola unda hayotining ko'p qismini o'tkazadi va shaxsga ta'sir etuvchi muddati bo'yicha ham oila tengsiz sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'nnaviyat, 2008.
2. Uzakov I. Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda oilaning roli. Xalq ta'limi j. – T., 2012. № 4. 129-133-b.

Rahimahon BOYMIRZAYEVA,  
Namangan viloyati XTXQTMOI o‘qituvchisi

## “OILA – MAHALLA – TA’LIM MUASSASASI” HAMKORLIGINI TA’MINLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Annotation

Maqola barkamol avlodni ma’nnaviy-axloqiy tarbiyalash vazifasini mustahkamlashda pedagogik hamkorlikning ayrim masalalariga qaratilgan. Shunigdek, muallif yoshlarni tarbiyalash jarayonida oila-mahalla-ta’lim muassasalari hamkorligi va uni samarali amalgalash bosqichlarini ko’rsatib bergan.

**Kalit so’zlar.** Pedagogik hamkorlik, barkamol avlod, “Oila – mahalla – ta’lim muassasi”, hamkorlik mexanizmi.

Статья посвящена вопросам педагогического сотрудничества в процессе духовно-нравственного воспитания гармонично развитого поколения. Автором раскрыта роль совместной деятельности семьи – махалли и образовательного учреждения в воспитании молодежи.

**Ключевые слова.** Педагогическое сотрудничество, гармонично развитое поколение, механизм сотрудничества “Семья-махалля-учебное заведение”.

This article is devoted to spheres of pedagogical cooperation in the process of moral-spiritual training of harmonious developed generation. The role of collaboration of family, mahalla and educational institution in upbringing of young generation.

**Key words.** Pedagogical cooperation, harmonious developed young generation, mechanism of cooperation of family, mahalla and educational institution.

Mastaqillik yillari mamlakatimiz tarixida misli ko’rilmagan yangilanishlar va o’zgarishlar davri bo’lib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarda erishilayotgan yutuqlar O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan tanlangan mustaqil taraqqiyot yo’lining porloq ekanligini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, izchil iqtisodiy-iijtimoiy rivojlanishni ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini faol himoya qilish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish kabi yo’nalishlar suveren davlatimizningadolatli va insonparvar ichki siyosatida doimiy ustuvor bo’lib kelayotganligini, ular sirasida jamiyatning ma’nnaviy yuksalishi va shaxs ma’nnaviy kamolotiga berilayotgan e’tibor alohida o’rin egallashini to’la isbotladi.

Ayni paytda dunyoda kechayotgan global mashuv jarayonlari barchamizga yangi vazifalar yuklamoqda. Shunday vazifalardan biri – yosh avlodni vatanparvarlik, in-

---

sonparvarlik kabi xislatlar bilan birga yuksak ma'naviyat egasi bo'lish hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan insonlar qilib tarbiyalashdir.

Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadiganlar, ya'ni oilada – ota-onalar, mahallada – qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lismuassasasida – o'qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi yo'lida o'g'il-qizlarimizning ulug'ajdodlarimizga munosib bo'lishlari uchun mas'uldirlar.


Ushbu sharaflvi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda o'zaro bog'liq uch omil – oila, mahalla va ta'lismuassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lismuassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-sonli qarori bilan "Oila – mahalla – ta'lismuassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi tasdiqlandi va Xalq ta'limi vazirligi huzurida "Oila – mahalla – ta'lismuassasasi" hamkorligi Jamoat kengashining faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi" qonunida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, uni amalga oshirishda jamoatchilik tashkilotlari, ta'lismuassasalari, huquq-tartibot organlari hamda ota-onalarning vazifalari, ularni hamkorlikda amalga oshirish tizimi yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasida "Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar" deb belgilab qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3.2 bandida ta'lim oluvchilarga shart-sharoit yaratishda jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga, 4.4 bandida esa jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lismuassasalari, ota-onalar, oila, mahalla qo'mitalari, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, ko'plab jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga alohida e'tibor berilgan.

Ushbu me'yoriy hujjatlar talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, masalaning mohiyati avvalo o'quvchi yoshlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan tartibbuzarliklarning oldini olishda manfaatdor vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat vakillari bilan hamkorlikda tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish bilan bog'liq. Ushbu sohada keng miqyosli faoliyat olib boruvchi barcha bo'g'lnlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish ahamiyatlidir.

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lismuassasalari hamkorligi domiy va murakkab jarayon bo'lib, o'z bosqichlariga ega. Shunday bo'lishi ham kerak, zero, ta'lismuassasasi dek keng qamrovli soha davriyilik va davomiylikni talab etadi. Biz bu bosqichlarni quyidagilarda ko'ramiz:



Mamlakatimiz fuqarolari orasida g'oyaviy-mafkuraviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek, loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi tuban ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun g'oyat zararli ekanligini yoritib berishda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning **"G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat"** tamoyilini yoshlar ongiga singdirish, Vatanini chin dildan sevadigan, millat ravaqaqini o'laydigan avlod qilib shakllantirishda "oila – mahalla – ta'lif muassasalari" hamkorligining o'rni muhimdir. Xususan:

- ta'lif-tarbiya jarayoniga oid normativ-huquqiy hujjalarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga kiritish;
- oila – mahalla – ta'lif muassasalari hamkorligini yaxshilashga doir uslubiy asoslarni yaratish;
- ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha o'quvchi yoshlar va ularning ota-onalari orasida tegishli mutaxassislar (psixologlar, ijtimoiy xizmat mutaxassislar va b.)ni jalb qilgan holda turli so'rovnomalar o'tkazib borish, shuningdek, psixologik maslahatlar, treninglar tashkil etish;

- 
- oila, umumta'lim maktablari, o'rtta maxsus kasb-hunar ta'lif muassasalari va mahalla hamkorligining aniq samarasini ta'minlash;
  - ota-onalar orasida farzandlar tarbiyasidagi konstitutsion mas'uliyati va majburiyatini anglatish bo'yicha muntazam targ'ibot ishlarini olib borish;
  - ota-onalarga "Ota-onalar universitetlari" tizimi orqali farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish;
  - ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya sifatini o'rganish, o'quvchilarga bilim olishi va kasb-hunar egallashi uchun har tomonlama ko'mak berish;
  - o'quvchi yoshlar ongi va qalbiga vatanparvarlik, insonparvarlik, kelajakka ishonch va intilish, mehnatsevarlik, buniyodkorlik, ma'rifatparvarlik kabi fazilatlarni singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyasi va mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga erishish;
  - "Hech kim, hech qachon e'tibordan chetda qolmasligi kerak" tamoyili asosida o'quvchi yoshlarning zararli odatlar yo'liga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;
  - qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lif muassasalariga yaqin hududlarda alkogolliy va tamaki mahsulotlarini sotilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatishga ko'maklashish, giyohvandlik illatining og'ir oqibatlari haqida muntazam tushuntirish olib borish;
  - o'quvchi yoshlarda kelgusi oilaviy hayot, mahalla va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish;
  - ta'lif tizimidagi islohotlar haqida ota-onalar va keng jamoatchilikning doimiy ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash va h.k.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy qilib tarbiyalash ishini mustahkamlashda pedagogik hamkorlik faoliyatini quyidagilarga tayangan holda amalga oshirish talab etiladi:

**Birinchidan**, samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va mustahkamlashda keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur. Bunday jamoatchilik aynan mahallada to'plangan bo'lib, yosh avlodga qadriyatlarimiz va an'analarimizni anglatish, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarni kattalar, hayot tajribasiga ega insonlar, mashhur kishilar faoliyati misolida o'rgatish ijobiy samara beradi.

**Ikkinchidan**, hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxsizligini asraydigan, el-yurtimizning eng yuksak maqsadlar yo'lida fidokor bo'lish ruhida tarbiyalash, bunda mahalla oila va unda kamol topayotgan farzandlar uchun tarixan o'z isbotini topgan birlamchi va mustahkam qo'rg'on ekanligini anglatish muhimdir.

**Uchinchidan**, yoshlarni yurtga, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar bo'la oladigan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash aynan yon-atrofdagilar, yaqinlar va uning tim-soli bo'lgan mahalladan ildiz oladi.

**To'rtinchidan**, jahon umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida ta'lif va tarbiya olish barkamollikning muhim sharti ekanligini anglatish. Bunday barkamollik o'quvching ota-onasisiz va ustozlarisiz shakllanmaydi.

**Beshinchidan**, o'quvchini bilimli, mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shaklanishi o'quvchiga o'zida mavjud bo'lgan barcha salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga, hayotda o'z o'rnni topishiga, shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun muhim omil ekanligini anglatish zarur. Bunda: bir tomonidan o'quvchining bosh tayanchi bo'lgan oila, ikkinchi tomonidan farzandning o'z yaqinlari bilan yashash maskani bo'lgan mahalla, uchinchi tomonidan ta'lif beshigi bo'lgan ta'lif muassasasining yaqin birligi hal qiluvchi rolni bajarishi shart.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lif muassasalarida pedagogik hamkorlikni tashkil etishda, barkamol avlodni shakllantirish maqsadidagi ma'suliyatli vazifani amalga oshirishda bizdan umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan ongli, tafakkuri tiniq, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga kamarbasta komil insonlarni tarbiyalashga barcha mas'ulligini jamoatchilik orasida muntazam targ'ib etib borish talab etiladi. Chunki, barkamol shaxslarni tarbiyalash, nafaqat, ota-onalar va ta'lif muassasalari, balki jamiyatning vazifasiga aylanmog'i kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.
3. "Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil, 29-avust. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda).
4. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2010-yil, 29-sentabr.
5. Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lif muassasalari hamkorligi konsepsiysi – T., 2012.
6. M.Quronov. Uzluksiz ta'lif jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimi. (Risola) – T., 2005.

**Mutallib HAZRATQULOV,**  
Samarqand Davlat universiteti o'qituvchisi

## UMUMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI INSHO YOZISH ORQALI RIVOJLANTIRISH USULLARI

### **Annotatsiya**

Maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining yozma nutqini insho yozish orqali rivojlantirish usullari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, muallif o'quvchining shaxsiy nutqiy faoliyatini shakllantirishdagi metodik talablarini aytib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Syujet, peyzaj, hissiyot, individuallik, episod, badiiy tasvir, insho, obrazlilik, yozma ish, uzlusiz ta'lif, tasavvur, atrof-olam, ko'nikma, boshlang'ich ta'lif, maktabgacha tarbiya davri, og'zaki matn.

В статье показаны приемы развития письменной речи учащихся общеобразовательных школ путем написания сочинений. Автором изложены методические требования к совершенствованию индивидуальной речевой деятельности учащихся.

**Ключевые слова.** Сюжет, пейзаж, чувство, индивидуальность, эпизод, художественный образ, сочинение, письменная работа, непрерывное образование, воображение, окружающий мир, навыки, начальное образование, дошкольный период, устный текст.

In this article, it is shown that methods of developing writing skills of pupils of general education schools by writing essays. The author gives methodological requirements for the improvement of individual speech activity of pupils.

**Key words.** The plot, the landscape, feeling, individuality, episode, artistic image, essay, written work, imagination, environment, skills, primary education, preschool period, the verbal text.

**N**utq fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutq kabi shakllari mavjud. Nutqning amaliy ahamiyati shundaki, tafakkur nutq yordamida ro'yobga chiqadi.

Og'zaki nutq pauza, urg'u, intonatsiya va tovushlar orqali borib yetsa, yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi (tinish belgilari, abzas, paragraf) orqali borib yetadi.

Og'zaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni ko'ramiz va o'qiyamiz. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o'rinn tutadi.

Yozma nutqning talabi quyidagicha:

- Har bir so'z, har bir jumla muallif maqsadini amalga ochirishga xizmat etishi lozim.
- Yozma nutqda fikr ifodali va ravon bayon etilishi kerak.
- Bildirilgan fikrlar asosida xulosa chiqarilishi shart.

Nutq faoliyati, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga riyo ya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, mavzusi bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning mavzulari haqida bo'lib, o'quvchining nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilishi hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq yordamida ifoda-lansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatlari o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, biringidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

– Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarini adabiy tilni sodda so'z-lashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'z-lashuv variantlari bilan tanishtiradi.

– Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqdan farqini bilib oladi.

– O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir, mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, mакtabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- so'z ustida ishslash;
- so'z birikmasi va gap ustida ishslash;
- bog'lanishli nutq ustida ishslash.

Insho qanday turda bo'lishidan qat'i nazar, og'zakimi yoki yozmami, o'zida o'quvchilarning o'z fikrlarini yaratishga yo'naltirilgan ishni mujassamlashtiradi. Insho o'quvchining shaxsiy nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ikki yo'nalishdagi ishni: nutqiy faoliyatni takomillashtirish hamda nutqiy ko'nikmalarning har birini shakllantirishni o'zida mujassamlashtirgan mashqlarning bir ko'rinishi sanaladi. Muallif tomonidan hal qilinadigan matn mavzusi, uning asosiy g'oyasi, mikromatnning tarkibi, ularning izchilligi, til vositalaridan foydalanish xususiyatlariga doir sharhlar o'quvchilarga topshiriqni to'laqonli tushunish imkoniyatini beradi. Muallif fikrini yuzaga chiqarish esa insho yozishga tayyorlanish jarayonida o'quvchi oldiga barchasini aniqlash va amalda qo'llash vazifasini qo'yadi.

Insho, bu – o'quvchilarning tabiiy monologik nutqining yanada mukammal bo'lishiga, nutqiy faoliyati tajribasining boyitilishiga qaratilgan mashq turi hisoblanadi.

Insho o'tkazish haqiqiy nutqiy faoliyatda mavjud bo'lgan barcha shart-sharoitlarni kuzatishni talab qiladi. Nutq har doim insonlarga hamroh bo'ladi. U mustaqil faoliyat sifatida, shuningdek, mehnat, o'yin, ijodiy va boshqa faoliyat bilan ham bog'liq bo'lishi

---

mumkin. Aynan shu sabab aniq bir nutqiy asarni yozishga tayyorgarlik ko'rishdan oldin muloqotning aniq vaziyatini yaratish, o'quvchilarda unga kirishib ketish ehtiyojlarining shakllanishi haqida qayg'urish kerak.

Nutqiy muloqot fikr almashish shakliga ega bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining roli so'rash va javob talab qilishdan emas, balki muloqotda qatnashadiganlar, ya'ni o'quvchilar qarashlariga qiziqish bildiradigan teng huquqli suhbatdosh bo'lisdan iborat bo'lishi lozim. Bunday holatning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u tajribaliroq kishi sifatida suhbatni boshqarib boradi. Suhbatning ko'zda tutilgan mavzusi u yoki bu darsdagagi ta'lif topshiriqlari bilan aniqlanadi.

Erkin muloqot davomida suhbat nutqini takomillashtirish, ilmiy-rasmiy yoki badiiy nutqni maxsus tashkillashtirish yoki o'quvchilarning dars jarayonidagi boshqa faoliyat turilardan foydalanish mumkin. Masalan, ilmiy-rasmiy nutqning qo'yilishida to'g'ri tashkil qilinagan o'quv faoliyatida topshiriqni bajarishning tanlangan usullari, o'z fikrining dalil-isbotlari, bajariladigan o'quv harakatlarining izohlari va boshqalar katta rol o'ynaydi. Badiiy nutqni rivojlantirish uchun borliqni ruhiy-hissiy idrok qilishga asoslangan tasavvurga keltirish ishidagi so'z orqali ifodalanadigan ijodiy faoliyatni tashkil etish juda muhim. Bu nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki musiqa va rasm darslarida ham muhim sanaladi.

Nutqiy vaziyatlardan foydalanish matn tuzishga maxsus tayyorlanishni o'tkazishni taqiqlamaydi. Inshoning mavzusi, janri va tayyorgarlik ishining xarakteriga ko'ra, birinchi navbatda, o'quvchilarga qaysi uslubdagi matnni tavsiya qilish, so'ng umumiyligi vaziyatlaridan biriga daxldor bo'lgan va o'quvchilar uchun qiziqarli, hayotiy bo'lgan aniq holatlarni o'ylab topish zarur.

Inshoni yozish bosqichida o'quvchilar imloviy xatoga yo'l qo'yish qo'rquvidan xalos bo'lislari uchun ularning diqqati aynan nutqini topshiriqlarni bajarishga qaratilgan bo'lishi lozim. Amaliyotda qo'llanilgan yo'rionnomaga ko'ra, faqat yozilishi aniq bo'lgan so'zlardan foydalanish xavflidir, chunki bu holat tayyorgarlik ishlarining ahamiyatini yo'qqa chiqaradi va o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Insholarni tekshirish bosqichida o'quvchiga mazkur masalani o'zi mustaqil tekshirish uchun ma'lum bir vaqt beriladi.

Inshoni yozish bosqichi quyidagicha tashkil qilinadi:

- dastlabki tayyorgarlik;
- nutqiy vaziyatni yaratish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- insho(matn)ni yozish.

Matn – mazmun, uslub va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan va aniq ketma-ketlikda joylashgan gaplar qatoridan tuzilgan tugallangan asar. Matndagi gaplar oddiy, oldinma-keyin kelmaydi. Balki bu bog'lanishning o'z qonunlari mavjud. Gaplar orasida tengsizlik mavjud. Gaplar kontekstga bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasisligi mumkin. Kontekstga bog'liq gaplarni mustaqil ishlatalish mumkin emas, chunki ularning mazmuni kontekstdan tashqarida har doim ham tushunarli bo'lavermaydi. Gaplardagi o'zaro aloqa zanjir usulida (ikkinchisi gap birinchi gap bilan, uchinchi gap ikkinchi gap bilan) yoki muqobil (gaplar o'zaro bog'lanmaydi, balki o'zaro taqqoslanadi, bunda barcha gaplar birinchi gapga bog'langan bo'lib, uni aniqlab keladi) bo'lishi mumkin. Matn qurilishi nutq turiga bog'liq bo'ladi.

Nutq turlarini tasniflashda bayon usuli, tasvir usuli va muhokama usuli alohida farqlanadi. Yozma nutqni rivojlantirish bosqichlarida tasvir usulidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

**Narsani tasvirlash.** Bunday tasvirda hamma narsa aniq, mantiqiy, to'liq chegaralangan, shaxsiy hissiyot va tasavvurlarsiz bo'lishi kerak. Badiiy tasvirda esa narsa haqida

timsolli tasavvur beriladi. Bunday insholarda muallifning narsani idrok qilishi, kayfiyati, fikrlari va kechinmalari tasvirlanadi. Butun diqqat faqat narsaning timsolini yaratishga hamda yorqin detallarga qaratiladi. Tasvir uchun aniqroq ahamiyatga ega sifatlar, otlar, ravishlar, shuningdek, qiyoslashlar, qiyosiy oborotlar va ko’chma ma’noli so’zlardan keng foydalilanadi.

**Jonivorni tasvirlash.** Jonivorni tasvirlash maktab insholarining eng sevimli turlaridan biridir. Bunday insho, odatda, shaxsiy taassurotlar va kuzatishlar asosida yoziadi. Jonivorni tasvirlash jarayonida uning qiliqlarini, u bilan bog’liq qiziq sarguzashtlarni hikoya qilmaslik mumkin emas. Buning ustiga, bunday insholarda jonivorning hayotida ro’y bergen biror voqeani emas, balki uning tashqi ko’rinishini yoki xarakterini tasvirlash muhim. Jonivorlar tasvirida nasl, tiroqlar (changallar), tumshuq (yoki burun), gavda, panja, tus kabi so’zlardan o’rinli foydalanish zarur. Ularning tashqi ko’rinishi yoki xarakteriga xos eng muhim jihatlarni ko’rsata bilish lozim.

**Xona (imorat) tasviri.** Bunday matnlarni yaratish tajribasi juda kam, shuning uchun bunday inshoni yozish jarayonida o’quvchilarda xona yoki binoning eng muhim o’ziga xosliklarini ko’rsata oladigan detallarga e’tibor qilish ko’nikmasini shakllantirish lozim.

**O’rin-joy tasviri.** Bunday inshoda inson xohlagan jojni tasvirlashi mumkin: qishloq, qo’rg’on, shahar, ko’cha, hovli, maydon va b. Bunday tasvirning asosi berilgan joy uchun xarakterli bo’lgan narsalarni hisobga olish va ularning tasviri sanaladi. O’rin-jojni tasvirlashda “kuzatishning boshlang’ich nuqtasi”ni topishni bilish talab etiladi. Masalan, siz adir yoki qirning ustida turib, shahar va uning atrofini kuzatyapsiz. Bunda quyidagi so’zlar va so’z birikmalaridan foydalanasz: yaqinda, bir necha qadam narida, sal nariroqda, yaqinida, qarshisida, ko’pqavatlari uylar jamlanmasi, yangi rejalashtirish, ko’priklarning nafis panjaralari, tasvirlari burchaklar va h.k.

**Inson tashqi qiyofasini tasvirlash.** Bunda insonning yuz tuzilishi, qomati, xatti-harakati, o’zini tutishi, o’ziga xos gavda holati, kiyim-boshi tasvirlanadi. Bunday tasvirning bosh vazifasi inson tashqi qiyofasining asosiy jihatlari va xarakterli xususiyatlarini aniqlash hamda uni so’zlar orqali ifodalashdan iborat. Bu jihatlar insonning yurish-turishi, qiliqlari, kasbi va mashg’uloti, xarakter xususiyatlari bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

**Harakat tasviri.** Har qanday tasvirdagidek, harakat tasviri ham rasmiy va badiiy bo’lishi mumkin. Rasmiy tasvirda asosiysi aniqlik va mantiqiy ketma-ketlik sanalib, jarayonning barcha unsurlarining to’liq tasviri uchun yetarli bo’ladi. Badiiy tasvirda esa o’quvchining hissiyotiga ta’sir etish, unda muayyan kayfiyatni tug’dirish asosiy xususiyat sanaladi. Insonning mehnat faoliyatini tasvirlovchi matnlar quyidagi qismlarga bo’linadi: ishga tayyorlanish, ishning borishi va ishning natijasi.

**Tabiat tasviri.** Bunday tasvirlari inshoda hikoya qilish uchun istalgan mavzu tanlanishi kerak. Boshlash uchun badiiy asarlardan olingan tabiat tasvirlari o’qib eshittirilishi lozim. Keyin o’quvchilarga o’z kuzatishlaridan olingan taassurot bo’yicha yozish topshiriladi. Bunda yordam uchun quyidagi savollar beriladi: Tasvirlanayotgan narsa nimaga o’xshaydi? U nimani eslatadi? U insonda qanday fikr va hissiyotlarni uygotadi? Tasvir uncha katta emas, lekin yorqin bo’lishi kerak.

**Rasm tasviri.** Bunday insho nafaqat o’quvchilarning luga’viy boyligini oshiradigan, balki go’zallikka intilishni, san’atni tushunish va qadrlashni o’rgatadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan, kuzatuvchanligi va tasavvurini rivojlantiradigan ijodiy ish sanaladi. Tasviriy san’at olami juda boy va murakkabdir, u bir necha janrlarga bo’linadi: natyurmort, portret, peyzaj. Tasviriy san’atning asosiy belgisi – ranglardir. Ranglar so’z boyligining oshishida asosiy rolni o’ynaydi.

Rasmni tahlil qilishda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

– rasm janri;

- 
- rasmda tasvirlangan shaxs va narsa(lar);
  - rasm uyg'otadigan kayfiyat;
  - rasmning asosiy mikromatnlari;
  - muallif timsol yaratishda foydalangan tasviriy-ifoda vositalari (hajm, kompozitsiya, yorug'lik, rang va kolorit);
  - muallif pozitsiyasini va rasmning asosiy g'oyasini ifodalashda bu vositalarning ahamiyati.

Tasvirlash, bu – narsa yoki hodisani ko'rsatish, ularning ayni damda berilgan maqsad uchun muhimroq bo'lgan u yoki bu belgilarini ochib berishdir. Belgi nima? Biz uni tanib olishimiz uchun faqatgina unga xos bo'lgan xarakterli xususiyati, o'ziga xosligi hisoblanadi. Tasviriy inshoda syujet ham, qoidaga muvofiq, harakatlanuvchi shaxslar ham yo'q. Narsani tasvirlashda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun, birinchidan, uni diqqat bilan kuzatish, unda butun umumiy tasvirni ko'rsata oladigan detallarni ajratish; ikkinchidan, uslub talablariga mos keladigan qiziqroq va yorqinroq belgilarni ajratib olish (ular ko'p bo'lishi shart emas), uchinchidan, timsolli qiyoslash, sifatlashlar kabi til vositalardan moslarini tanlash muhim.

Bugungi o'quvchilar ertaga qaysi kasb egalari bo'lishidan qat'i nazar, ular birinchi navbatda, madaniyatli kishi bo'lishlari lozim. Bugungi kunda madaniyatli kishi erkin va savodxonlik bilan yoza olishi va gapira olishi lozim. Shaxsni o'z fikr va tuyg'ularini xoh og'zaki, xoh yozma ravishda ifodalash malakasisiz rivojlantirish mumkin emas. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish – ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishning dastlabki shartidir. Hozirgi zamonaviy maktablarda aksariyat o'quvchilar insho yozishni xohlamaydilar, yoki yozishga qiynaladilar. Biroq muloqotning zamonaviy davrida yozma nutqni o'quvchilarning eng ko'p talab etiladigan faoliyat turlaridan biri deb tan olish kerak. Chunki sayt tuzish, chatlar yordamida tarmoqda muloqot – bularning hammasi matnlarning mantiqiy va kompozitsion jihatdan tugallikka ega bo'lgan mustaqil ravisha tuzilgan yozma nutq ko'rinishlaridir. Shuni esda tutish lozimki, har qanday xizmat qog'ozi – hujjatlar: hisobot, ma'lumotnama, tavsiyanoma, qaydmi – bularning hammasi inshoning bir turi sanaladi va ishbilarmon kishining muvaffaqiyati uning aloqa matnlarni yozish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi aynan shu narsalarni o'quvchilar ongiga to'g'ri yetkaza olsa, ular original matnlarni savodxonlik va ishonch bilan yozish ko'nikmasi va malakasiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insho yozishni o'rgatish – zamonaviy maktabning dolzarb muammolaridan biridir va bu ko'nikma o'quvchining kelajakda qaysi soha – xoh fan, xoh texnika yoki san'at sohasida bo'lmasin, madaniyatli kishi sifatida kamol topishi uchun zarurdir.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 208-b.
2. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1992. 299-b.
3. Husanboyeva Q. Tahsil adabiyotni anglash yo'li. – T.: Sharq, 2013. 346-b.
4. Nurmonov A, Sobirov.A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – T.: Ilm ziyo, 2010. 160-b.
5. Turdiyev B. Yozma nutqni rivojlantirish yuzasidan praktikum. – T.: O'qituvchi, 1980, 124-b.
6. Madayev O. Insho qanday yoziladi. – T., 1991, 120-b.
7. Баранова Э. Методика обучения аргументированному письменному высказыванию. – М.: Просвещение, 1991. – С. 227.

**Maryambibi ABDULLAYEVA,**  
Toshkent viloyati XTXQTMOI katta o‘qituvchisi

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O‘QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada modulli ta’lim texnologiyalari va ularni boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo’llashning pedagogik asoslari yoritib berilgan. Muallif kichik yoshdagi o‘quvchilar bilimini rivojlantirishda modulli ta’limning ahamiyati, modulli dastur tuzish, modulli ta’limda o‘qituvchi bilishi va qo’llay olishi zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarni shakllantirish masalalari haqida ma’lumot berib o’tgan.

**Kalit so‘zlar.** Modulli ta’lim, modulli dastur, rivojlantiruvchi ta’lim, jamoada ishslash, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, refleksiv ta’lim.

В статье рассматриваются педагогические основы модульной технологии образования и их применение в процессе начального образования. Приведена информация о преимуществах, цели и задачах модульного образования, их значении в развитии учащихся младшего возраста. Подчеркнута необходимость знаний учителями основ модульного обучения и владения навыками применения модульных программ.

**Ключевые слова.** Модульное обучение, модульная программа, развивающее обучение, работа в коллективе, личностно-ориентированное обучение, рефлексивное обучение.

The article describes pedagogical basics of modular technologies of education and its application in the process of primary education. It also provides information about the benefits, objectives and tasks of the modular education, their importance in the development of younger pupils. Importance of knowledge of modular education of teachers and skills of applying modular programs is highlighted ,

**Key words.** Modular education, modular program, developing education, teamwork, personality-oriented education, reflexive education.

**B**oshlang‘ich ta’limda shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalarini qo’llash o‘quv jarayonini kichik yoshdagi o‘quvchilarning imkoniyatlari va talablariga muvofiq moslashtirishga ko’maklashadi. Ularning individual xususiyatlariga qarab yondashish rivojlantiruvchi ta’lim tizimini samarali tatbiq etishga yanada yaxshiroq sharoit yaratishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Mazkur ishlarni mакtab amaliyotida amalga oshirish uchun modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiқdir.

Modulli ta’lim – muayyan bir o‘quv bosqichida qo’llaniladigan didaktik asos va pedagogik texnologiyalar majmuidir. Uning mazmuni – modul bilan ishslash jarayonida o‘quvchi mustaqil yoki ma’lum miqdordagi yordam bilan ta’limning aniq maqsadlariga

---

yuqorida keltirilgan g'oyalar majmui aynan boshlang'ich ta'limga kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoada ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi, muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoada ishslash har bir o'quvchining ta'limga individual ta'limga o'tmasdan turib, ularning harakatlardan tezlik bilan shaxsiy qobiliyatlarini aniqlashga imkon beradi, ma'lumotlarni tez qabul qilish, faol o'zlashtira olish va uzatish talab hamda ko'nikmalarni shakllantiradi, ta'limgni yuqori darajada jadallahshuvini ta'minlaydi, intellektuallikni va madaniyatni oshiradi, ijtimoiy va ishbilarmonlik muloqot madaniyatini shakllantiradi, o'quvchining sog'ligini yaxshilaydi.

Boshlang'ich ta'limga o'quvchilar doimiy tarkib bilan yoki tarkibni o'zgartirish bilan juftlikda ishslashga o'rganishadi: "Archa", "Irmoqlar", "Eskalator", "Ilon izi" – bular bolalar uchun tanish bo'lgan o'yin turlari. Bolalar darslarda doimiy tarkib bilan yoki tarkibni o'zgartirish bilan juftliklarda katta qiziqish bilan topshirqlarni bajarishadi. Shuning uchun ham modulli ta'limga texnologiyalarini qo'llash boshlang'ich ta'limga juda dolzarb masaladir. Bunda bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilishga, o'z bilimlari bilan o'rtoqlashishga, boshqa insonlarning fikrini hurmat qilishga o'rganishadi.

Modulli ta'limga texnologiyalari va boshqa shaxsga yo'naltirilgan ta'limga metodlari boshlang'ich ta'limga ko'plab ta'limi muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bunda boshlang'ich umumta'limga, ayniqsa, tashkiliy va kommunikativ bilim va ko'nikmalar shakllanadi, asosiysi o'quv mashg'ulotlarda psixologik-pedagogik moslashuv va refleksiv ta'limga qo'llaniladigan mikroiqlim yaratiladi.

Modulli ta'limga elementlari orqali olib boriladigan dars samaradorligi va amaliy yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Modulli o'quv mashg'uloti o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantiradi hamda mustahkam umumta'limga bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quv faoliyati jarayonida shunday sharoitlar yaratiladi, ular bolalarga reproduktiv ko'rinishdan ijodiy faoliyat ko'rinishiga o'tishga imkon beradi.

Pedagoglardan bolalarga nafaqat mustahkam bilimlar berish talab qilinadi, balki shu bilan birga o'quv mashg'ulotlarida bola tarbiyasi va rivojlanishi uchun sharoit yaratish, ularni o'z ishi maqsadini aniqlashga o'rgatish, tashkillashtirish, tahlil qilish, o'z faoliyatini baholash, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, ularni turli xil o'quv faoliyatida qo'llashga, har bir o'quvchini uning layoqati, qiziqishi va qobiliyatiga qarab individual rivojlanish haq-huquqini ta'minlashga imkon beradi.

O'quv faoliyatining bunday differensialligi turli darajadagi bilimlarga ega bo'lgan o'quvchilarning kelajakda bir xil shakllanib borishi imkoniyatini ta'minlaydi.

Modulli dars mashg'ulotlarining oddiy dars mashg'ulotlaridan farqi shundaki, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonining mantiqiy holatiga qarab quriladi va o'zida bilishning tuzilishiga ko'ra o'quv faoliyatiga mos keluvchi butun bosqichni aks ettiradi. Bu holda yangi ma'lumotlarni o'rganish o'zaro aloqa usuli bo'yicha o'quvchilarga mustahkam birlikni uzatishga imkon beruvchi ma'ruza shaklida olib boriladi.

Yangi mavzuni o'rganishdan oldin darsning kirish qismida o'tgan mavzuni takrorlash suhbat shaklida o'tkazilishi mumkin, bunda o'quvchilar xotirasidagi yangi mavzuni o'rganish uchun zarur bo'lgan bilimlarni qayta tiklaydilar. O'quvchilar tomonidan nazariy qism o'zlashtirilgandan so'ng standart masalalarni yechishda ko'nikmalar hosil qilishga o'rgatuvchi trening-minimum o'tkazish mumkin. Buning uchun juftliklarda ishslash yaxshi tushunib olishga va darsda o'rganilganlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Juftliklarda ishslash sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarga misol yoki masalani yechish algoritmini sheringidan eshitib, so'ng boshqa o'xshash masalaning yechimini o'zi ay-

tib berishiga zamin yaratadi. Kuchli o’zlashtiruvchi o’quvchilar ham o’rganilayotgan ma’lumotlarni yanada yaxshiroq mustahkamlashga erishadilar.

Yangi mavzuni o’rganishda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvga ko’ra har bir o’quvchi faqat yaxshi va a’lo baholar bilan baholanib boriladi. Bunday baholash bolalarda doskaga chiqish va o’z kuchini sinab ko’rish istagini kuchaytiradi, ular hatto yomon baho olib qolishlari mumkinligidan ham qo’rqmaydilar.

Mavzuni o’zlashtirishning keyingi bosqichi amaliyatga tayangan holda olib boriladi. Ishning asosiy shakli guruhlarda ishlash bo’lib, hamkorlikda ishlash va kuchli qiziqishni shakllantiradi. Guruhlarni shakllantirishda o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirish darajasi asos bo’ladi. Ushbu jarayonda nafaqat masalaning yechimini topish texnikasi ishlab chiqiladi, balki ularda kommunikativ ko’nikmalar, tahlil qilish, rejalashtirish, faoliyatlarini nazorat qilish qobiliyatları shakllanadi. Guruhlarda ishlashning asosiy maqsadi – jamoaviy ijodiy faoliyat olib borishdir, asosiy g’oyasi – “har bir shaxsiy fikr dan umumlashgan xulosa”.

O’quv materialini o’zlashtirishga qiynaladigan o’quvchilarga individual topshiriqlar beriladi, ular o’qituvchidan maslahat olish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Ta’limning muvaffaqiyatliligi uzlusiz o’zaro aloqadorlik, ya’ni har bir o’quvchining muvafqaqiyatli harakati haqidagi ma’lumotni o’z vaqtida olishi bilan bog’liq. Shuning uchun har bir amaliy seminardan keyin o’quvchilar bilan o’quv materialining shu qismini qay darajada o’zlashtirganlik natijalari bo’yicha baholash o’tkaziladi. Dars yakunlari bo’yicha nazorat ishi oldidan nazariy va amaliy savollardan tashkil topgan imtihon olinadi.

Mustahkamlovchi takrorlash mavzuni umumlashtirib ko’rib chiqishga, uning to’liq tizimli bilimini olishga sharoit yaratadi. Mazkur integrallashgan texnologiyada uy ishi topshiriqning o’quvchi bajara olish darajasiga qarab beriladi va albatta tekshiriladi. Nazorat ishi olib bo’linganidan so’ng xatolar ustida amaliy ishlash lozim, bunda ham bolalar hamkorlikda o’zlarining xatolarini topgan holda guruhlarda ishlashadi.

Dars jarayonida o’qituvchi darsning maqsadi va vazifalarini biluvchi, ularni amalgaloshirishga mas’ul yagona shaxs. O’qituvchi tushuntiradi, so’raydi, baholaydi, o’quvchilar esa ta’limning faoliyatsiz qatnashchilari bo’lib ishtirot etishadi, ular asosan eshitishadi va javob berishadi.

Modulli ta’limda o’qituvchi ta’limning tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi, u ta’lim jarayonini boshqaradi. O’qituvchi bu jarayonda maslahatchi, o’quvchilarning yordamchisiga aylanadi. U o’z vazifalarining bir qismini o’quv materiallarini qayta ishlashda (o’zaro va o’z-o’zini nazorat qilish) o’qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan nizom bo’yicha o’quvchilarga taqsimlaydi. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarning tahliliy ijodiy faoliyati, o’qituvchi tilida gapirish, xulosa qilish, o’z nuqtayi nazarini yoritib berish uchun zamin yaratadi.

Modulli ta’lim texnologiyalari o’quvchilarning shaxsiy kamol topishini ta’minlaydi, har bir o’quvchi uchun o’z-o’zini takomillashtirish va namoyon qilishga sharoit yaratadi. Har bir shaxs – individualligi va faoliyatning har xilligi o’quvchilarning har biriga ta’lim jarayonida shaxsiy o’rnini topishga yordam beradi.

Amaliyot bu texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi: o’quv yuklamasi kamayadi, umumiyligi va xususiy darajalarda bilimlarni chuqurlashtirishga, ya’ni o’quvchilar ni rivojlantirishga sarflash zarur bo’lgan o’quv vaqtini tejaladi. Bolalar katta qiziqish bilan topshiriqlarni bajarishadi, ularning fanga bo’lgan qiziqishlari ham ortadi.

---

Modulli ta'limgan texnologiyalarini qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi bilishi zarur:

- modulli texnologiyalarning nazariy asoslarini (maqsadlar, qonuniyatlar, yonda-shuvarlar);
- darslarni turkumlashtirishni (modulli o'quv mashg'uloti tuzilishini);
- o'zlashtirish mantig'ini (qabul qilish, fikrlash, tushunish, eslab qolish, na'munalar bo'yicha qo'llay olish, boshqacha hollarda qo'llay olish);
- darsning har bir bosqichini (maqsad, o'quv mashg'uloti mazmunini, o'quvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarilishi, nazorat turlari, natija, refleksiya);
- shaxsga yo'naltirilgan ta'limgan va rivojlantiruvchi ta'limgan metodlarini;
- bilimlarga ega bo'lish darajalarini (reproduktiv, konstruktiv, ijodiy).

Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- modulli dasturni tuzish;
- texnologik xaritani tuza olish;
- o'quvchilar bilan birgalikda dars mavzusini va maqsad-vazifalarini yoritish;
- 3 ta darajada (reproduktiv, konstruktiv, ijodiy) bilimlarni va shakllangan ko'nik-malarni namoyon qilish;
- o'rganilayotgan va o'zlashtirilgan bilimlarni aniqlab borish uchun rivojlantiruvchi va ta'limiylar tarqatma materiallarni tuzish;
- 3 ta daraja bo'yicha testlar, turli darajali nazorat ishlarni tuzish;
- o'quvchining tor va dolzarb rivojlanish sohasini aniqlash;
- nazorat ishlari natijalari bo'yicha o'rganilganlik darajasini tadqiq etish;
- bilish va bajara olish tushunchalarini ajrata olish;
- har bir dars uchun kerakli o'quv materiallarini tanlay olish;
- o'quvchilarning o'zlashtira olish darajalari va rivojlanishlarini aniqlash uchun har bir modulda hisobni olib borish.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, modulli ta'limgan texnologiyalari o'quvchilar tomonidan axborotlarni mazmunli qabul qilishga sharoit yaratadi, dars vaqtini tejaydi, fanni chuqurlashtirib, o'qitish imkoniyatini ta'minlaydi va ta'limgan berish jarayonida qulayliklar keltirib chiqaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. *Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish*. – T.: TDIU, 2010. 34-b.
2. Sayidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – T.: Moliya, 2005. 22-b.
3. Берсенева Л.А. *Два модульных урока по естествознанию*. № 1, 2008. – С. 51.
4. Гузеев В.В. *Общеобразовательная технология: от приёма до философии*. № 4, 2006. – С. 46.
5. [www.pedagogika.uz](http://www.pedagogika.uz).

O’ktam FARMONOV,

Jizzax Davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi

## BOSHLANG‘ICH SINF O’QITUVCHILARI IJODIY FAOLIYATINING O’ZIGA XOS JIHATLARI

### **Annotation**

Maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ushbu maqolada o’qituvchi ijodiy faoliyatining o’ziga xos jihatlari to’g’risida mulohaza yuritgan.

**Kalit so’zlar.** Ijod, faoliyat, yondashuv, shaxs, ijod turlari, ijod xususiyatlari, o’qituvchi ijodkorligi, muammo, yechim, ehtiyoj, tizim, fikr, natija.

В статье освещены вопросы подготовки будущих учителей начальных классов к творческой деятельности, определены особенности творческого подхода к процессу обучения в начальной школе.

**Ключевые слова.** Творчество, деятельность, подход, личность, виды творчества, специфика творчества, творчества учителя, проблема, решение, требование, система, результат.

The article highlights the issues of preparation of the future teachers of primary classes for creative activities, defined features of a creative approach to teaching in an elementary school.

**Key words.** Creativity, activity, approach, personality, types of creativity, creative features, creativity of teachers, problem, solution, requirement, system, results.

**O**zbekiston oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini zamon talablari asosida tayyorlash va ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu ma’nda mazkur toifa mutaxassislarini ijodiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyat pedagog shaxsnинг kasbiy faoliyatida asosiy masalalardan biri bo’lib, bu jarayonda ta’lim va tarbiya ishlarini yangicha asosda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’linadi. Pedagog olimlarning fikricha, “ijodiy faoliyat – bu ruhiy aqliy kuchlarni ishga solib, insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, muammoni qat’iyat bilan hal etish istaklari majmuasi”dir.

Ijod inson faoliyatining o’ziga xos ko’rinishi sifatida yangilik, ijtimoiy ahamiyatlik, va taraqqiy parvarlik belgilarini o’zida namoyon etadi. Ushbu belgilar ko’p hollarda e’tiborga olinmaydi yoki tan olinmaydi. Lekin ijodiy faoliyat o’zining tabiatini nuqtayi nazaridan inson va jamiyat rivojlanishiga ko’maklashishi bilan birga dunyoning yangi mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shu ma’nda ijod inson faoliyatida namoyon bo’ladi va muammoli vaziyatlarni hal etib, jamiyat va shaxs rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi.

---

Ijod obyektiv va subyektiv jarayon bo'lib, shaxsning bilim, mahorat, qobiliyatlarini natijasi hisoblanadi, u jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Agar ushbu belgilardan hatto bittasi uchramasa ijodiy faoliyat to'liq amalga oshmaydi yoki faoliyat ijodiy deb atalmasligi mumkin. Shu jihatdan quyidagi ta'rifni berish mumkin:

Ijod – bu inson faoliyatining bir ko'rinishi bo'lib, u ijodiy vazifani yechishga yo'nalir tilgan, obyektiv (ijtimoiy, moddiy) va subyektiv (bilim, mahorat, ijodiy qobiliyatlar) sharoitlarda vujudga keladi, o'ziga xos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, yangilik va taraqqiyotga hissa qo'shish hisoblanadi.

Ijodiy faoliyat shaxsning barqaror harakat maqsadi, harakat usullari va harakat shartlari tufayli amalga oshadi. Uning tuzilishida o'zaro aloqalar, maqsad, vositalar va shartlari xususiyatlarni belgilaydigan harakat usullari muhim o'rinn tutadi. Ijodiy faoliyat uchun buyurtmalilik, qoliplilik, aniqqlik, qat'iyllilik, shablon kabilar xos emas. Chunki ijodiy faoliyat inson uchun yangi, ungacha bo'Imagan strategiyani yaratib, bilim va tafakkurga asoslanadi. Shu jihatdan ham talabani ijodiy faoliyatga tayyorlashning an'anaviy metodlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Oliy pedagogik ta'lif muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda metodologik bilimlar muhim o'rinn tutadi. Chunki ijodiy faoliyatga tayyorlashda chuqur egallangan ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va tajribalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu ma'noda o'qitish jarayonida ijodiy faoliyatga tayyorlashda dastlab bilimlar o'zlashtiriladi. Bunda o'qitishning nazariy asoslarini o'zlashtirishni ta'minlash, nazariy bilimlarni ijodiy faoliyatda qo'llash malakasini shakllantirish o'z samarasini beradi.


Pedagogik adabiyotlarda turli ijodiy faoliyatlar sermahsul, qarama-qarshi yoki o'zaro bir-birini to'ldiruvchi sifatida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Bunda erishilgan natijalar qaytadan ishlab chiqiladi. Mahsuldarlikka erishish uchun ijodiylikning sermahsulligi, natijaviyliги muhim ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyat rivojlanishida olg'a intilish, yangiliklar, tabiatni aks ettirish yoki qayta yaratish va o'zgartirish kabi jarayonlar amalga oshadi. Buning natijasida talaba va o'qituvchi faoliyatida ijodiy munosabatlар vujudga keladi.

Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan talabaning va ijodiy faoliyatga moyil talabalarining ta'lif-tarbiya jarayonini kutilgan darajada o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ijodiy elementlar, yangilik yaratish maqsadi kabilar o'qituvchi va talabalarning muammolari hal qilishdagi o'zaro munosabatini tashkil etadi.

Talabalarga ijodiy faoliyat asoslari o'quv-tarbiya va ma'rifiy tadbirlar jarayonida tushuntiriladi. Bunda pedagogik va mutaxassislik fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'rghanish asosiy vazifa qilib belgilanadi. Chunki pedagogikaga oid fanlar ijodiy faoliyat elementlarini o'z ichiga olib, mutaxassislik fanlari esa dars jarayonini ijodiy tashkil qilish sabog'ini beradi. Bunda har qanday ijodiy faoliyat bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular bir-birini to'ldiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy individualligini rivojlantirishda uning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular ijodiy faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilarda ijodning sermahsulligi oshib, ularda ko'nikma va malakalari shakllanadi. Ular eskirgan shablonlardan voz kechib, puxta nazariy bilimlar asosida o'z tafakkuri va ijodiy uslubini rivojlantiradi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'qituvchi va talaba munosabatlari asosida qandaydir yangilik yaratiladi.

Yangilik – bu ijodning asosiy mezoni hisoblanadi. Ijodiy faoliyatda bo'lajak o'qituvchi yangi pedagogik g'oyalarni ochishi va uni ilgari surishi, mujassamlashtirishi, pedagogik ixtiolar, ta'lif-tarbiya jarayonlarini takomillashtirish kabilarni amalga oshirishi muhim hisoblanadi. O'qitish jarayonida o'qituvchining ijodiy faoliyatni fanga yo'naltirilganligi, kompleks yondashuvni amalga oshirishi, ya'ni ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni birgalikda hal qilishi, bilish va amaliy faoliyatga kirishish, turli malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlashi har bir talabaga individual yondashish, ta'lif-tarbiya mazmuni optimallashtirishi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning mustaqil fikrlarga ega bo'lishi, bilimlar va mulohazalar, kerakli jadval va rejalarни ishlab chiqsa olishi, pedagogik mahoratini amalga oshirishi, intellektuallik, muammoni ko'ra olish, g'oyalarning tug'ilishi, vazifalarning ifodalanishi, yechimlarni izlash, ixtiro tamoyiliga amal qilish lozim.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisinining ijodiy faoliyatni mazmuni

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatni muammoni anglash, muammoni hal etish, qarorni tekshirish kabi bosqichlarda amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oliy ta'lif muassasalari talabalarini o'quv-tarbiyaviy jarayonda ijodiy faoliyatga tayyorlash vazifalari – bular pedagogik muloqot, madaniyat, o'z so'zi bilan ta'sir o'tkazish, o'z faoliyatini boshqara olish, yetuk tarbiyaviy ong va nutqqa ega bo'lish kabilar hisoblanadi. O'qituvchi bilan talabalarning muloqoti o'zaro ta'sir jarayoni shaxsni ruhiy rivojlantirishining asosini tashkil etadi. Talabaning ijodiy individualigini shakllantirish, uning o'qituvchi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish jarayonida ularning o'zaro ta'sir xarakteri va usullarini amalga oshiradi. Bunda o'qituvchi talabalar tomonidan egallangan bilimlarni ijtimoiy tajribada qo'llash, ma'naviy-madaniyatini shakllantirish bilan kifoyalanib qolmay, balki unda bilimga, dunyoga bo'lgan munosabatini rivojlantiradi. Shu jihatdan ham o'qituvchi talabaning ijodiy faoliyatini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Chunki o'qituvchining ijodiy faoliyat funksiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lif-tarbiya jarayoniga va ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'zi o'zlashtirgan axloq modeli, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarini aniq ravshan namoyish qiladi. Ya'ni o'qituvchi talaba shaxsiga o'zining ta'sirini o'tkazadi. O'qituvchi talaba ongiga, his-tuyg'usiga, yurish-turishiga ijodiy faoliyat va tashabbusni rag'batlantirish asosida maqsadga yo'naltirilgan ta'sirini amalga oshiradi. Ijtimoiy maqsadlarni ijobjiy darajada o'tkazishga, ularni o'z-o'zini takomillashtirish va individual qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga yordam beradi.

Bu vazifa oliy pedagogik ta'lif jarayonida o'qituvchi bilan talabaning bevosita munosabatida amalga oshiriladi. Bunda talaba aniq faoliyat davomida o'qituvchi shaxsining individualigini kuzatish, idrok qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

---

Bu esa o‘z navbatida, talabalarda zarur ehtiyoj va qobiliyatlarni shakllantiradi. Bular talabaning ichki dunyosi, uning ma’naviy va axloqiy fazilatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga imkon beradi. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda yetakchi g‘oya va axloqiy talablar, yangi his, yangi qaror va yangi yondashuvlar paydo bo‘ladi. Mana shu jihat bilan ijodiy faoliyat bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik ko‘lamini kuchaytirish omili hisoblanadi. Talabaning ijodiy dunyosi, xususiyatlari, uning faoliyatida o‘z ifodasini topadi va ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan kuchayadi. Bunda jamiyat madaniy muhitining ijtimoiy-madaniy qadriyatlar asosiy yo‘nalishlarni belgilaydi. Faoliyat mahsullari esa ommaviy ravishda inson ongiga ta’sir ko‘rsatadi va mavjud bo‘lgan yo‘nalishlarni rivojlantiradi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, ijodiy faoliyatda yaxshi natijalarga erishish bir qator ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq. Ijodga qiziqish, sharoitlar bilan birga xayol, tasavvur, faraz qilish kabi xususiyatlar muhim o‘rin tutadi. Ijodkor o‘qituvchida fikr-muhazalar teranligi va mustaqilligi, ta’sirchanlik, sinchkovlik, fikrlarning tanqidiligi, o‘ziga xoslik, o‘y va fikr erkinligi, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va hazilga moyillik kabi muhim sifatlar namoyon bo‘ladi. Ushbu sifatlar haqiqatdan erkin, mustaqil va faol shaxs xususiyatlarini ochib beradi. Hozirgi zamonaviy ijodiy shaxs tushunchasi deganda, astoydil harakatli, ijodga yuqori darajada yo‘naltirilgan, ijodiy faol shaxsni tushunishi mumkin. Ijod tirishqoqlikka, matonatga va og‘ir mehnatga asoslanadi. Shuning uchun fikr-muhazaza sofligi uchun xayol (fantaziya)ning ilk bor uchqunida tayyorgarlikka e’tiborni jamlash zarur.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash bu talabaning o‘z ichki dunyosini so‘z bilan ifodalashga undash va rag‘batlantirish demakdir. Bunda talabalarning ijodiy faoliyati elementlari ikki xarakterli belgisiga qarab ajratiladi:

- 1) faoliyat natijasi (mahsuli) bo‘yicha;
- 2) uning yuz berish usuli bo‘yicha.

O‘quv faoliyatida talabalarning ijod elementlari, avvalo, uning sodir bo‘lishi, muammoni ko‘rish, nostonart vaziyatlarda aniq amaliy va o‘quv masalalarini hal qilishning yangi usullarini izlab topish mahoratida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi ko‘plab didaktik va qo‘srimcha materiallar ichidan o‘quvchilarda ijod uchqunlarini rivojlantirishga yordam beradigan topshiriqlarni tanlab olishi kerak. Ba‘zi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik amaliyot jarayonida intellektual jihatdan bo‘sh rivojlangan bolalarning eshitishi, ko‘rishi, o‘qishi kabilarni salbiy tasvirlaydi. Lekin bunday bolalar his etish, fahmlash xislatlari asosida nimalarnidir modellashtirishi, konstruktsiya qilishi, turli o‘yinlar bilan soatlab o‘tirishi, ajoyib rasmlar chizishi, musiqa cholg‘ularini o‘zicha chalishi mumkin. Ijodiy malakaga ega o‘qituvchi o‘z ishidan ma’naviy qoniqish olishi maqsadida fan va texnikaning turli sohalarida foydalanishi mumkin. Buning uchun talabalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda imkoniyat yaratish va o‘ziga xos muhitni tashkil qilish lozim.

Ijodiy faoliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z bilimlarini boshqalarga uzata bilish mahorati, o‘quvchi nuqtayi nazarini uning qiziqishlari va ehtiyojlarini tushunish, uning shaxsi rivojlanishini, pedagogik taktni, pedagogik kuzatuvchanlikka qaratilgan e’tiborni loyihalashtirish kabilarni namoyon etadi. O‘qituvchining pedagogik kasbi va pedagogik mahorati faqatgina individual shaxsiy bosqichdagina emas, balki shaxsni ijodiy shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya texnologiyalariga o‘rgatish va yangi o‘qitish tizimiga o‘tkazish vazifasi

amalga oshirilmoqda. Ta'limdi, pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish va individuallashtirish asosida o'quvchi intellektini, ijodiy munosabatni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi orqali o'quvchi shaxsini, uning ijodiy ko'nikmasini shakkantirish va o'qitish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ijodiy faoliyat muhitini yaratish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Chunki unda kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorgarligidagi muayyan ma'lumotlarni bartaraf qilish, aynan, bilimlarni ma'lum bir pedagogik vaziyatda talabalarni o'rganish va ular bilan aloqa qilish, jamoani boshqarish, hamkasblar bilan o'zaro to'g'ri munosabat o'rnatish kabilarni takomillashtirishni talab etadi. O'quv faoliyati va pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning nazariy-amaliy tayyorgarligi va ularning kasbiy mahoratini egallashda ijodiy faoliyat ko'priq vazifasini bajaradi. Bunda talabada o'qituvchilik faoliyati elementlari va xususiyatlarini egallashi, shu darajada u o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi birdaniga aniq bo'lib qolmaydi. Chunki o'qituvchilik kasbi talaba uchun ko'p mehnat talab qiladigan sermashaqqat va og'ir ish hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi o'z imkoniyatlariiga ishonib, materialni yuzaki bayon qilishga o'tib ketmasligi kerak. Aksincha, har doim har bir mashg'ulotda yangi g'oyalar, o'quv jarayonini tashkil qilishning nostandart va qiziqarli shakllarini namoyon qilishi, kasbiy faoliyatdagi ijodiy ishga tayyor bo'lishi kerak.

Pedagogik ijod – bu o'qituvchi tomonidan o'quv-tabyaviy masalalarni aniq va nostandart yechimini topish, uni o'qitishda tarbiyaning yangi metodlari, vositalari va usullari bilan boyitish hisoblanadi.

Shunday qilib oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash masalasini hal qilishda oliy pedagogik ta'lim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishini unitib bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 176-b.
2. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: Fan va texnologiya, 2009. 672-b.
3. Mardonov Sh. va boshqalar. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2013. 184-b.

**Qudratjon INOQOV,**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
boshqarma boshlig'i

## HAMKORLIK PEDAGOGIKASI – TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI

### Annotation

Maqolada hamkorlik pedagogikasining ilmiy asoslarini yaratish borasida olib borilgan ilmiy pedagogik izlanishlar natijalarini tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va konseptual g'oyalarini amaliyotda samarali qo'llashni baholashning mezonlari va ko'rsatkichlari, joriy etish yo'nalishlari va joriy etilganlik darajasi bayon etilgan va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Hamkorlik pedagogikasi, boshqaruv apparati, insonparvar, mezon, ko'rsatkich, joriy etish yo'nalishi, joriy etish darajasi, g'oya, texnologiya.

В статье изложены результаты научно-педагогических исследований по созданию теоретических основ педагогического сотрудничества. Также раскрываются особенности основных принципов и концептуальные основы определения критерииев оценки степени использования идеи педагогического сотрудничества на практике, направления внедрения, степени внедрения их в практику.

**Ключевые слова.** Педагогическое сотрудничество, аппарат управления, гуманный, критерий, показатель, направления внедрения, степень внедрения, идея, технология.

This article highlights scientific-pedagogical research results of creating scientific basis of cooperative pedagogy. In addition, the article discusses the characteristics of basic principles and conceptual ideas of determining the criteria for assessing the degree of use of pedagogical cooperation in practice, directions of application, degree of application in practice.

**Key words.** Pedagogical cooperation, administration office, humanitarian, criteria, index, direction of application, degree of application, ideas, and technology.

**O**'zbekiston mustaqillik yillarda demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi maqsadlardan iborat bo'lgan o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilab oldi. Shu yo'lda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson omili, uning manfaatlari ustuvor o'rinn ahamiyat kasb etadi. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikr-laydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash haqida g'amxo'rlik qilish ushbu siyosatning markazi sanaladi.

Ta'lim tizimida hayotga chuqur tatbiq etilayotgan qonun hujjatlari bugungi kun-da ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi rivojlanishni ta'minlamoqda. O'zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu muhim masalani amalgalashirishga katta e'tibor berib, "...bizga islohotlarni xohlovchi va uni o'tkazishga qurbi yetadigan, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan boshqaruva apparati zarur. Biz davlatning kuchi hokimiyat va boshqarish organlarining soni va miqyosida emas, balki ular ishining samaradorligi, faoliyatining mukammallahganligida ekanligidan kelib chiqishimiz kerak" deb alohida ta'kidlagan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 4.4 bandida mustaqil O'zbekiston Respublikasi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'limga muassasalar ota-onalar, oila, mahalla, ma'naviyat targ'ibot markazi, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishga alohida e'tibor berilgan.

Hamkorlik konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnni topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini sezola'digan, insonparvar bo'lishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta'limga tarbiya jarayonining sifati, eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog'liq:

- o'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;
- o'quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga va bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvini samarali joriy etilishi;
- o'quvchilarning ta'limga tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;
- o'qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'liga qo'yilganligi;
- o'quvchilar tomonidan davlat ta'limga standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga oid chora-tadbirlarni samarali amalgalashirishga e'tibor berilgan.

Eng avvalo, ta'limga tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'p jihatdan barcha umumta'limga muassasalarida zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'limga muassasalarini hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog'liq.

O'tgan davr mobaynida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi. Jumladan, hamkorlik pedagogikasining metod, vositalari va texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan asoslanmaganligicha qolmoqda. Bu pedagogik amaliyotda ham o'quvchilarga ta'limga tarbiya berish jarayonida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotimiz jarayonida hamkorlik pedagogikasining ilmiy asoslarini yaratish borasida olimlar sezilarli darajada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borganliklari aniqlandi. Ularni 1-jadvaldagidek tasniflash mumkin.

## Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va konseptual g'oyalarni amaliyotda samarali qo'llashni baholashning mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar
<b>1. Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va konseptual g'oyalarni pedagogik jamaoa bilan qo'llay olish</b>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy g'oyalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– pedagog shaxsining ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli;</li> <li>– zamonaviy adabiyotlarni va ilg'or tajribalarni o'rganish;</li> <li>– zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniш;</li> <li>– respublika, viloyat, shahar, tuman tadbirlarida, konferensiylarida ishtirok etish;</li> <li>– malaka oshirish, doktoranturada o'qishni davom ettirish;</li> <li>– yo'nalish bo'yicha ommaviy axborot vositalariga maqolalar tayyorlash.</li> </ul>
<b>2. Ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'qish jarayonidagi hamkorligi</b>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy g'oyalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyati o'qitishning eng asosiy sharti (natijador pedagogika);</li> <li>– imkoniyatlaridan qat'i nazar barcha bolalar ta'lim olishga haqli;</li> <li>– birgalikda ijodiy faoliyat yuritish;</li> <li>– doimiy qayta aloqa;</li> <li>– o'quv jarayonida ziddiyatlarga olib kelmaslik;</li> <li>– ta'lim oluvchilar uchun sınıf xonasidagi qulayliklar;</li> <li>– guruhlarga bo'lib o'qitish;</li> <li>– darsni takrorlash va mustahkamlash orqali o'zlashtirish;</li> <li>– o'qishga majbur qilmaslik;</li> <li>– o'zlashtirmaslik va zo'riqishlarning oldini olish;</li> <li>– orqada qolganlarni yetkazib olish uchun mavzularni qo'shib o'qitish;</li> <li>– nazariy materillarni yirik bloklarga bo'lib o'qitish;</li> <li>– o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish;</li> <li>– ta'lim oluvchilar o'zlashtirishlarini, faoliyatlarini ijobji baholash;</li> <li>– xatoliklardan ogoh etish;</li> <li>– ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning doimiy o'z bilim va malakalarini oshirib borishlarini ta'minlash.</li> </ul>
<b>3. Tarbiya jarayonida ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar hamkorligi</b>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy g'oyalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– bola shaxsi – ta'lim beruvchilar e'tiboridagi eng asosiy qadriyat va bosh obyekt-subyektdir;</li> <li>– ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi;</li> <li>– ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining individual va tipologik xususiyatlarini inobatga olish;</li> <li>– o'z-o'ziga, yaqinlariga va umuman barchaga e'tibor berish;</li> <li>– ta'lim olishda insonparvarlik, bag'rikenglik tamoyillariga amal qilish;</li> <li>– shaxsni ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish;</li> <li>– jamoaviy ijodiy faoliyat;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ta’lim oluvchilarga ishlarning, faoliyatning shakli, mazmuni va usullarini erkin tanlash imkoniyatini berish;</li> <li>- ota-onalar va hamkorlar (o’zini o’zi boshqaruv organlari (mahalla), jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot organlari, o’ta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari) bilan barcha faoliyat turlarini muvofiqlashtirib borish;</li> <li>- o’z-o’zini boshqarish.</li> </ul>
<b>4. Boshqaruv va ta’lim texnologiyalarining variativligi</b>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy texnologiyalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ta’lim muassasalari boshqaruvi yo’nalishlarida kadrlar tayyorlash va ta’lim tiziminинг rivojlanishi uchun zarur bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda umumiy o’rtalik muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatini shakllantirish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga innovation yondashuv texnologiyalari U.I. Inoyatov, S.T. Turg'unov, Sh. Qurbonov, E. Seitxalilov, M. Mirqosimov, R.X. Djurayev, X.F. Rashidov, A.R. Xo’jaboyev, M.X. Saidov, J.K. Fozilov, Q.O. Shodmonov, F.A. Nosirova, M.R. Rajabova, N.Q. Ahmedova, L.V. Peregudov, V.I. Zvereva, Yu.V. Vasilyev, V.S. Lazarev, G.S. Abduraxmanov, V.P. Toporovskiy, A.M. Moiseyev, M.M. Potashnik, P.I. Tretyakov, T.I. Shamova;</li> <li>– umumiy o’rtalik va o’rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi sifati boshqaruvi tizimini takomillashtirish texnologiyalari U.I. Inoyatov, R.Sh. Ahliddinov, Sh.E. Qurbonov, E. Seytxalilov, S.T. Turg'unov, X.F. Rashidov, A.R. Xo’jaboyev;</li> <li>– rahbar kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish texnologiyalari J.G. Yo’ldoshev, H.Q. Yo’ldoshev, S.M. To’ychiyeva, A. Begmatov, M. Quronov, F. Ergashev, L.V. Golish, N.N. Shanina, T.P. Afanaseva, I.A. Yeliseyeva;</li> <li>– ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar va innovations jarayonlar M.O. Ochilov, O’.Q. Tolipov, B.L. Farberman, N.Shodiyev, N. Ishmuxamedov, N.X. Avliyoqulov, M.S. Alimov, I.Majidov, G.N. Axunova, L.V. Golish, L.I. Fishman, I. Shumpeter, V.P. Bespalko, N.A. Alekseyev, V.S. Bezrukova, Ye.S. Bereznyak, A.Ya. Nain, Yu.A. Konarjevskiy, M.V. Klarin, V.P. Kvasha va boshqalar; boshqaruv nazariyasi yo’nalishi M. Sharifxo’jayev, Yo. Abdullayev, S.S. G’ulomov, Q.H. Abdurahmonov, Yu. Odegov, D.N. Rahimova, N. Komilov, T.M. Adizova, B.A. Erkayev, E.G. Nabiiev, B.Ch. Murtazayev, M.M. Razzoqov, R. Valijonov, O. Qobulov, A. Ergashev, I.U. Murakayev, I.S. Saifnazarov, A.T. To’xtaboyev;</li> <li>– boshqaruv fanining o’rnini, boshqarishning obyektiv qonuniyatlarini, boshqaruv faoliyatining ayrim xususiyatlari U.I. Inoyatov, S.T. Turg'unov, A. Xadjayev, G. Kunts, T. Kono, M. Meskon;</li> <li>– sxemali va belgili o’quv materiallari modellari orqali o’qitishni intensifikasiyalash texnologiyasi V.F. Shatalov;</li> <li>– jamoaviy ijodiy tarbiya texnologiyasi I.P. Ivanova;</li> <li>– insonparvarlik, bag’rikenglik texnologiyasi (“Bolalar va kattalar umri davomidagi pedagogika”) Sh.A. Amonashvili;</li> <li>– tayanch sxemalardan foydalanish orqali o’qitish texnologiyasi S.N. Lisenkova;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– adabiyotni o'qitish shaxsni shakllantirishdagi assosiy dars texnologiyasi Ye.N. Ilina;</li> <li>– fuqarolik va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyasi M. Quronov, M. Quronboyev, T.I. Goncharova;</li> <li>– oilaviy tarbiya texnologiyasi B.P. Nikitin, L.A. Nikitina;</li> <li>– ijod texnologiyasi I.P. Volkova;</li> <li>– teatrshunoslik texnologiyasi Ye.Yu. Sazonova;</li> <li>– musiqa-san'at ta'limi texnologiyasi D.B. Kabalevskiy tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, quyidagi texnologiyalar ham amalda o'rganilan:</li> <li>– shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar;</li> <li>– o'yin texnologiyalari;</li> <li>– muammoli ta'lim texnologiyalari;</li> <li>– loyihalashtirish texnologiyalari;</li> <li>– interfaol texnologiyalari;</li> <li>– modulli o'qitish texnologiyalari;</li> <li>– informatzion texnologiyalar;</li> <li>– kommunikativ texnologiyalar;</li> <li>– alternativ texnologiyalar;</li> <li>– tabiatni asrash texnologiyalari;</li> <li>– erkin ta'lim olish va rivojlanish texnologiyalari;</li> <li>– ijtimoiy-tarbiya texnologiyalari;</li> <li>– qo'shimcha ta'lim texnologiyalari va h.k.</li> </ul>
--	--

Bugungi kunga qadar umumiy o'rta ta'lif muassasalarini hamkorlik pedagogikasi asosida ilmiy-metodik boshqarishning shart-sharoitlari muammosi maxsus disser-tatsiya tadqiqot obyekti sifatida to'liq yoritilmagan.

Mazkur muammoning yechimi ta'lif muassasalarida pedagogik xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar hamkorligini ilmiy asosda tashkil etish imkonini berish bilan bir qatorda, pedagogika fanini ham boshqaruv nazariyasiga oid yangicha yonda-shuvtolar bilan boyitadi.

### **Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va konseptual g'oyalarini amaliyatga joriy etish yo'nalishlari va joriy etilganlik darajasi**

Yo'nalishlar	Joriy etilganlik darajasi
<b>Ta'lif beruvchilar tomonidan hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari va konseptual g'oyalarini bilishi va qo'llashi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– pedagoglar bilishadi va o'zlarining fəoliyatlarida faol qo'llashadi (<b>yuqori</b>);</li> <li>– pedagoglar (qisman) bilishadi va amaliyotlarda (qisman) qo'llashadi (<b>o'rta</b>);</li> <li>– pedagoglar umuman bilishmaydi va o'zlarining amaliyotlarda umuman qo'llashmaydi (<b>past</b>).</li> </ul>
<b>Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va konseptual g'oyalarini qo'llash ko'lami (o'qitish, tarbiyalash, mustaqil ta'lif-tarbiya olish, mustaqil rivojlanish, ta'lif beruvchilar bilan ota-onalarning hamkorligi, o'zini o'zi boshqaruv organlari (makhalla) va ta'lif muassasalarini hamkorligi, jamoat tashkilotlari va ta'lif muassasalarini hamkorligi,</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– tizimli qo'llanilmoqda (<b>yuqori</b>);</li> <li>– qisman qo'llanilmoqda (<b>o'rta</b>);</li> <li>– umuman qo'llanilmayapti (<b>past</b>).</li> </ul>

<p><b>huquq-tartibot organlari va ta'lismuassasalari hamkorligi, o'rtamaksus kasb-hunar ta'limi muassasalari va xalq ta'limi muassasalari hamkorligi, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash)</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>–tizimli qo'llanilmoqda (<b>yuqori</b>);</li> <li>–qisman qo'llanilmoqda (<b>o'rta</b>);</li> <li>–umuman qo'llanilmayapti (<b>past</b>).</li> </ul>
<p><b>Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va konseptual g'oyalarini samarali joriy etish uchun pedagogik shart-sharoitlarning tashkil qilinganligi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>–to'liq tashkil etilgan (<b>yuqori</b>);</li> <li>–qisman tashkil etilgan (<b>o'rta</b>);</li> <li>–tashkil etilmagan (<b>past</b>).</li> </ul>
<p><b>Hamkorlik pedagogikasining asosiy texnologiyasi va metodikasining joriy etilganlik samaradorligi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>–hamkorlik pedagogikasining asosiy texnologiyasi va metodikasining joriy etilganligi ta'lim-tarbiya jarayonida faqat ijobji natija bermoqda (<b>yuqori</b>);</li> <li>–hamkorlik pedagogikasining asosiy texnologiyasi va metodikasining joriy etilganligi ta'lim-tarbiya jarayonida qisqa muddatli (doimiy bo'limgan) natija bermoqda (<b>o'rta</b>);</li> <li>–hamkorlik pedagogikasining asosiy texnologiyasi va metodikasining joriy etilganligi ta'lim-tarbiya jarayonida salbiy natija bermoqda (<b>past</b>).</li> </ul>
<p><b>Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va konseptual g'oyalari asosida tashkil etilgan ta'lismuassasalari faoliyatining samaradorligi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>–ta'lim beruvchilar, ota-onalar, ta'lilmoluvchilar, ta'lismuassasasi faoliyatidan qoniqmoqdalar, davlat va jamiyat talablari, davlat ta'lim standartlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari joriy etilganligi, ijobji natijalar – to'liq (<b>yuqori</b>);</li> <li>–qisman (<b>o'rta</b>);</li> <li>–umuman yo'q (<b>past</b>).</li> </ul>

Tadqiqotimiz jarayonida umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishga oid takliflar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi, ularni pedagogik amaliyotda qo'llash metodologiyasi ishlab chiqiladi, mazkur tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishish maqsad qilib qo'yildi. Jumladan:

1. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning mexanizmi hamda shu jarayonda foydalaniладigan metod va vositalar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi.

2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning metodlari aniq belgilanib, tizimlashtirilgan, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan model yaratiladi.

3. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning texnologiyalari yaratiladi.

4. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini amaliyotga samarali joriy etishning istiqbolli rejasi va nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va konseptual g'oyalarini amaliyotga

---

joriy etish ta'lif-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lif sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.
4. Turg'unov S.T. Umumiyl o'rta ta'lif muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: ped. fan. doktori diss. – T., 2007. 368-b.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lif menejmenti. – T.: Voris-Nashriyot, 2012. 167-b.
6. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс. докт. пед. наук: – Т., 2003. – С. 236.
7. Иноятов У.И. Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // Kasb-hunar ta'lifi jurnali. 2001. №6. 28-31-б.

Gulnora ERNAZAROVA,  
O'MKHTTKMOvaUQTI mustaqil-tadqiqotchisi, p.f.n.

## SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI TASHQI OMILLAR

### Annotation

Maqlolada kasb-hunar kollejlarda ta'lif oluvchilar shaxsini rivojlanirishda akmeologik yondashuv, kasbiy faoliyat va ishlab chiqarishga nisbatan ijobji munosabati yoritilgan. Shuningdek, ongli yondashuvni qaror toptirish kasb-hunar kollejlarda ta'lif jarayoniga va shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar masalasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Shaxs rivojlanishi, o'qitish, tashqi muhit, ongli yondashuv, kasbiy faoliyat.

В статье рассматриваются вопросы акмеологического подхода к развитию личности обучающихся в профессиональных колледжах, формирования у них положительного отношения к профессиональной деятельности и производству. Также определены воспитания сознательного подхода к процессу образования в профессиональном колледже и факторы влияющие на личностное развитие учащихся.

**Ключевые слова.** Личностное развитие, обучение, внешняя среда, сознательный подход, профессиональная деятельность.

The improvement of preparation for professional activity on bases of acme logical approach, development of the personality in training, need of acme logical approach at preparation for professional activity of the personality tasks are displayed in this article.

**Key words.** Acme logical approach, professional activity, preparation for professional activity, professional maturity, professional orientation.

**D**avlat va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan o'quvchilarning jamiyatda talab etiladigan ehtiyoj sifatini ta'minlaydigan darajada mehnat faoliyatini yuritish va yetarli bo'lgan kasbiy bilim va ko'nikmalarni Davlat ta'lif standartlari asosida shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mehnat faoliyatini yo'lga qo'yayotgan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarida kasbiy faoliyat va ishlab chiqarishga nisbatan ijobji munosabat hamda ongli yondashuvni qaror toptirish yo'lida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyatga jamoatchilik e'tiborini tortish hamda oila, ta'lif muassasalari va jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlikni tashkillashtirish ularning har tomonlama barkamol voyaga yetishishini ta'minlaydi.

Ilmiy tahillilar shuni ko'rsatadiki, ko'plab mualliflar bular jumlasiga tizimlilik, ilmiylik, axborotlilik, samaradorlik, integratsiyalashuvchanlik, o'qitish mazmunining yangiligi, algoritmikligini, axborotdorligini ko'paytirish va yangi sharoitlarga o'tkazishni kiritadi.

---

Kasb-hunar kollejlarida ta'limga samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalar ustida ilmiy ishlari olib borilgan bo'lsa-da, bu yetarli emas. Shu bois kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sifatiga e'tibor, jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgani, iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish loyihalarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib turgan bir paytda kasb-hunar ta'limi tizimida ta'limga oluvchilar shaxsini rivojlantirish muammolarini kengroq o'rganish lozim.

Mehnat bozorini shakllantirish bosqichida mutaxassislarning yetuklik ahamiyati ortib boradi. Bunda mutaxassislar faoliyatining yo'nalishini kengaytirish zarurati yuzaga keladi. Axborot integratsiyalashgan bilimlar hajmidan eng ahamiyatlisini tanlash muhim bo'lib, bitiruvchilar undan turli kasbiy vaziyatlarda samarali foydalana olishlari uchun ularning faoliyatlariga oid bilimlar va usullar tizimi, shaxsni har tomonlama shakllantirish akmeologik yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda kollej o'quvchilarining kasbiy faoliyatiga metodologik, nazariy va texnologik tayyorlanishda har bir o'quv fanining hissasini ta'minlash; uning ilmiy mazmunidan foydalanish ehtiyojlarini shakllantirish; barcha fanlarni o'rganish motivatsiyasini ta'minlash; o'qitishning yaxlit yondashuv asosida integral fikrlarni rivojlantirish; vasiylik, homiylik tashkilotlari talablarini e'tiborga olish lozim.

Akmeologik yondashuvda mutaxassisning imkoniyatlarini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadlari o'quv mazmunini tanlash va tuzishga ijodiy yondashuvni talab etadi. Unda faqat ma'lum axborotlar va dalillarni o'zlashtirish, qonun-qoidalarni yod olish, amaliy masalalar va muammolarni hal etish uquvlarini o'rgatish emas, balki eng avvalo, bo'lajak kasbiy mahorat faoliyatining uning qonuniyatları, muammolari, o'zarlo aloqalari va rivojlanish istiqbollari bilan birgalikdagi tarbiyaviy jihatlarini amalga oshirish darajasiga mansub bo'lgan xususiyatlar ajralib turgan jarayon ustun bo'ladi. Bu holda birinchi o'ringa bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatini loyihalashtirish, modellashtirish va konstruktiviyalash talab etiladi.

An'anaviy tizim o'quvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish va eslab qolish jarayonidan iboratdir. Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish tizimida esa, o'qitish jarayonining universal komponenti matnni yod olish emas, balki loyihami yaratish va amalga oshirish jarayonida uni anglashdan iborat bo'ladi. An'anaviy tushuniladigan o'quv materialini egallash ikkinchi darajaga o'tadi. Bilim mavzusi endi ma'lumotlar, tushunchalar, nazarialar va qonunning o'zigina emas, balki kasbiy faoliyatning o'zi, bilish jarayonining natijasi esa, uni amalga oshirishning usul va vositalaridan iborat.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejlari shaxsga kasbiy ta'limga xizmatlarini ko'rsatadi, shaxs mazkur xizmatlardan foydalanib, kasbiy kamol topadi va rivojlanadi. Kasbiy ta'limga xizmatlari shaxs va jamiyatning hayotiy tartibini ma'rifiy-madanly jihatdan belgilab beradi.


Kasb-hunar kollejlarida ta'limga jarayoni davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun vosita sifatida tashkil etiladi. Ta'limga jarayonidagi tashkiliy maqsadlarning o'zgarishi ko'pgina omillar, shunindek, jamiyatda kasb-hunar kolleji harakat-munosabat doirasining kengayib borishi, uni qurshab turgan tashqi muhitning o'zgarishi, ta'limga axborot va pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyatda ijtimoiy va shaxsiy ongning o'sishi, fan-teknika va ishlab chiqarishning yuksalishi, ta'limga muassasasi rahbarlarning almashinishi kabi omillar ta'sirida ro'y beradi.

Kasb-hunar kollejlarida ta'limga jarayoniga, avvalo, uchta omil katta ta'sir ko'rsatishi aniqlandi:

- davlat va jamiyatning ta'limga xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlar, buyurtmalari, tabablari;

- o'quvchilar shaxsi, mehnat bozori;
- kasb-hunar kollejining xodimlari, umumta'lism, umumkasbiy va maxsus fanlar o'qituvchilari hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalari.

Kasb-hunar kollejida shaxs rivojlanishi shunchaki bo'lmaydi va rivojlanmaydi, balki u o'zini qurshab turgan tashqi muhit omillari va ta'sirlari bilan doimiy o'zaro aloqada bo'ladi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilar faoliyatida shaxs rivojlanishi jarayoniga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tashqi muhit omillari mavjudligi aniqlandi. (1-chizma)



1-chizma. Shaxs rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar

1. Oila shaxs rivojlanishi uchun eng muhim omil hisoblanadi, chunki har bir shaxs avvalo, oilada shakllanadi. Shaxsni ta'lism muassasasida rivojantirish nuqtayi nazardan oila tashqi muhit obyekti bo'lishi mumkin. Kasb-hunar kollejidagi ta'lism-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, tarkibiy tuzilishi, mazmuni va metodikasi (texnologiyasi) va uni boshqarish tizimi oila tomonidan ta'limga bo'lgan talab-ehtiyojlarni o'zida to'liq aks etirishi va ularning qondirilishini ta'minlashi lozim yoki aksincha.

2. Jamoat tashkilotlari – ijtimoiy uyushmalar va guruhi ("Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, xotin-qizlar tashkilotlari, ekologik harakat va h.k.) ham kasb-hunar ta'limi tizimi o'quvchisiga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

3. Mahalla – shaxsning qanday rivojlanishi uning yashayotgan muhitiga bog'liq. Mahalladagi muhit, insonlarning o'zaro munosabatlari, u yerdagi tashkil etiladigan milliy, ma'naviy, ma'rifiy tadbirlar, mahallada olib boriladigan ishlar va h.k. shaxsning dunyoqarashi, fikri, jamiyatga, davlatga, insonlarga munosabati shakllanadi, uning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

4. Darsdan tashqari muassasalar – ta'lim iste'molchilariga muayyan yo'naliishlarda xizmatlar ko'rsatadi; ta'lism-tarbiyaga o'z ta'sirini ko'rsatib turadi (madaniyat uylari, sport maktablari, yoshlar markazi va h.k.lar), jamoalar, ularning maqsadlari, maqsadli harakatlari, murabbiyning, jamoadoshlarning ta'siri va boshqalar.

5. Axborot vositalari – fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangi kashfiyotlar, yutuqlar hamda ta'limga uzluksiz taraqqiy etib borishi sharoitida ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Axborot vositalari ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

6. Tengdoshlar, qarindoshlar – shaxsning yaqin do'stlari, tengdoshlarining xulqatvori, fikrlari, hayotdagi intilishlari va qiziqishlari, qarindoshlarning umumiylahvoli, turmush tarzi, o'zaro munosabatlarning iliqligi yoki sovuqligi kabilalar albatta shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi.

---

Ta'lrim muassasalari, ya'ni kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladigan nazariy kasbiy ta'lrim jarayonida nazariy bilim va ko'nikmalar tizimi shakllantirilsa, amaliy kasbiy ta'lrim jarayonida amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi. Bu ikkala mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassis shaxsi shakllantiriladi.

Shu bilan birga, ta'lrim jarayonida Davlat "Ta'lrim qoidalari" – qonuniy asoslarni belgilaydi. Kasb-hunar kollejlarining ta'lrim sohasidagi faoliyati "Ta'lrim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida Davlat ta'lrim standartlariga (DTS) muvo-fiq holda boshqarib turiladi. Kasb-hunar kollejlaridagi ta'lrim mazmuni va jarayoni DTS talablari asosida ishlab chiqiladi va ularga riosa etilishi esa tegishli davlat boshqaruvi organlari tomonidan kuzatib boriladi, bu esa davriy o'zgarishlarga olib keladi. Ya'ni zamona viy ishlab chiqarish, axborot va pedagogik texnologiyalar kasbiy ta'lrimni rivojlantirish uchun juda ulkan imkoniyatlar yaratib, mazkur ta'lrimning maqsadi, tuzilishi va uni boshqarish tizimini o'zgartiradi. Muayyan kasb-hunar kollejining ta'limda axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasidagi xususiy muvaffaqiyatlari o'quvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Ta'lrim xizmatlari, uni resurs-zaxiralar bilan ta'minlovchilar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, davlat va jamoat tashkilotlari kabi omillarning ta'lrim jarayoniga, shaxs rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi, biroq tashqi muhit ta'lrim mazmuni va texnologiyalariga, shaxsning shakllanishiga doimiy ravishda majmuaviy ta'sir o'tkazib keladi. Bu ta'sirlar natijasida shaxs xulq-atvori qisman o'zgarib, uning maqsadlari va strategiyasi yo'nalishi o'zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs rivojlanishi uzoq muddatli rejalashtirishni, o'z-o'zini boshqarishning pog'onaviy va ijodiy tizimlarini maqbul ko'radi. O'zgaruvchan sharoitda amalga oshadigan akmeologik yondashuv jarayoni esa, o'z maqsadlariga, mazmuni va metodikasiga tez-tez tuzatishlar kiritishga, o'zining tarkibiy tuzilishini o'zgartirib turishga majbur bo'ladi. Bunda tashkiliy maqsadlarni uch pog'onaga ajratib ko'rsatish mumkin, tayanch vazifalar, strategik vazifalar va qisqa muddatli rejalar.

Bunda yakka tartibli, guruhiy o'qitish shakllari, shaxslararo munosabatlar va mu-loqot, kundalik hamkorlik va ijod bilan boyitiladigan yo'nalish hosil qilinadi. Bo'lajak kichik mutaxassislar tayyorlash uchun bunday yondashuv, fikrimizcha, eng samarali bo'lib, loyihami ishlab chiqish jarayonida ta'lrim oluvchilar kasbiy-mehnatning maqsadlari, vazifalar, obyekt, amalga oshirish usullari va uning natijasi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni egallaydilar.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. 31-61-b.
2. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Xalq merosi. YOAJBNT markazi, 2002. 206-b.
3. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'lrimni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. 160-b.
4. Скакун В.А. Организация и методика профессионального обучения. Учебное пособие. М.: Из-во ФОРУМ-ИНФРА-М, 2007. – С. 178.
5. Профессиональная педагогика: Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. Под ред. С.Я. Батышева, А.М.Новикова. Издание 3-е, переработанное. – М.: Из-во ЭГВЕС, 2009. – С. 456.

**Baxtiyor PO'LATOV,**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining  
Oliy o'quv kurslari katta o'qituvchisi, yu.f.d., prof.

## YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA UNING ISTIQBOLLARI

### Annotation

Maqlada yoshlarga oid davlat siyosati va uning istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif qonunlarda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etgan organlar va muassasalar bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Yoshlar, davlat, siyosat, istiqbol, huquq, kafolat, manfaat, organ, jarayon.

В статье освещены основные положения государственной молодежной политики и её перспективы. Также автор дает рекомендации причастным организациям и учреждениям по выполнению задач в соответствии с реализацией государственной молодежной политики.

**Ключевые слова.** Молодёжь, государство, политика, перспектива, право, гарантия, польза, орган, процесс.

In this article, state youth policy and its perspectives are highlighted. Also the author gives recommendations to the participating bodies and organizations in accomplishment of tasks according to implementation of the state youth policy.

**Key words.** Youth, state, policy, perspective, right, guarantee, benefit, body, process.

**M**amlakatimiz umumiyo ahonisining taxminan 40 foizini 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 64 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasiga davlat juda katta e'tibor berib kelmoqda. Mamlakatimizda bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlari muhofaza etish, eng muhimi, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Yurtimizda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbuslari asosida 1998-yil – Oila yili, 2000-yil – Sog'lom avlod yili, 2001-yil – Ona va bola yili, 2004-yil – Mehr va muruvvat yili, 2005-yil – Sihat-salomatlilik yili, 2006-yil – Homiyalar va shifokorlar yili va 2007-yil – Ijtimoiy himoya yili, 2008-yil – Yoshlar yili, 2010-yil – Barkamol avlod yil, 2012-yil – Mustahkam oila yili, 2014-yil – Sog'lom bola yili va 2016-yilni yurtimizda Sog'lom ona va bola yili, deb nomlandi. Har bir yil bo'yicha qabul qilingan maxsus davlat dasturlari doirasida yoshlarning har tomonlama qonuniy manfaatlari ta'minlanishini nazarda tutuvchi keng qamrovli chora-tadbirlar kompleksi hayotga iz-chil tatbiq etildi.

---

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kaflatlari to'g'risida"gi qonunida: bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ni ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash; bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish; bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va mansabdar shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkorligini ta'minlash; bolalarning jismoniy, intellektual, ma'nnaviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish; bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari, nodavlat notijorat, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va hamkorlikni rivojlantirish; bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'tasida huquqbazarliklarni kamaytirishga ko'maklashish va boshqalar bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Mustaqil O'zbekistonda voyaga yetmagan yoshlар muammosiga u yoki bu darajada aloqador bo'Imagan biror tashkilot yoki shaxsnинг o'zi yo'q. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasiga binoan, har bir davlat xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari hamda milliy qonunchilikda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida bolalar manfaatlari va farovonligining ustuvorligi mustahkamlab qo'yilganligi nazarda tutilishi, ushbu hujjatlarning bolalikni muhofaza qilish, o'smirlarni himoya qilish, yoshlар huquqlari va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish kafolatlari haqidagi talablar barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan og'ishmay bajarilishini ta'minlanishi lozim.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, fuqarolar bolalar tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilishlari, ularni jamiyat uchun foydali mehnat qilishga tayyorlashlari va jamiyatning munosib a'zosi sifatida o'stirishlari shart. Farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalash ota-onaning konstitutsiyaviy majburiyatidir. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlab, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari ham yoshlarning mehnat, siyosiy va axloqiy tarbiyasini takomillashtirilishini ko'zda tutadi.

Konstitutsiya asosida qabul qilingan bir qator qonunlar yoshlар tarbiyasiga taaluqli masalalarni eng yuqori darajada hal etishni ta'minlaydi. Hozirgi kunda yoshlар tarbiyasiga oid ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi o'ta muhim vazifani bajarish ota-onalar, barcha davlat, nodavlat tashkilotlardan, mahalliy hokimliklar, tegishli muassasalar va jamoatchiliydan ulkan mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 360-sonli qarori qabul qilinishi munosabati bilan yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga, ularni ijtimoiy himoyalashga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish, huquqbazarliklar va jinoyatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etish, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, huquqiy savodxonlikni oshirish bora-sidagi ulkan va mas'uliyatlari vazifalarni amalga oshirishda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tomonidan barcha aloqador vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari faoliyatlarining muvofiqlashtirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vazirlar Mahkamasi-

ning 2011-yil 17-yanvar kungi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 13-sonli Qarori bilan bu faoliyat takomillashtirildi va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar-ning vazifalari va funksiyalari hamda huquqlari birmuncha kengaytirildi.

Dasturli tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida ijtimoiy va huquqiy yordamga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarning miqyosi kengayib, ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalar tarbiyalanadigan "Mehribonlik" uylari va maxsus maktab-internatlarining faoliyati takomillashtirildi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlariga katta e'tibor berilayotgani bejiz emas. Bunday e'tibor, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyadan kelib chiqadi<sup>1</sup>. Chunonchi Konstitutsiyaning 41-moddasida maktab ishlari davlat nazoratida, 45-moddasida esa voyaga yetmaganlarning huquqi davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rzasida, 2010-yilga "Barkamol avlod yili" deb nom berilishi munosabati bilan maxsus davlat dasturini tayyorlashda "Mavjud huquqiy va yuridik bazani tanqidiy ko'z bilan qarab, ularga bugun zamon talab qiladigan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, kerak bo'lsa, oldimizga qo'ygan maqsadlarga javob beradigan yangi huquqiy normalarni ishlab chiqish" lozimligi haqida fikr bildirilgan edi.

2010-yil 17-maydagi qonun<sup>2</sup> bilan voyaga yetmaganlarning restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foy-dalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtida ota-onasidan biri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvisiz ko'rsatilgan muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'yish uchun ma'muriyatining javobgarligini ko'zda tutuvchi huquqiy norma qabul qilinishi ular huquqbazarligini oldini olishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 2010-yil 29-sentabrdagi qonuni asosida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar va ularning vakolatlari, yakka tartib-dagi profilaktika ishini tashkil etish masalalari, voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish va voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tartibi qoidalari belgilandi<sup>3</sup>.

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2016-yil 14-sentabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda "yoshlarga oid davlat siyosati", "yoshlar (yosh fuqarolar)", "yosh oila", "yosh mutaxassis", "yoshlar tadbirkorligi" kabi asosiy tushunchalar berildi va yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. T., 2003, 117- bet

<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010-yil, 20-son, 146-modda.

<sup>3</sup> "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2010-yil, 39-son, 341-modda.

- 
- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko’maklashish;
  - yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;
  - yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
  - yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg’usi, bag’rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura ola-digan, hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
  - yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terro-rizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo’ravonlik va shafqatsizlik g’oyalardidan himoya qilish;
  - yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
  - yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va boshqalar belgilandi.

Mazkur qonunning 6-moddasiga asosan, yoshlarga oid davlat siyosati davlat das-turlari, hududiy va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkinligi belgilanib, ular yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, yosh fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro’yboga chiqarishni ta’minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayo-tida ularning o’rni va faolligini oshirish, sog’lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini ro’yboga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, shu jumladan, prokuratura organlarining ham bu sohadagi vakolat doiralari belgilangan bo’lib, unga muvofiq proku-ratura organlari yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijo etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi; yoshlarga oid davlat siyosati so-hasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi; yoshlar o’tasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, jumladan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabab-larini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi; yoshlar-ning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatda ishtirok etadi; yoshlarga oid davlat siyosatini ro’yboga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Mamlakatdagi deyarli barcha huquqni muhofaza qilish, mahalliy hokimiyat va o’zi-ni o’zi boshqarish organlari tarkibida yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning turli jinoiy oqim va g’oyalar ta’siriga tushib qolishlarining oldini olish, bolalar huquq va manfaat-larini muhofaza etish, jinoyatchilikning oldini olishda yaqindan yordam ko’rsatish faoli-yatiga asos solingan.

Yoshlarni fuqarolik jamiyatning haqiqiy a’zosi sifatida shakllanishini takomillashtirishga huquqiy ta’sir qilish imkoniyatlari oshmoqda. Bu vazifalarning bajarilishida pro-kuratura organlarining ham roli katta. Prokuratura mamlakatdagi huquqni himoyalash mexanizmining muhim bo’g’ini sifatida, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, “demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurishda, huquqiy islohatlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi”<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – T.: O’zbekiston, 2002, 26-b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga asosan Respublika hududida qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlarga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2011-yil 14-iyundagi "Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 92-sonli buyrug'iga muvofiq, prokuratura organlarining bu sohadagi asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, ular o'rta sidagi nazoratsizlik huquqbazarlik va jinoymatchilikning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir.

Yoshlar tarbiyasi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yuqorida qayd qilingan qonunlar, xalqaro-huquq hujjatlaridan tashqari, ularning ta'limga olishini, bandligini, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, sog'lig'ini saqlash, turarjoy va mulkiy huquqlarini ro'yobga chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va yoshlarga oid boshqa qonunlar va normativ hujjatlarda aks ettirilgan.

Prokurorlar qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida voyaga yetmaganlarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladilar. Ularning himoyasi qonunlar ijrosi ustidan nazorat, fuqaroviylar-huquqiy va jinoymatchilikgiga qarshi kurashtning to'g'ri va aniq tashkil qilinishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan qonunbazarliklar ichida eng xavfisi jinoymatchilik sodir qilish hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar jinoymatchilikgiga qarshi kurashtning to'g'ri va aniq tashkil qilinishi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yuqorida qayd qilingan buyrug'ida voyaga yetmaganlar o'rta sidagi huquqbazarlik va jinoymatchilikni, ayniqsa, ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishning oldini olish, bolalarning ongini, tafakkurini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida suhbat, uchrashuvlar, targ'ibot va tashviqotning boshqa shakllaridan samarali foydalananish, bu borada ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilishga alohida e'tibor qaratish haqida ko'rsatma berilgan.

Prokuratura organlari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy himoyalash hamda nazoratsizlik va huquqbazarliklarni profilaktika qilishga alohida urg'u berib kelinmoqda. Shu maqsadlarda, joriy yilning o'tgan davri davomida, jumladan, nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikning huquqiy asoslari va bu borada mas'ul idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan amaliy ishlari haqida "O'zingni o'zing asra" nomli ko'rsatuvi "Yoshlar" teleradiokanalida, ta'limga jarayonini tartibga soluvchi normativ-hujjatlar ijrosi borasida amalga oshirilayotgan ishlari haqida tayyorlangan "Jarayon" ko'rsatuvi "O'zbekiston" kanalida efirga uzatildi, ta'limga tizimida suiiste'molchiliklarni oldini olish maqsadida tayyorlangan "Isnod" nomli film barcha hududlarda 171.156 nafar o'quvchilar va mas'ul shaxslarga namoyish etildi, shuningdek, erta turmush va erta tug'ruqni oldini olishga qaratilgan "Umr savdosi" nomli film tayyorlanib, joylarga yuborildi.

Bosh prokuratura, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Komissiya va YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, adliya, xalq ta'limi va boshqa bir qator vazirliklar, davlat va nodavlat tashkilotlarining vakillari ishtirokida "Voyaga

---

yetmaganlarni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari” mavzusida konferensiya o’tkazildi.

Bu kabi tadbirlar davlat, boshqaruva organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari va boshqa mutasaddi organlar, idoralar va tashkilotlar tomonidan ham faoliyorda amalga oshirilishi oldimizga qo’yan maqsad va vazifalarni bajarishda ijobjiy natijalarni beradi.

Mamlakatda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalarining hamkorligida amalga oshirilayotgan tadbirlar ijobjiy natijalar bermoqda. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etish holatlari yildan yilga kamaymoqda. Lekin bunday vaziyat bizni tinchlantirishga asos bo’la olmaydi. Chunki voyaga yetmagan tomonidan sodir qilingan bitta jinoyat ham jamiyat oldidagi muammo hisoblanadi.

Bu esa, yoshlar muammolari bilan muntazam ravishda ishlar olib borilishini, sust-kashlikka yo’l qo’ylmasligini, qonunchilik takomillashtirilishini, amaliyot xodimlarini ja-moatchilik bilan hamkorlikda mas’uliyat bilan ishlashlarini talab qiladi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta’biri bilan aytganda, “Bu g’oya – yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo’lishini, bugungi o’ta murakkab va tahlikali zamonda mayjud bo’lgan har qanday xatarlarga, zararli ta’sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hush-yor bo’lib yashashini va yoshlarimizni jamiyatimiz hayotida munosib o’rin egallashini ta’minlashdan iborat”<sup>5</sup>.

Bugungi kunda yoshlar o’rtasida “ommaviy madaniyat” niqobi ostida zo’ravonlik, giyovandlik, ekstremizm, axloqsizlik va behayo turmush tarzini targ’ib qilish, tarqatish va namoyish qilish kabi illatlarga qarshi kurashishda mutasaddi organlar, idoralar va tashkilotlarning mas’uliyati oshirilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O’zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar.* – T., 2003, 117-bet
2. *O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami*, 2010-yil, 20-son, 146-modda.
3. *O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami*, 2010-yil, 39-son, 341-modda.
4. Karimov I.A. *Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.* –T.: O’zbekiston, 2002, 26-b.
5. Karimov I.A. *Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo’lini qat’iyat bilan davom ettirishdir.* O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O’zR Konstitutsiysi qabul qilinganining 15 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi. –T.: O’zbekiston, 2007. 44-b.

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo’lini qat’iyat bilan davom ettirishdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi qabul qilinganining 15 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruzasi. –T.: O’zbekiston, 2007. 44-b.

**Zebo USMANOVA,**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## O'QUVCHILARNING SIYOSIY-HUQUQIY BILIMDONLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

### **Annotatsiya**

Maqolada o'quvchilarning huquqiy bilimlari, jahonda ro'y berayotgan voqeа va hodisalardan xabardorligi, mamlakatimizdagi islohotlarning mohiyatini teran anglashi, zukkoligi, hozirjavobligi, darsda oлган bilimlarini amaliyotda namoyon eta olishiga asosiy e'tibor qaratish kerakligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ularning siyosiy-huquqiy bilimdonligini yana da oshirishga qaratilgan taklif va mulohazalar hamda huquqiy bilimga ega bo'lisdagi muhim bo'lgan masalalar bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Demokratiya, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim, siyosiy-huquqiy faoliik, fuqarolik, OAV.

В статье обоснована необходимость повышения уровня правовых знаний учащихся в соответствии с реальными событиями, происходящими в мире, и осуществлямыми в стране реформами в общественно-политической сфере. Автором изложены предложения по дальнейшему углублению политico-правовых знаний учащихся и формированию навыков практического их применения.

**Ключевые слова.** Демократия, правовая культура, правовые знания, политическая правовая активность, гражданственность, СМИ.

In the article the necessity of raising the level of legal knowledge of pupils in accordance with the reforms in the country in the socio-political sphere is substantiated. The author sets out proposals for the further deepening of political and legal knowledge of students and the development of skills of their practical application.

**Key words.** Democracy, the legal culture, legal knowledge, political and legal activity, citizenship, mass media.

**O**'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik davlatini qurishdan iboratdir. O'zbekistonda demokratik jamiyatni qurish, eng avvalo, aholini xalqimizning ming yillik tarixi, ma'naviy taraqqiyoti, buyuk madaniyati, ma'naviy meros va boy an'analarini bilan yaqindan tanishtirish, ular to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida hamda ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta, internet) orqali o'quvchilarni millat tarixi, madaniyati va turmush tarzi bilan yaqindan tanishtirib borish, o'quv fanlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish o'quvchining huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish borasida jiddiy va samarali islohotlar amalga oshirilmоqda. Huquqiy davlat sari ildam qadam qo'yayotgan ekanmiz, o'quvchilarimiz qonunlarni, davlat boshqaruvidagi ulkan o'zgarishlarni, fuqarolarga berilgan erkinliklarni mukammal bilishlari kerak. Bu esa,

---

o‘z navbatida fuqarolik jamiyatini qurishda, islohotlarni amalga oshirishda ulardan o‘z huquqlarini, erkinliklarini, burchlarini bilibgina qolmasdan, balki ularni amalda qo’llay bilishlarini ham talab qiladi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari, huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqaroning siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlilik darajasiga uzviy aloqadordir.

Bugungi kunga kelib yurtimizda huquqiy bilim va madaniyatga bo‘lgan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Chunki aholining huquqiy bilimi, madaniyati va ma’naviyati qancha yuksak bo‘lsa, huquqiy davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Huquqiy davlatda yashovchi har bir shaxs jamiyat belgilagan, davlat qabul qilgan qonunlarni, mavjud huquqiy mezonlarni bilmasdan turib ma’naviy-axloqiy yetuklikka erisha olmasligi haqidagi qoidalar hozirda o‘z ifodasini topmoqda. Huquqiy bilim va madaniyat millat yetukligi va inson barkamolligining eng muhim omillaridan biridir. Huquqiy bilim va madaniyatni shakllantirish oiladan boshlansa-da, asosan ta’lim muassasalarida nazariy va amaliy jihatdan o‘rgatilib, rivojlantiriladi, barqarorlashtiriladi. “Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozim”, deb xalqaro hujjalarda aytib o‘tilgan.

Inson huquqiy jihatdan qancha chuqur bilimdon, yuksak huquqiy madaniyatli va ma’naviyatli bo‘lsa, ma’rifiy mafkuraviy jihatdan shunchalik mukammal shakllangan bo‘ladi. Ana shu mafkuraviy omilga bevosita bog‘liq ravishda jamiyat taraqqiyoti tezlashib, millat g‘oyaviy-siyosiy jihatdan o‘sib, yetilib, takomillashib boradi. O‘quvchilarning ilmiy-madaniy saviyasi, bilimdonlik darajasi, dunyoqarashi va tafakkuri o‘zining rivojlanish holatiga qarab dunyoviy mezonlarga to‘la javob beradigan bo‘ladi.

Hozirgi kunda maktabda huquqdan ta’lim berish muammosi juda muhim masalalardan biriga aylangan. Bu muhimlik bir tomondan, bizning davlatimiz va jamiyatimizdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni tuzish asosiy masalalardan hisoblanadi. Boshqa tomondan huquqiy asoslarni bilish har bir insonga XXI asrda huquqiy makon va zamonda o‘zining huquqlarini himoya qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Ayni vaqtida barcha ta’lim maskanlarida Bosh qomusimizni o‘rganish takomillashtirilgan o‘quv dasturlari va rejalar asosida olib borilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida “Konstitutsiya saboqlari”, umumiy o‘ta ta’lim maktablarining 1 – 4-sinflarida “Konstitutsiya alifbosi”, 5-7-sinflarda “Konstitutsiya olamiga sayohat”, 8-sinfda “Davlat va huquq asoslari”, 9-sinfda “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” kabi fanlar o‘qitilmoqda. Ushbu fanlarga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashilayotir.

Shuningdek, huquqiy ta’lim-tarbiya berish demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish va mustahkamlash uchun juda muhim. Chunki ta’lim-tarbiyani isloh qilmasdan, huquqiy madaniyat, huquqiy ma’naviyat va ma’rifat yutuqlarini kishilar ongiga yetkazmasdan turib komil insonni shakllantirib bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim-tarbiyaviy ishlarini takomillashtirishda, ayniqsa, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” katta ahamiyatga ega. Xususan, o‘ta maxsus kasb-hu-

nar ta’lim tizimi dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-maydagi 235-sonli qarori qabul qilingan bo’lib, bu qaror bo’yicha 1998-yil 16-iyunda Vazirlikning tadbirlar rejasи ishlab chiqilib tasdiqlangan va uning ijrosi ta’minlanmoqda. Bulardan tashqari O’zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi qabul qilingan. Milliy dastur va huquqiy ta’lim-tarbiya, huquqiy madaniyatga oid me’yo-riy hujjatlar asosida o’quv muassasalarida ta’lim va tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar tashkil etilgan.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dastur”ni hayotga tatbiq etisha da mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan aloqalar yo’lga qo’yligan. Hamkorlik ta’lim muassasalari orqali amalga oshirilmoqda. Ularning ish rejalarida mahalliy sud, prokuratura va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda olib boriladigan tadbirlar belgilangan. Bundan tashqari o’quvchilar tarbiyasi bo’yicha qo’shma ish rejalarini ishlab chiqilib, shu asosda tadbirlar tashkil etilmoqda. Umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy va boshqa ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya olib borilishini nazarda tutuvchi o’quv dasturlari hamda normativ va o’quv-us-lubiy mezonlar ishlab chiqilgan. Bularning barchasi o’quvchi-yoshlarning huquqiy ongi shakllanishiga, huquqiy bilimlarini oshirishga, ularni jamiyat talablariga, davlatning qonun-qoidalariiga, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga chuqur hurmat-ehtiromli bo’lishga undaydi. Qolaversa, O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, O’zbekiston Matbuot va axborot agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yuridik adabiyotlarni nashr etish ishlarini muvofiqlashtirish va chop etilayotgan adabiyotlarning sifatini yaxshilash bo’yicha ishlar olib borilmoqda. Chunki huquqiy ta’limning asosini yuridik adabiyotlar tashkil etadi. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”da davlat jamiyat madaniy hayotining tarkibiy qismi bo’lishi, huquqiy madaniyat to’g’risida alohida g’amxo’rlik qilishi belgilab qo’yligan. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ham bu to’g’rida shunday degan edilar: “Huquqiy madaniyat, huquqiy bilim hamda moddiy, ma’naviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanib va rivojlanib boradi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko’rsatuvchi me’yordir. Huquqiy bilimlarga ega bo’lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanishi mumkin”.

Shularni hisobga olgan holda, jamiyat taraqqiyoti yo’lida huquqiy ta’lim-tarbiyanı yuksaltirish borasidagi quyidagi taklif-mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiq bo’ladi:

- Ta’lim muassasalarini huquqshunos mutaxassislar bilan ta’minalashda muammo- lar mavjud. Bu masalani hal etish uchun oliy o’quv yurtlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularni bitirgan mutaxassislarni muassasalarga jalb qilish mexanizmini shakllantirish zarur.

- Huquqiy ta’lim-tarbiyaga oid o’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalar kam. O’qituvchilarning mashg’ulotlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur metodik qo’llanmalar hamda yangi innovatsion pedtexnologiyalardan foydalanib, multimediyali qo’llanmalar yaratish, sohaning yetuk olimlari, huquqshunoslar va tajribali huquqshunos o’qituvchilarni jalb qilgan holda yaratish lozim.

- Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan ta’lim muassasalari hamkorligida o’quvchi-yoshlar o’rtasida huquqiy tarbiyaviy tadbirlar uyuştilmoqda. Lekin bu tadbirlarda o’quvchilarning o’z mustaqil fikrlari va tashabbuslari bilan qatnashuviga kam e’tibor qaratilmoqda.

---

- Gazeta va jurnallarda pedagoglar, o'quvchilar va talabalarning huquqiy mavzularda maqolalar bilan chiqishlari yetarli darajada deb bo'lmaydi. Shuning uchun ilg'or ish tajribasiga ega va iqtidorli o'quvchi-yoshlarning huquqiy mavzularda gazeta va jurnallarda maqolalar bilan ishtirokini ta'minlash zarur. Ommaviy axborot vositalarida davra suhbatlari tashkil etishni ham yo'lga qo'yish kerak.

- Huquqiy ta'lif-tarbiya mavzularida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda targ'ibot guruhlari faoliyatini kuchaytirishdan iborat.

Huquqiy bilimga ega bo'lish hayotda o'ta muhim bo'lgan ikki masalani hal etadi:

Birinchidan, o'z obro'yi, salohiyatiga ega mustaqil davlatimizning taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda fuqarolik yetukligining ifodasidir.

Ikkinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish, voyaga yetmaganlar jinoyatchiliga barham berish borasida qo'yilgan muhim qadam bo'ladi. Ya'ni, huquqiy ta'lif-tarbiya yosh avlodda fuqarolik tarbiyasining muhim shartlaridan bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashda zarur halqani tashkil etadi.

Huquqiy ta'lif-tarbiya sohasidagi amalga oshirilgan yutuqlar bilan faxrlanib, g'uurlanib qolmasdan, bu borada qiladigan ishlar, bartaraf etish kerak bo'lgan kamchiliklar ham mavjudligini unutmaslik kerak. Chunki huquqiy ta'lif-tarbiya – fuqarolik jamiyatining asosiy omili va yuksak garovidir. Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi – jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining himoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligidir.

Yuqoridagilarga asoslanib ta'kidlash joizki, o'quvchining huquqiy bilimlarni o'rGANishi, jamiyat, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikni tushunishi, qonunlarga qat'iy rioya qilishi, bilimlarni oshirishga intilishi, iste'dod va mahoratini erkin, ijodiy faoliyatlarda ko'rsatishi, Konstitutsiyada kafolatlangan huquq va imtiyozlaridan samarali foydalanishni bilishi, bilim, ko'nikma va malakasini oilasi, jamiyat ravnaqi va insoniyat baxt-saodati yo'liga baxshida etishi uning aqliy hamda siyosiy-huquqiy bilim darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, fuqarolik madaniyatini shakllantirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T., 2004.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – olyi qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2006.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'nnaviyat, 2008.
4. "Huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. –T., 2012.

Safibullo ABDULLAYEV,  
Namangan viloyat XTXQTMOI rektori, p.f.n

## MALAKA OSHIRISH TA'LIM MUASSASASI PEDAGOG-XODIMLARINING MALAKASINI UZLUKSIZ OSHIRISHGA TIZIMLI YONDASHUV

### Annotation

Maqolada malaka oshirish ta'lif muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv uchun zarur bo'ladigan komponentlar haqida fikr yuritilgan. Muallif pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarining tay-yorgarligini, shuningdek, ularning o'zini o'zi rivojlanishiga va professional kompetentllik yo'nali-shidagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon, ya'ni qo'shimcha ta'lif tizimida subyektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tashkil etilishiga alohida urg'u bergen.

**Kalit so'zlar.** Malaka oshirish, pedagog va rahbar xodimlar, tizimli yondashuv, ehtiyoj va ijobjiy motiv, kompetentli boshqaruvchi, shaxsiy sifat, samaradorlik.

В статье освещены компоненты системного подхода в процессе повышения квалификации педагогов и руководителей общеобразовательных учреждений. Автором рассмотрены такие аспекты повышения квалификации, как подготовка учителей к организации и управлению педагогическим процессом, саморазвитие педагогических работников, непрерывность процесса, направленного на совершенствование профессиональной компетентности педагогов. Особо подчеркнуто значение дополнительного образования для субъектов образовательной системы.

**Ключевые слова.** Повышение квалификации, педагог и руководитель, сотрудники, системное управление, потребность и социальный мотив, компетентный руководитель, личностные качества, эффективность.

In this article Components of system approach in the process of advancing training of teachers and directors of educational institutions are covered. The author considered such aspects of advancing training as training of teachers for the organization and management of pedagogical process, self-development of pedagogical workers, a continuity of the process directed to enhancement of the process directed to enhancement of professional competence. Value of additional education for subjects of educational system is highlighted.

**Key words.** Advanced training, teacher and director, employees, systematic management, requirement and social motive, competent director, personal qualities, efficiency.

**M**alaka oshirish ta'lif muassasasi rahbarlari o'z faoliyatida pedagogik xodimlarning malakasini oshirishni qachon va qaysi yili malaka oshirish institutida o'qib kelganligi bilan belgilashlari odad tusiga kirgan, ya'ni malaka oshirish tushunchasiga bir tomonlama yondashishmoqda. Bu o'z navbatida pe-

---

dagoglarning yangiliklardan orqada qolishiga asosiy sabab bo'lish bilan bir qatorda, raqobat muhitining vujudga kelishiga qarshilik ko'rsatmoqda.

Pedagog xodimlarni moddiy rag'batlantirishga, faoliyatini takomillashtirishga asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan bilimi, ko'nikma va malakasi, kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi malaka oshirishni murakkab pedagogik tizim sifatida hisoblab, unga tizimli yondashuvni joriy etish zarur. Chunki har qanday tizim o'zining tashkil etuvchilariga, ya'ni komponentlariga ega bo'ladi.

Murakkab pedagogik tizim hisoblangan uzlusiz malaka oshirish jarayoni asosiy komponentlariga: ta'lim muassasasida tashkil etiladigan o'quv seminarlar, seminar-treninglar, ochiq darslar, o'zaro dars kuzatishlar, fan kechalari, ilmiy-amaliy konferensiylar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ommalashtirish, professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlanadigan metodik mahsulotlar, jumladan, malaka oshirish institutidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda masofadan o'qitishni kiritish mumkin. Ixtiyorli tizimning tashkil etuvchi komponentlaridan biri mazkur tizimning o'zgarishiga va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, pedagoglarning malakasini oshirishga tizimli yondashuvni joriy etish zarur bo'lib, bunda professor-o'qituvchining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda kasbiy mahorati darajasini aniqlash mezonlarining elementi sifatida tizimning har bir komponentini olish mumkin.

Malaka oshirish ta'lim muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining malakasini oshirish – bu nafaqat pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga ularning tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning o'zini o'zi rivojlantirish va professional kompetentilik yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uzlusiz jarayon, ya'ni qo'shimcha ta'lim tizimida subyektlarning shaxsiy ahamiyat kasb etuvchi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida tashkil etilishi zarur.

Ta'lim muassasalari pedagog va rahbar xodimlarning malakasini uzlusiz ravishda oshirishga qaratilgan jarayon faoliyatning barcha bosqichlarida ular o'zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda shaxsnинг ma'naviy boyishi hamda ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

Malaka oshirish ta'lim muassasalari pedagog va rahbar xodimlarining malakasi ni uzlusiz oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon rahbarlar va pedagog xodimlar uchun nafaqat nazariy, balki yuksak darajada yashash va hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhit vazifasini ham bajarishi hamda mazkur jarayonlarda yaratilgan shart-sharoitlar ular uchun o'z shaxsini rivojlantirishga imkoniyat yaratishi zarur.

Malaka oshirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayoni rahbarlar va pedagogik xodimlarda quyidagi yo'nalishlarda ehtiyoj va ijobjiy motivlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak:

– o'zini ko'proq mustaqil va o'zini o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida his etish hamda o'zini o'zi rivojlantirishga intilish;

– ta'lim-tarbiya manbasi sifatida vujudga keladigan, hayotiy va kasbiy boy tajribalarni o'zlashtirishga intilish;

- belgilangan aniq maqsadlarga erishish va muhim hayotiy muammolarni hal etishga ijodiy yondashish;
- belgilangan maqsadlarga erishish va muhim hayotiy muammolarni hal etishga intilish bilan bog'liq holda, ta'lif olish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lish;
- egallagan bilimi, ko'nikma va malakalarini amaliyatga tatbiq etish zaruriyatini tushunish;
- kasbiy faoliyatida vujudga kelgan muammolarni imkon darajasida tezroq hal etish uchun va egallagan bilimlarini qisqa muddat ichida amaliyatga tatbiq etishga yuqori darajada intilish.

Malaka oshirish ta'lif muassasalarida o'tkaziladigan uzlusiz malaka oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning shaxsiy-yo'naltirilgan jihatlarini o'zlashtirish va ishlab chiqish, turli darajada ularni amalgalashish, pedagogik jarayon barcha subyektlarining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun imkoniyat yaratuvchi psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Malaka oshirish ta'lif muassasalarida o'tkaziladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda rahbarlar va pedagog xodimlarini shaxs sifatida umumiyo rivojlanishini, shuningdek, ularning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatiga munosabatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur.

Rahbarlar va pedagog xodimlarda shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, ular barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy faoliyatida ularni samarali amalgalashish.

Agarda ularda yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv yaxshi shakllanmagan bo'lsa, ular shaxs sifatida ko'proq konservativizmga moyil bo'ladi va bunday holatlarni uzlusiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda inobatga olish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki rahbarlar va pedagog xodimlar pedagogik jarayonlarni rivojlantirishning konseptual dasturlarini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etishda sermulohazali nazariyotchi, metodolog, tadqiqotchi va kompetentli boshqaruvchi bo'limasa, uzlusiz rivojlanib boruvchi jarayonlar hisoblangan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda boshqara olmaydi.

Malaka oshirish ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonining eng asosiy maqsadi – rahbarlar va pedagog xodimlar shaxsiga va ularning faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bilan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ular oldida turgan ta'lifni modernizatsiya qilish, yangilash hamda rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan maqsad va muammolarni, shuningdek, rahbarlar va pedagog xodimlarning o'z kasbi va lavozimi yo'nalishidagi pedagogik va boshqaruv funksiyalarini bajarishga tayyorgarligini yetarli darajada emasligini inobatga olgan holda zamonaviy ijtimoiy talablar va muammolar o'rtaida muvofiqlikni ta'minlashdan iborat bo'lishi zarur.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilar uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonida rahbarlar va pedagog xodimlarda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish uchun mazkur jarayonda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

---

1. Malaka oshirish ta'lif muassasasi faoliyatiga qo'yilayotgan yangi ijtimoiy tablarni hisobga olgan holda o'z faoliyatini qayta anglash va baholash.

Bunda rahbarlar va pedagog xodimlar o'z faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi, maqsad va vositalar, maqsad va natijalar o'tasidagi ziddiyatlarni, tushunmovchiliklarni hamda o'zini o'zi rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlaydi va uning zaruriyatini angelaydi. Bunda faoliyatning odatiy stereotiplarini yo'qotish, yangi tushunchalar asosida o'zi haqida tasavvur hosil qilish, avvalgi eski uslublar yordamida o'z faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tushunib yetish nazarda tutiladi. Ular o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatda bo'lishga o'tadi va avvalgi faoliyatini tanqidiy tahlil qilish asosida kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayonining faollandishi vujudga keladi.

2. Kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarni va yangilikni anglashga nisbatan intilishning o'zgarishi.

Bunda rahbarlar va pedagog xodimlarning bilimi, ko'nikma va malakalarining yangilanishi, ma'naviy va madaniy salohiyatining rivojlanishi hamda axborotlar almashinuvi amalga oshadi, ularda kasbiy faoliyat yo'nalishidagi tushunchalarning o'zgarishi, shaxsiy o'zgarishlar vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tajribalar boyiydi, kasbiy tajribalar to'planadi.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayoni samaradorligi, mazkur jarayonning natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi qator omillar orqali ifodalanadi:

- kasbiy faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishishga undovchi, irodaviy xatti-harakatlarni ifodalovchi omillar;
- natijaga erishish uchun yo'naltirilgan mavjud tizim va xatti-harakatlar izchilligi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv omillar;
- kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish choralarining subyektiv asoslari bilan bog'liq bo'lgan omillar;
- shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy (tashqi), biopsixologik (ichki) va pedagogik (tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi) omillar.

Mazkur omillar uzlusiz malaka oshirish jarayonida rahbarlar va pedagog xodimlarning shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sir ko'rsatishga tayyorgarligini ta'minlaydi, refleksiya yo'nalishidagi qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam ko'rsatadi. Mazkur omillarnig ta'sir ko'rsatish darajasi ta'lif muassasasidagi tarbiyaviy munosabatlar, ta'limiy muhit va ularning rivojlanish darajasi orqali ifodalanadi.

Uzlusiz malaka oshirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi va tashqi sozlovchi vosita hisoblanuvchi ijtimoiy, ya'ni tashqi omillar mazkur jarayon subyektlarining o'zaro ta'siri amalga oshuvchi muhit hisoblanadi. Bunday ta'lif-tarbiyaviy muhitda, refleksiv jarayonlar davomida va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbatasi shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish jarayonlari vujudga keladi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ahamiyatini har bir shaxsning muhim ahamiyat kasb etuvchi mo'ljalini anglash va qayta tashkil etishi amalga oshadi.

Shuningdek, unga ta'lifni rivojlantirish va modernizatsiya qilish shart-sharoitlarida rahbar va pedagog shaxsiga hamda ularning faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar, ta'lif muassasasi faoliyati va zamonaviy maqsadlar yo'nalishidagi me'yoriy hujjalarni o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur ta'lif-tarbiyaviy muhitda vujudga keluvchi savollarga javob izlashga ijodiy yondashuvlar rag'batlantiriladi, mustaqil ravishda o'zini

o'zi rivojlantirish yo'nalishida qobiliyatlar, ta'lif olishga nisbatan shaxsiy qiziqishlar shakllanadi. Bunday hollarda ta'lif-tarbiyaviy muhitda bo'lgan shaxs tanlovni amalga oshiradi, individual madaniyatini rivojlantiradi va mazkur muhitning madaniy an'analarini takomillashtiradi.

Pedagogik jarayon hisoblangan uzlusiz malaka oshirish jarayonida hamkorlik-dagi ijodiy faoliyat qulay psixologik muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda javob izlash, o'zaro ta'sir uslublarini takomillashtirish vujudga keladi. Unda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiqotchilik va suhbat uslublari maqsadga muvofiq uslublar hisoblanadi. Bunday sharoitlarda avvalgi tajribalar takomillashadi, ishtirokchilar o'z faoliyatini qayta anglashi uchun qulay sharoit vujudga keladi, uni kuzatish yordamida yangi munosabatlar yo'nalishi belgilanadi.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonining samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- mazkur jarayon tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik va axborotlar texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy hamkorlikni ta'minlovchi refleksiv ta'lifiy muhitni vujudga keltirish;
- subyekt-subyekt munosabatlarini rivojlantirish;
- shaxsiy imkoniyatlarni takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish;
- axborotlarning yangiligi va ishonchliligini ta'minlash.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonini yangi amaliyot sifatida, ya'ni ta'lif muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlarning shaxsiy-yo'naltirilgan faoliyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan o'zaro ta'sir tizimi, ta'lifning yangi mazmuni, refleksiv ta'lifiy muhitni tashkil etishning yangi vositalari sifatida ko'rib chiqish zarur.

Ta'lif muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorligini ta'minlovchi, ularni psixologik va fiziologik jihatdan rivojlantirish, ma'nnaviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratishlari zarur.

Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, kasbiy tayyorgarlikning quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik mulohazalarni ifodalovchi refleksiv ko'nikmalar;
- pedagogik jarayonlarda subyektlarning bo'lajak xatti-harakatlarini va o'zaro munosabatlarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda subyektlar faoliyigini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan turli vaziyatlarning qulay ta'lifiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga qarshi tura olish ko'nikmasi, pedagogik jarayonlarda qulay ta'lifiy muhitni va subyektlarning refleksiv faoliyatini tashkil etish ko'nikmasi;
- kommunikativ kompetentlilik hisoblangan, vaziyatlarga ko'ra subyektlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga va ularning individual psixologik xususiyatlariiga mos holda ta'sir ko'rsatish ko'nikmasi;

- 
- muloqotga kirishish ko'nikmasi;
  - subyektlar bilan axborot almashinish ko'nikmasi;
  - o'zini o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko'nikmasi;
  - axborotlar to'plash, ularni qayta ishslash va obyektiv baholash ko'nikmasi va h.k.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonida rahbarlar va pedagog xodimlarni nafaqat kasbiy faoliyatga motivlashtirishni rivojlantirish, balki ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish uchun ham shart-sharoitlar yaratish zarur. Mazkur jarayonda refleksiv ta'limiy muhitni tashkil etish ularning shaxsiy kamol topishiga ijodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi.

Ta'lif muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlarda o'zini o'zi rivojlantirish jarayoni ijtimoiy vaziyatlarning o'zgarishi bilan bog'liq holda amalga oshadi, shuning uchun uzlusiz malaka oshirish jarayonida ularda o'zaro ta'sir, o'zaro munosabatlar va o'zaro aloqalarning qayta tashkil etilishi, shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy faoliyatga psixologik moslashuv vujudga keladi.

Shuning uchun uzlusiz malaka oshirish jarayonida murakkabligi jihatidan turlicha bo'lgan pedagogik va boshqaruv yo'nalishidagi vazifalarni bajarish va uning samaradorligini oshirish yo'nalishidagi mavzular bo'yicha ma'lumotlar berishda refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv ta'limiy muhit jarayonida subyektlar o'z faoliyati samaradorligi yo'nalishidagi eski tasavvurlari bilan belgilangan maqsadga erishishda samarali hisoblangan yangi metodlar o'tasidagi ziddiyatlarni anglab yetadi, mazkur jarayonda o'z tomonidan tanlangan metodlarning ahamiyatini, ularni amalga oshirish vositalari va usullari bilan o'z shaxsiy tushunchalari o'tasidagi bog'liqlikni tahlil qilish natijasida refleksiv malakalar shakllanadi, natijada o'z faoliyati samaradorligini, ma'naviy va madaniy tushunchalari, kasbiy qobiliyati, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini o'zi baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilariga tashkil etiladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish hamkorlikda faoliyat ko'rsatish tajribalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi, ya'ni bu pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida hamkorlar o'rtaida vujudga keladigan o'zaro ta'sirni ifodalaydi.

O'zaro ta'sir natijasida subyekt tomonidan o'z shaxsiy xususiyatlari tahlil qilinadi, mazkur jarayonda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlar, ma'naviy va madaniy tushunchalar qayta shakllanadi va rivojlanadi. O'zaro ta'sir natijasida subyektlar o'zining refleksiv faoliyatini, oldingi xatti-harakatlari, tajribasini va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'zaro ta'sir jarayonida ishtirot etayotgan shaxs nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.

Malaka oshirish ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun o'tkaziladigan uzlusiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishda o'zaro ta'sir jarayonining ahamiyatini, ya'ni kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkinligini inobatga olish zarur:

- kasbiy kompetentlilik darajasining ortishi;
- subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi;
- shaxsnинг psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi;
- ma’naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;
- o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuv natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvni vujudga kelishi.

Rahbarlar va pedagog xodimlarning kasbiy faolligini oshirish, refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish, ma’naviy va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni vujudga keltiruvchi shaxslararo aloqalarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish zarur.

Uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishga refleksiv yondashuvda o‘zaro ta’sirni hamda refleksiv faoliyatni tashkil etish subyektlarning mazkur jarayonga qiziqishini rivojlantiradi, chunki bunda subyekt-subyekt munosabatlari shakllanadi va o‘zaro ta’sir jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy rivojlanishi amalga oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada tokomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2015-yil 31-oktabrdagi 7-son Hay’at yig‘ilishi qarori.
3. Turg‘unov S.T. Zamonalov ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta’lim muassasi rahbarlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish // Xalq ta’limi jurnalı. 2006. № 5. 22-25-b.
4. Turg‘unov S.T. Ta’lim muassasasi rahbarlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari // O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2006. 170-172-b.

**Sevara MAXMUDOVA,**Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at  
akademik litseyi o'qituvchisi

## O'QUVCHILARNING MA'NAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING O'RNI

### Annotation

Maqolada o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda musiqa o'qituvchisiga  
qo'yilgan kasbiy talablar va metodik tavsiyalar berilgan. Muallif ushbu maqolada musiqiy  
madaniyat fanida ta'lrim tarbiya jarayonini maqsadli rivojlantirishning ilmiy pedagogik jihatlarini  
yoritgan.

**Kalit so'zlar.** Musiqiy madaniyat, ta'lim, tarbiya, kasbiy talablar, jarayon, tavsiyalar, jihat.

В статье представлены требования и методические рекомендации для учителей музыкальной культуры, раскрыты с научной точки зрения педагогические аспекты развития учащихся в процессе уроков музыкальной культуры.

**Ключевые слова.** Музыкальная культура, образование, воспитание, профессиональные требования, процесс, методические рекомендации, аспект.

The article presents materials related to the education of the individual at the modern stage, also given the methodological and professional advice to teachers of music in improving the musical culture of the students.

**Key words.** Musical culture, education, upbringing, professional requirements, process, methodological recommendations, aspects.

**H**ozirgi vaqtida erkin fikrli mustaqil va mas'uliyatli shaxsnar tarbiyalashga yana-  
da kuchli ijtimoiy ehtiyoj sezilmoqda. Musiqiy madaniyatni eltuvchisi bo'lgan  
musiqa o'qituvchisi esa o'quvchilarning musiqiy tarbiyasiga o'zini mas'ul deb  
his etadi.

Bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayoni uning alohida bir (intellektual, jismoniy  
va boshqa) xislatlarning rivojanishiga yo'naltirilmasligi kerak, balki zamonaviy peda-  
gogik konsepsiya rivojlantiruvchi ta'limga asoslanishi lozim, bu esa o'quvchilarda ular  
umumiylar ma'naviy madaniyatining bir qismi bo'lgan va barkamol shaxs bo'lib yetishishla-  
riga ta'sir etuvchi musiqiy madaniyatni tarbiyalashga yordam beradi.

O'quvchilarning ma'naviy madaniyati va axloqiy qiyofasini tarbiyalashda, ayniqsa,  
o'quvchining hissiy olamiga kuchli ta'sir etuvchi va uning qalbi fazilatlarini bezovchi mu-  
siqa darslarining roli katta.

Zamonaviy mактабда musiqa o'qituvchisi quyidagi maqsadlarni o'z olidiga qo'yadi:

– o'quvchilarning tabiatga, hayot va san'at hodisalariga nisbatan hissiy-qadriyatli  
munosabatini rivojlantirish;

- o‘quvchining badiiy didini, uning intellektual va hissiy olamini, ijodiy salohiyatini, o‘zini o‘rab turgan borliqni go‘zallik qonunlari asosida baholash layoqatini tarbiyalash va rivojlantirish;
- o‘quvchilar tomonidan mumtoz va zamonaviy san‘at to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlash-tirish, ularni milliy va xorijiy musiqiy madaniyatning mashhur asarlari bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarda san‘atga, o‘z xalqining badiiy an‘analari va jahon madaniyatning yutuqlariga bo‘lgan barqaror qiziqishlarini shakllantirish;
- bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish;
- o‘quvchilarning musiqiy fikrlash qobiliyatini faollashtirish, rag‘batlantirish, yo‘nal-tirish;
- o‘quvchilarda musiqani ifodali ijobi etish mahorati, malaka va ko‘nikmalarini shakl-lanishiga ko‘maklashish;
- o‘quvchilarda dars jarayonida va mакtabdan tashqarida yangrayotgan musiqaga shaxsxi bahosini berish, o‘z fikrini asoslab bayon qilish malakasini rivojlantirish;
- san‘atni anglash asosida o‘quvchilarni hayotiy-musiqiy taassurotlarini umumlash-tirishga o‘rgatish;
- o‘quvchilarda ijobiy qiziqishlarini shakllanishiga, musiqiy ta‘lim jarayoniga bo‘lgan intilishlarining mustahkamlanishiga imkoniyat yaratish.

O‘quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, komil inson qilib tarbiyalashda dars o‘qitish texnologiyasi bugun jiddiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Eng avvalo, mu-siqa madaniyati fani bolalarni madaniyatli etib tarbiyalash va rivojlantirishning quadratli vositasiga aylanishi kerak.

Buning uchun bolaga qanday qilib kerakli ma‘lumotni berish, uni kuylash yoki biron musiqiy asbobni chalishga o‘rgatish masalasi muhim emas, balki musiqa san‘ati yorda-mida bolalarni madaniyatli etib tarbiyalash va xususiy fazilatlarini musiqa san‘ati orqali rivojlantirish masalasi birinchi o‘ringa ko‘tarilgan.

Musiqa fanining asosiy vazifasi o‘quvchilarni musiqa san‘atiga bo‘lgan qiziqishini o‘stirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Buning uchun birinchi o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy tarbiyalash jarayonida dastlab milliy qadriyatlarning qaysi qismidan foydalanishni aniqlab olish mu-himdir, mакtab yoshidagi o‘quvchilarni musiqiy tarbiyalashning tizimi mazmunini, shaklli ni va uslubini yaxshi o‘rganish kerak. Shuningdek, sinfdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari ham olib boriladi. Musiqa bilan bog‘liq faoliyatning ashula, musiqa, tinglash, raqs turlari asosiy hisoblanadi.

O‘quvchilar, bastakorlar, kompozitorlar, musiqa janrlari yuzasidan tarixiy bilim va ma‘lumotlar oladilar va musiqa asboblari bilan tanishadilar. Bir qator maktablarda sinf dan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida musiqa asboblarni chalish mashqlari o‘tkaziladi. Dars o‘tish jarayonida, ya‘ni musiqa ta‘limining mazmunini aniqlashda o‘quvchi yosh-larning psixologik, fiziologik xususiyatlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Ma-salan: birinchi sinf o‘quvchilarining ovoz paychalari ham nozik va zaif bo‘ladi. Nafas olishi qisqa, nutqi noaniq, diqqati beqaror, tez toliqadi. Bularning barchasi musiqa o‘qituvchisini qo‘shiq repertuarlarini va tinglanadigan musiqa asarlarini tanlashda ehtiyyot-kor bo‘lishiga majbur etadi. Bu yoshda bolalar jamoat bo‘lib kuylash ko‘nikmasiga ega bo‘lmaydilar. Qo‘shiq kuylanganda tovushlarni uzoq cho‘zib aytalma-ydilar. Ularning qo‘shiq kuylash, she‘r aytishi shovqinga o‘xshab ketadi. Bunday holda o‘quvchilar uchun oson, bolabop va o‘yin qo‘shiqlari juda mos keladi. Masalan: “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Laylak keldi yoz bo‘ldi”, “Chitti gul” kabi. Shunday qilib, keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek musiqa madaniyati boyliklaridan foydalanib, musiqa o‘qituvchisi mакtab

---

yoshidagi o'quvchilarning maktab ta'lif mazmunini ham psixologik, ham fiziologik imkoniyatlarini nazoratda tutib, ish olib borishi zarur bo'ladi.

Bolaning musiqiy qiziqishini maktabda nima orqali rivojlantirish mumkin?

Eng avvalo – o'yin. O'yinli texnologiyalar – bu bolalarni musiqiy rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda musiqaning tahlili emas, balki uni obraz va his-hayajon, kechinmalar bilan yetkazib berish birinchi o'rinda turadi.

Muhimi bolaning hissiyoti doirasiga ta'sir etish integrallashgan holda bo'lishi kerak, buning uchun:

- musiqa orqali – eshitish va ijro qilish;
- so'z orqali – hikoya yoz, ertak to'qi;
- nafis tarzda, harakatlar orqali ifodalash;
- imo-ishora orqali – kayfiyatni ifodalab ber;
- rasm orqali – nimani eshitsang, shuning rasmini chiz va boshqalar.

Barkamol avlodni tarbiyalashda badiiy did, estetik did kategoriysi ancha murakkab bo'lib, estetik ongni boshqa tarkibiy qismi orasida muhim o'r'in tutadi va mazkur tu-shunchaning asosiy metodologik mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi sababli ham e'lon qilingan ishlarning mualliflari did tushunchasini turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli tarzda tariflaydilar, bu hol didni shakillantirish usullarini har xil talqin qilishga olib kelmoqda.

Musiqiy tarbiya jarayonida jahon va milliy mumtoz san'atining "oltin fondi"ga hamda shu bilan bir qatorda uning zamonaviy namunalariiga tayanmog'imiz kerak bo'ladi. Ushbu vazifalarni bajarishimiz uchun biz musiqaning hissiy-obrazli mohiyatini alohida ahamiyatlari jihatini ta'kidlovchi musiqashunos-pedagoglarning tajribasiga tayanishni tavsiya qilamiz. Musiqa darsining mavzu va dramaturgik tuzilishini asos uchun qabul qilish mumkin.

Bu borada o'quvchilar musiqa va tasviriy san'at o'rtasidagi bog'liqlikni anglab yetishlari uchun integrallashtirilgan darslar o'tkaziladi. Masalan, "Musiqa va rassomchilikda "yil fasllari", "Qadimiy Yunoniston obrazi", "Hayvonlar karnavali" va boshqalar. Bu kabi darslarga Leonardo da Vinchingning "Musiqa va rassomchilik – bu go'yo opa-singillar" de gan fikrlari epigraf sifatida xizmat qiladi.

Musiqani idrok etish jarayonida musiqali holatlarning yanada kengroq sohasiga ta-alluqli bo'lgan o'quvchilarning hayotiy va musiqaviy tajribasi, shuningdek, musiqa san'a-tining ta'sirida shakllanuvchi bevosita kechinmalar va o'y-hayollar tajribasi bilan bir qatorda musiqani ijro etish bilan bog'liq bo'lgan badiiy tajriba ham jalb etiladi.

O'quvchilarda musiqaviy qadriyatlarga nisbatan ma'naviy-estetik munosabatlarni shakllantirish masalasini hal etish uchun muammoli ta'lif usuli xizmat qiladi. Bu esa bahs-munozaralarni tashkil etish, o'quvchilarning musiqiy fikrashini, ularning baholash tasavvurini rivojlantirish imkonini beradi.

Masalan, 6-sinfda o'quvchilar dars jarayonida "Musiqaning qudrati nimada?" mavzusini muhokama qildilar. V.A.Motsartning "Bahor sog'inchi" asarini tinglagandan so'ng o'quvchilarga "Siz hozirgina kimning asarini tingladingiz?" savoliga javob berishlarini tavsiya qilish mumkin. Deyarli barcha o'quvchilar kompozitor nomini bilib oldi deylik. Keyingi savol: "Bu asarni Motsart yozganini qanday bilib oldingiz?" O'quvchilarning bunga javoblari:

- Motsart musiqasi tiniq, yengil, yorqin va juda mayin.
- Motsart yashagan eski davr, shamning milt-milt yonishi mening ko'z oldimda darhol namoyon bo'ldi.
- Uning musiqasi nafis va ilhombaxsh.

Dars davomida esa Motsart musiqasi haqida I.S.Turgenev uni irmoq jaranglashi bilan solishtirgani, A.G. Rubenshteynnning “Motsart nomi – mangu quyosh yog’dus!” kabi fikrlarni o’quvchilarga gapirib berish mumkin.

Yana bir savol berish mumkin: “Biz zamonaviy odamlarga Motsart musiqasi kerakmi?” Sinfda bahs-munozara boshlanadi. O’quvchilarining o’zlari “abadiy boyliklar to’g’risida” xulosaga kelishadi.

Munozalarni yakunlab, o’quvchilarga “Motsart” kitobini yozgan ajoyib diplomat G.V. Chicherin haqida so’zlab berish joiz. Ayniqsa, Chicherin Vatanga xizmat qilishni va avstriyalik buyuk kompozitor ijodini tadqiq etishni yonma-yon holatda baland bir pog’onaga qo’yanligi to’g’risidagi so’zlar oltinchi sinf o’quvchilariga juda kuchli ta’sir etadi: “Men uchun Motsart butun hayotim davomida eng zo’r do’stim va birodarim bo’lgan, hayotimni u bilan birga baham ko’rdim, u jahon tarixi cho’qqisida, tarixiy silsila va hodisalar chorrasida turgan kompozitorlar orasida u eng murakkab va nozigidir”.

Hozirgi zamonda juda ham ko’p turfa musiqalar mavjud, ularning har birining o’z o’rnii va o’z vazifasi bor, o’zining tinglovchilari va ijrochilari, o’z o’stoz-shogird an’analari mavjud. Jumladan, Yunus Rajabiy, Talimatov, D. Zoxidov yaratgan musiqiy asarlar badiiy qimmatga ega – ularning asarları go’yo inson olamidan yuksalgan tog’ cho’qqilari misol ulug’vor.

Bizning jamiyatimiz hayotidagi hozirgi zamonaviy holat XX asr o’talari uchun xos bo’lgan holatdan tubdan farq qiladi. Maktabda musiqa madaniyat o’qituvchilar ishining muhim yo’nalishi – o’quvchilarni milliy musiqa bilan tanishuviga, ularni mustaqil musiqiy bilim olishga tayyorlashdir. O’quvchini musiqaga jalb etishda sodir bo’ladigan vaziyatlarni o’zgartirishga ko’maklashayotganda, bu vaziyatlarni yanada “odamiylik” nuqtayi nazaridan insonparvarlashtirish kerak, busiz musiqaviy tarbiya amalga oshmaydi, o’qituvchi-musiqachi sinfdan tashqari musiqiy jamaoa rahbari sifatida, o’quvchilarining musiqaga jalb etish davomida orttiradigan ta’sirchan, “amaliy”, darslarda to’g’ri tanlangan pedagogik repertuar, ya’ni o’qituvchi tomonidan tanlangan badiiy asarlar o’quvchilarining ongida, tafakkurida insonparvarlik tajribasida yuzaga keladigan ijobiy ichki ma’naviy madaniyatini shakllanishiga imkon yaratadi.

Yuqori sinf maktab o’quvchilari bilan ishlashda quyidagi takliflardan, ya’ni ta’lim berish davomida maktab o’quvchilarini musiqiy madaniyatini rivojlantirishda, ularni mustaqil bilim orttirish va o’zini o’zi tarbiyalashga jalb etish uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal etishi zarur:

Birinchidan, musiqa san’atining inson va jamiyat hayoti hamda barcha mavjud badiiy-tarbiyaviy vositalar bilan bog’liqligi to’g’risidagi ijobiy tasavvurlarni uyg’otish, maktab o’quvchilarini o’z tengdoshlari va kattalarning musiqiy hayotida mustaqil ishtirot etishga tayyor bo’lishga o’rgatib borish;

Ikkinchidan, o’quvchilarni mustaqil bilim orttirish faoliyatida hissiyotga to’la va dolzarb bo’lgan kerakli estetik musiqiy bilimlar va malakalar bilan qurollantirish;

Uchinchidan, insonlar o’tasida odamiylik munosabatlarini o’rnatish uchun ma’naviy madaniyatni rivojlantirish borasida musiqa san’atining o’rni, ahamiyati va imkoniyatlari to’g’risidagi o’quvchilarda baholash mulohazalarini shakllantirish;

To’rtinchidan, o’quvchilarda musiqaning yuksak badiiy namunalariga hissiy ijobiy munosabat uyg’otish, ularning musiqiy asarlarini estetik jihatdan tahlil etishga bo’lgan intilishlarini rivojlantirish, mulohazali, jo’shqin, salohiyatli etib atroficha tarbiyalashga e’tibor qaratish;

Beshinchidan, ularning musiqaviy mustaqil bilim orttirishga bo’lgan intilishlarini uyg’otish.

---

7-sinf mavzular majmuida zamonaviy san'atda an'analar va novatorlik haqidagi fikr muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda D.J.Verdingning "Aida" operasi an'analar va novatorlik sintezining ishonarli misoli bo'lib xizmat qiladi. Muallifning o'zi nomlaganidek, "zamonaviy opera" mumtoz musiqaning chuqur an'analariga tayanadi va zamonaviy musiqa tilining barcha yangi yutuqlaridan foydalanadi.

Mazkur opera janrining talqinida esa novatorlik mujassam – bu o'zida klassik opera xususiyatlarini, myuzikl va rok-musiqasini bog'lovchi rok-operani hayotqa keltirgan va mujassamlashtirgan.

Dars jarayonida maktab o'quvchilar Rebnikovning "Yunona va Avos" rok-operasiga o'zlarining tushuncha va munosabatlarini uyga berilgan vazifada ham bayon etishlari (insho yoki rasmlarda ifodalab berishlari) mumkin. Ularning mavzularini esa o'quvchilar o'z qiziqishlari va yoqtirgan yo'nalishiga qarab tanlashlari mumkin. Uyga berilgan vazifa orqali o'quvchilarda hayotiy pozitsiyasi, hissiyotlarining chuqurligi va fikrlarining teranligini aniqlashda o'ziga xos testga aylanishi mumkin.

Darhaqiqat, bugun mustaqil O'zbekistonimizning rivojlantish davrida musiqa o'rganishga bo'lgan sa'y-harakatlar ijodiy fikrllovchi musiqa shaydolarini o'stirishga, bevosita musiqa san'ati muhim ma'naviy ehtiyojga aylanishiga, zamonaviy yosh avlod yangi hayotning ijodkori, faol buniyodkori bo'lishiga hamma sharoitlar yaratilgan.

Musiqa tasavvuriy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lib, miya faoliyatini kuchaytirishi mumkin. U xotirani, sabrni, mehnatsevarlikni, rivojlantiradi, hissiyotlarni ham takomillashtirishi mumkin. Bolaning ruhiyati va salomatligiga ta'sir etadi. Musiqa darsining eng asosiy vazifalaridan biri – bu o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish, bolalarning musiqaviy didini kengaytirishga, ularning ijodiy rivojlantishiga yo'naltirish, musiqa asarini anglashni rivojlantirish asosiy vazifadir. Musiqa ulug'veorlikni go'zallikni o'rgatadi. Musiqani idrok etib, inson har doim uning go'zalligini, ulug'veorligini va mukammalligini his etadi. Shunday ekan musiqa darslarida bolalarni yakkaxon va xor bo'lib kuylash malakasiga, musiqa asboblarida chalishga o'rgatish muhim. Bu musiqaviy ohangni eshitish qobiliyati, umumiy musiqaviylikni rivojlantirishga turki beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A *Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi*. – T.: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'llimi vazirligi, Respublika ta'lim markazi. *Musiqa madaniyati fani o'quv dasturi*. – T.: O'zbekiston, 2015.
3. Халилов Ф.И *Демократия основа инструментально – исполнительной подготовке будущих учителей музыки / Монография* / – Т., 1996.
4. Зимняя И.А. // *Ключевая компетенция – новая парадигма результатов образования. Высшее образование сегодня*. – М., 2003.

Iftixor KAMOLOV,

Qarshi Davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## ZARGARLIK TA’LIMINING AN’ANAVIY AMALIY SAN’AT TIZIMIDAGI O’RNI

### Annotation

Maqlolada zargarlik san’ati sohasidagi o’rtalik maxsus kasb-hunar ta’limining “Zargarlik buyumlari bo'yicha usta” ixtisosligi namunaviy o'quv rejasini tahlil qilinib, unda umumkasbiy va maxsus fanlar ta'limi jarayonida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarga ilmiy-metodik nuqtayi nazardan to'xtalib o'tilib, amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Zargarlik, san'at, amaliy, dekorativ, kompozitsiya, mahorat, badiiy, ishlov.

В статье проанализирован образцовый учебный план по специальности “Мастер по ювелирным изделиям” среднего профессионального образования в сфере ювелирного искусства, освещены важные аспекты в процессе преподавания общепрофессиональных и специальных дисциплин с научно-методической точки зрения, изложены практические предложения.

**Ключевые слова.** Ремесло ювелира, искусство, практика, декоративный, композиция, мастерство, обработка.

This article analyzes the model curriculum of the specialty “Master of jewelry” secondary vocational education in the field of jewelry, also highlights the important aspects in the teaching of general and specialized disciplines with scientific and methodological point of view and provides practical suggestions.

**Key words.** Jeweler art craft, practice, decoration, composition, craftsmanship, processing.

**M**a'lumki, ta'lim jarayonida pedagog xalq ustasi uslublarini avtomatik tarzda takrorlamaydi, balki ularni idrok etadi, ijodiy qayta ishlaydi, tahlil qiladi va ilgari badiiy kulolchilik, badiiy to'qish, xalq badiiy ijodiyotining boshqa ko'rnishlari haqida tasavvurga ega bo'lmagan zamonaviy jamiyat a'zosini ta'lim-tarbiyalashda ulardan foydalanadi.

Ana shu nuqtayi nazardan biz zargarlik san’ati sohasidagi o’rtalik maxsus kasb-hunar ta’limining “Zargarlik buyumlari bo'yicha usta” ixtisosligi namunaviy o'quv rejasini tahlil qilishni maqsad qildik.

Hozirda kasb-hunar kollejlari idagi 3211214-“Zargarlik buyumlari bo'yicha usta” ixtisosligi 3 yilga mo'ljallangan bo'lib, u kichik mutaxassis malaka darajasini beradi. Amaliy san'at yo'nalishi o'quv rejasidagi o'quv predmetlari quyidagilarni o'zida mujassam etadi:

– umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganish o'quvchilarda badiiy g'oya yaratilishiga ko'ra original (yakka nusxadagi, betakror) asarlar ishlab chiqarish borasidagi malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi;

– kompozitsion, koloristik (rang uyg'unligiga oid) va texnik masalalarni hal etish, shuningdek, xalq an'analari, mamlakat va chet el tajribalarini, badiiy madaniyat va texnik estetika sohalarining zamonaviy yutuqlarini umumlashtirish va ulardan foydalanish imkonini beradi.

---

Shu o'rinda qayd etish joizki, zargarlik buyumlari ustasi – xalq an'analariga asoslangan loyiha va namunalarni bajarishdan tashqari, amaliy-dekorativ va sanoat ishlab chiqarishning asosiy rivojlanish yo'nalishlariga oid eksperimental va istiqbolli ishlanmalarini bajara olishi hamda o'z ijodiy ishlarini ham nafis did bilan yaratishni bilishi lozim. Bo'lajak zargarlik buyumlari ustafiga kasbiy san'at mahorati malaka va ko'nikmalarini egallash – tasvirlash vositalari orqali berilgan namunalardan asar yaratish, grafik yozuv texnikasini egallash (graver), kompozitsion qurish, toshlarning xususiyatlarni o'rganish (gemologiya), quyuvchilik (liteyshik) kabi texnologiyalarni egallash imkonini beradi.

O'quvchilar ko'rilgan narsalarni o'z shaxsiy dekorativ kompozitsiyalarida badiiy umumlashtirishni o'rganishadi va kelgusida bu ko'nikmani maxsus kompozitsiya darslarida, yuqori kurslarda loyihalashtirish ishlarida, ijro mahorati bo'yicha berilgan o'quv topshiriqlarini bajarishda qo'llashadi.

Umumkasbiy va maxsus fanlarni o'zlashtirish jarayonida egallangan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar majmui ana'anaviy amaliy san'at sohasining ko'pbosqichli tizimini o'zida namoyon etadi.

Kollejning birinchi kursidan boshlab o'quvchilar predmetli muhitni dekorativ obrazli idrok etishga jalb etiladilar va shu maqsadda o'quv topshiriqlari tarkibida qator vazifalar qo'yilib, ular shakl ko'rinishini, tasvirlanadigan obyekt xususiyatlarni tahlil qilish, asosiy va qo'shimcha elementlarni ajratib olishga harakat qilish va bunda turli badiiy texnik usullardan foydalanib, o'quvchining dekorativ kompozitsiyalarini (dekorativ o'simlik shoxlari, butalarning dekorativ tasviri, qushlarning dekorativ tasviri va h.k.) yaratishlariga imkon beradi.

San'at asarlari alohida sifatlarining majmui sifatida talqin etiladigan "dekorativlik" tushunchasi bilan o'quvchilar bosqichma-bosqich ravishda murakkab bo'Imagan topshiriqlar turkumini bajarish orqali tanishadilar. Predmetlarni shakliy fazoviy talqin etishdan asta-sekin muntazam ravishda ularni zargarlik buyumlarida tasvirlashga o'tish jarayoni yuz beradi. Alohida qayd etish lozimki, bir vaqtning o'zida dekorativ tasvirni shartli umumlashtirishning texnik usullarini o'zlashtirish, turli materiallarni va ularni qo'llash imkoniyatlarini o'rganish, ayrim dekorativ muammolar yechimini topish amalga oshiriladi.

Aniq ishlab chiqilgan mavzuiy kompozitsiyalar badiiy obrazli tafakkurning rivojlanshida muhim rol o'ynaydi. O'quv topshiriqlarida xalq amaliy-dekorativ san'ati mahsulotlaridan foydalanish, osori-atiqalarni, shuningdek, zamonaviy amaliy san'at mahsulotlaridan (turli taqinchoqlar va shu kabilar) foydalanish nafaqat xalq san'atini, uning an'analarini chuqur o'rganishga ko'maklashib qolmasdan, balki zamonaviy dekorativ, badiiy obrazli zargarlik buyumlar yaratish imkonini yuzaga keltiradi, an'anaviy amaliy san'at ildizlarini chuqurroq o'rganishga majbur qiladi, turli badiiy uslublarni farqlay olishga yordam beradi, badiiy did, his-tuyg'ularni shakllantiradi.

Barcha kurslarning topshiriqlarida dekorativ o'simliklar, turli shakldagi gullar kompozitsiyalar, shuningdek, hayvonlar, qushlar, qumursqalar tasvirini chizishga alohida e'tibor beriladi. Bu jarayon o'simliklar, gullar va qushlarni chiza olish ko'nikmasi maxsus kompozitsiyali topshiriqlarni bajarishni osonlashtirishi bilan izohlanadi.

Mutaxassislikka yo'naltiruvchi fanlar quyidagilarni o'rgatadi:

- loyihalashtirish va materialda loyihani bajarish hamda buyumlar tayyorlash;
- foydalaniladigan materiallarning texnik xususiyatlari va o'ziga xosliklarini hisobga olish;
- texnik vositalar, yordamchi asbob-uskunalardan foydalanish;
- mahsulotlarni loyihalashtirish va yaratish jarayonida an'analardan va zargarlik sohasi yutuqlaridan foydalanish.

Ijodiy mahoratga oid mashg’ulotlar, avvalo, shakllangan g’oyaning moddiy mujassamlashishi bo’lib, betakror, o’ziga xos mahsulot – qo’lda amalga oshirilgan badiiy mehnat natijasi, mevasi bo’lishiga assoslanadi. Boshlang’ich kurs o’quvchilarining mahorat o’quv mashg’ulotlarini o’tkazishga katta kurslar o’quvchilarini jalb etish amaliyoti muhim ahamiyatga ega. Diplom muallifi nafaqat o’zi ishlab chiqqan modelning ijrochisi, balki ish beruvchi, ijodiy ustaxona rahbari va shu vaqtning o’zida ijo sifatini nazorat qiluvchi ekspert sifatida ishtirok etadi.

Bu vaziyatda bizning fikrimizcha, ijodiy faoliyat jarayonida o’quvchilar o’rtasida o’zaro munosabatlarning shakllanishi, bajarilayotgan ishning mohiyatiga oid munozaralar, tortishuvlar, fikrlarning yuzaga kelishi, ularning zaruriyligi, kompozitsion yechimlarni o’zgartirishni asoslash va shu kabilar alohida diqqatni talab etadi. Zero, sanab o’tilgan jarayonlar nazariy tafakkurni shakllantiruvchi, aynan mazkur vaziyatda esa ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi elementdir.

Ijrochilik mahoratini egallah jarayoni “Kompozitsiya asoslari” va “Zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi” fanlarining o’zlashtirilishi bilan uzviy bog’liq.

Mahoratni egallahsha izchillikka rioya qilish kasbiy tayyorgarlikning muhim tamoyili hisoblanadi, ya’ni o’quvchilar ustalarining asarlaridan turli variantlardagi nusxalar olish orqali o’z shaxsiy ijodiy ishlarini yaratadi.

Har bir bitiruvchi an’anaviy amaliy san’atning zamonaviy buyumlarini loyihalashiradi hamda har qanday murakkab darajada bo’lgan zargarlik mahsulotini o’z qo’llari bilan yaratishga qodir bo’ladi. Zargarlik mahsulotlarini tayyorlash mahoratiga o’rgatish jarayonida individual shogirdlik (shaxsiy yo’naltirilgan yondashuv) va jamoaviy ta’lim shakllaridan foydalilanadi. Ta’lim oluvchining amaliy faoliyati bilan bog’liq shakllar qo’llaniladi. Mahoratni egallah u yoki bu mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo’ladigan, boshlang’ich, tarixiy shakllangan texnik uslublarni o’zlashtirishdangina iborat bo’lmay, balki bu jarayonda pedagogik jamoa tomonidan o’quv rejasiga kiritilgan ona tili va adabiyot, falsafiy fanlar (estetika, shaxs va jamiyat, dinshunoslik), ma’naviyat asoslari va boshqa fanlarni o’rganish jarayonida egallangan bilim, malaka va ko’nikmalarini ham qo’llashga yo’naltirilgan.

Shunday qilib, yangi texnikalarni egallah avval bosib o’tilgan yo’llarni takrorlash orqali amalga oshiriladi, bu esa o’z navbatida qadimiy texnologiyalar va zamonaviy dekorativ materiallarni qo’llagan holda buyumlarga badiiy ishlov berish orqali o’quvchilarida zargarlik mahsulotlarini yuqori sifatlari qilib tayyorlash malaka va ko’nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

#### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. *Zargarlik buyumlari bo'yicha usta - 3211214 - ixtisosligining namunaviy o'quv rejasi. 2013.*
2. *Максимович В.Ф. Художественное образование в традиционном декоративно-прикладном искусстве. – М.: РАО, 2003.*
3. *Севрюкова Н.В. Методика преподавания композиции в подготовке художников-ювелиров. //Традиционное прикладное искусство и образование: материалы 11 межд. Науч.-практ.конф. – СПб: ВШНИ, 2005.*
4. *Shadiyev R.D., Kamolov I.B. Pedagogical model of professional education in jewelry art: basic parameters of the concept. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. № 11–12. Vienna , 2014. rr. 137-142.*

---

**Zilola ESHANOVA,**  
Andijon Davlat universiteti katta o'qituvchisi

## BARQAROR EPIK FORMULALARDA TOG‘ OBRAZI VA UNING SEMANTIK KO‘LAMI

### Annotation

Dunyoning barcha xalqlari badiiy ijodidagi an'anaviy obrazlardan biri bo'lgan tog‘ obrazi o‘zbek folklorining barcha janrlarida ishtirok etadi va muhim badiiy-estetik vazifa bajarib keladi. Maqolada barqaror epik formulalardagi tog‘ obrazining badiiy talqinlari “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Alpomish”, “Ravshan” kabi bir qancha dostonlar misolida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Barqaror epik formula, stilistik formula, ajdodlar ruhi, mifologiya, kult, tog‘ obrazi, mifologik talqin, mifologik makon, doston, epik makon.

Образ горы, являющийся одним из традиционных образов художественного творчества всех народов мира, присутствует во всех жанрах узбекского фольклора и выполняет важную художественно-эстетическую функцию. В статье рассматриваются художественные трактовки образа горы, упоминающейся в традиционных эпических формулах на примере таких поэм, как “Рождение Гор-оглы”, “Алпамыш”, “Равшан” и др.

**Ключевые слова.** Традиционная эпическая формула, стилистическая формула, дух предков, мифология, куль, образ горы, мифологическая трактовка, мифологическое место, эпос, эпическое пространство.

The image of mountains is one of the traditional images of artistic creation of around the world, which takes part in all genres of Uzbek folklore and make important role in artistic aesthetic function. It is considered in the article the interpretation of mountain image remembering in regular epic formula given by the example such poems as “Borning of Gorogli”, “Alpomish”, “Ravshan” and etc.

**Key words.** Regular epical formula, stylistical formula, spirit of ancestors, place of spiritual protectors, mythology, cult, the image of mountain, mythological interpretation, mythological place, epos, epic place.

**D**ostonlarning she’riy qismida doimiy takrorlanib keluvchi misralar folklorshunoslikda barqaror epik formula yoki stilistik formula atamalari bilan yuritilib kelinmoqda<sup>1</sup>. Professor T.Mirzayev bu xil misralarni stilistik formulalar deb olgan va ularning epik asar strukturasi va baxshining ijodiy jarayonidagi o‘rnini borasida shunday yozgan: “Asar mazmuni bilan u yoki bu darajada bog‘langan, ayrim hollarda aforizmlilik xususiyatiga ega bo‘lgan bunday misralar bandning boshida, ba‘zan o‘rtasida kelib, aytuvchining to‘xtovsiz improvizatsiya qilishiga imkon beradi, unga quyilib kelayotgan fikr

<sup>1</sup> Жирмунский В.М, Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос – М: ГИХЛ, 1947. – С.141-145; Mirzayev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari – Т.: Fan, 1968, 141-145-б; J.Eshonqulov. Epik tafakkur tadriji – Т.: Fan, 2006, 49-50-б; Mirzayeva S. Barqaror epik formulalar poetikasiga doir.// O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. №6. 37-42-б; Mirzayeva S. Barqaror epik formulalarining xoslanishi.// O‘zbek tili va adabiyoti. 2000. №3. 33-36-б; Mirzajonova M. Barqaror epik formulalar haqida ba‘zi mulohazalar. // O‘zbek tili va adabiyoti ,2000. №6. 34-36-б.

oqimini mohirlik bilan tezroq bayon qilishiga yengillik tug‘diradi. Banddagı boshqa misralar bilan qofiyada mahkam bog‘langan bunday qaytarqlar dostonchining so‘z topishiga bir oz fursat yaratib, keyingi misralarni tezlik bilan ijod qilishiga sharoit hozirlaydi.”<sup>2</sup>

Bir so‘z bilan aytganda, barqaror she’riy takrorlar muayyan bir doston syujeti bilan bog‘lanmagan, ba’zan aforizmlilik xususiyatiga ega epik bilim va xotira asosida yotuvchi epik qolip shakli bo‘lib, xalq dostonlaridagi she’riy matnda qahramon holati, ruhiyatini ochishga xizmat qiluvchi, tasvirlanayotgan vogelik semantikasi bilan uyg‘un baxshi shoirga cheksiz improvizatsiya imkoniyatini yaratuvchi universal obrazli hodisadir.

O‘zbek xalq dostonlari tarkibida tog‘ obrazi ishtirok etuvchi barqaror she’riy misralar son jihatdan ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Tog‘ obrazi bu misralar asosini tashkil qiladi. Xalq dostonlarida keluvchi tog‘ obrazi bilan bog‘liq barcha epik formulalar yagona tog‘ obrazi atrofida birlashadi. Bu o‘rinda tog‘ obrazi va u asosida ifodalangan holat, vaziyat ramziy ma‘no kasb etib, ramziy holat va vaziyatlar tasviri yordamchi formulalar zimmasiga tushadi. Ayni vaqtida barqaror epik formulalar dostonning she’riy qismida ma’lum bir ohang yo’llarida keladi va yordamchi she’riy formulalar ham ushbu ohang yo‘liga solinadi. Barqaror epik formula qanchalik qadimiyo bo‘lsa, uning ohang yo‘li va shakliy ko‘rinishi ham turg‘un ko‘rinish oladi. Barqaror epik formulalarni qo’llash baxshi shoirning mahoratini namoyon etuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi.

Folklorshunos M.Qo’shmoqov ta’kidlaganidek, barqaror she’riy formulalarning mukkammal namunalarining keng qo’llanilishi u yoki bu dostonchilik matabning umumiyligi she’riy madaniyati naqadar yuksak maqomga chiqqanligini namoyon etuvchi belgilardan biri sifatida qaraladi. Dostonchilik an’analaring ustozdan shogirdga o’tish yo’llarini ta’minlaydi. Xususan, o‘zbek xalq dostonlari tarkibida keluvchi barcha dostonchilik matablari repertuaridan turg‘un o‘rin egallagan tayanch epik formulalarni shunday namunalar sirasida ko‘rsatish mumkin.

Folklorshunos H.Ro’zimboyev Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida keluvchi “Dog‘larning sarasi Bolqon”, “Tog‘larning boshinda duman” barqaror she’riy takrorlarga to‘xtalib, ularda keluvchi tog‘ obraziga diqqat qaratadi: “Ushbu barqaror formulalardagi yana bir detal e’tiborni tortadi. Ularda ko‘proq “tog” so‘zi tilga olinadi. Ushbu holat eposning dastlabki shakllanish davridagi geografik muhit bilan aloqador bo‘lishi kerak. Kavkaz hududining tog‘lar mamlakati ekanligini nazarda tutsak, eposdagi mazkur nomning faol ishlatalishi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi.”<sup>3</sup> Tadqiqotchi barqaror she’riy takrorlarda keluvchi tog‘ obrazining ildizlarini real geografik muhit bilan bog‘liq deb qaramoqda. Tasvirda ramziy mazmun mavjud bo‘lishiga e’tibor bermayapti. Folklor asarlari tarkibida keluvchi tog‘ so‘zi turli ma’nolarda kelishi mumkin. Bu o‘rinda matnda bu obrazning o‘rni va ma’nosiga diqqat qaratish lozim.

1. Tog‘ obrazi tabiiy, real tog‘ sifatida kelgan o‘rinlar.
2. Tog‘ ko‘chma, poetik ma‘no olgan holatlar.

Har ikki holatda ham tog‘ning lug‘aviy ma’nosini matnda saqlansa-da, ko‘chma mazmun mavjud o‘rinlarda so‘z zamiridagi ma‘no yetakchi o‘ringa chiqadi. Xususan, barqaror epik takrorlar tizimida keluvchi tog‘ obrazi ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, matnda ramziy semantik holatni paydo qiladi:

1. Asqr tog‘ va tuman obrazi ishtirokidagi barqaror she’riy takrorlar. Asqr tog‘, avvalo eronlar hududi, ajodolar ruhi qo‘nim topgan muqaddas joy, epik qahramon an’alalar jarayonidan o‘tuvchi makon, qahramon yashayotgan hududning ma’lum bir qismi, yurt, vatan timsoli va qahramon makoni, o‘zga yurtlar o‘rtasidagi chegara, yo‘l masofa-

<sup>2</sup> Mirzayev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari. – T.: Fan, 1968, 141-b.

<sup>3</sup> H. Ro’zimboyev. “Go‘ro‘g‘li” eposining poetikasi. – Urganch: 2005. 11-b.

---

sini bildiruvchi epik o'lcham kabi talqinlarda keladi. Asqar tog' va u bilan birga keluvchi tuman obrazi ishtirokidagi barqaror she'riy takrorlar ham ma'no jihatidan ushbu tasavvurlar, tushinchalarga bog'lanadi. Ammo muayyan matndagi o'rniga ko'ra ma'no qirralari kengaytiradi.

Xalq dostonlarining nazm qismida Asqar tog' obrazi bilan bog'liq barqaror she'riy takrorlarning ma'lum qismida bu obraz vatan, yurt timsolida namoyon bo'ladi. "Balxuvon" dostonida Nurali Go'ro'g'li bobosini boylangan holda ko'rib aytgan qo'shig'ida:

*Bir tog'ing Asqardir, Bir tog'ing Bolqon,  
G'irot bilan Sunduz tog'da sizlarning.  
Haqingizga duo qildi qirq chilton,  
Och ko'zingni, bobom Go'ro'g'li sulton!*  (341-bet. Balxuvon)

deb kuylanadi. Ushbu to'trlikdagi "Bir tog'ing Asqardir, Bir tog'ing Bolqon" barqaror she'riy takror bevosita vatan timsoli ma'nosiga ega. Berdi baxshi ijro etgan "Alpomish" dostonida ham bu she'riy misra bir necha bor takrorlanib keladi. Yodgor tilidan aytilgan ushbu to'trlikda ham barqaror she'riy misra vatan, yurt timsoli ma'nosiga ega.

Dostonlar tarkibida Asqar tog' obrazi bilan bog'liq doimiy she'riy takrorlar orasida faol takrorlanuvchi misra "Asqar tog'ning boshin chalgan tuman" (tumanmi, tumandi va boshqa shakllarda) sifatida keladi.

*Asqar tog'ning boshin chalgaridir tuman,  
Endi mening bunda turmog'im gumon,  
Qalmoq elga men ketarman bul zamon.  
Ulsizligim akam bunda bildirib,  
Akam ta'na qildi mening qizimni.*  (24-bet. Alpomish. Fozil shoir)

Boybo'rining zakot talab qilishini Boysari – uning o'g'li yo'qligini akasi ta'na qildi ma'nosida angladi. Natijada aka-ukaning turlicha qarash va talqinlari sababli el ikkiga ajralib ketishiga sabab bo'ldi. Asqar tog'ni tuman chalishi barcha o'rinnarda ajdodlar ning muqaddas qadriyatlarining unutilib, uning o'rnini adovat, dushmanlik egallashi kabi mazmun anglashiladi. Shu sababli ham bu misraga yordamchi bo'lib keluvchi aksariyat misralar mazmuni ham xavotir, hiyonat, dushmanlik kabi mazmunga ega bo'ladi.

Xalq dostonlari tarkibida bevosita Asqar tog' ishtirokisiz, tog' va tuman obrazlari bilan bog'liq yuqorida tahlil etilgan barqaror she'riy takrorning variantlari ham keng qo'lilaniladi.

Po'ilkan shoir kuylagan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida yurtga yashirinchcha akasi bilan ketishga chog'langan yoriga qarab Hiloloy aytgan so'zlarda shunday an'anaviy barqaror misra bilan boshlangan:

*Tog'larning boshini chalgan tuman-a,  
Yuraklar bo'lib qoldi qon-a,  
Ol xanjarining, yorib op ket bolangni  
Bor edi o'zingdan bo'lgan gumona!*

Doston talqiniga ko'ra Gajdumbek, Bibi Hilol va Ravshan epik Taka-Yovmit elining podsholari avlodidan edi. Taqdir taqozasi bilan ular Zangar mamlakatiga kelishdi va birga bo'lishdi. Ravshanni Shohdorxon ko'r qildi. Ravshan o'zining haq ekanligini ko'rsatish maqsadida holvochingning otini tarbiyalab, chin tulpor ekanligini isbotlash uchun Gajdumbek bilan yurtga ketishga qaror qildi. Hiloloy dushman elida yolg'iz qolishni bildi. Ushbu o'ta dramatik holatda kuylangan qo'shiqda Hiloloyning barcha kechinmalari, ularning shajarasi birligina "Tog'larning boshini chalgan tuman-a" barqaror she'riy takror orqali bayon etilmoqda. Tog' boshining tuman chalishi Ravshan va Gajdumbekning barcha

rishtalarini uzishga majbur bo‘lib, Hiloloyni tashlab ketayotganini va shu sababli “Yuraklar bo‘lib qoldi qon-a”, deb aytilmoqda.

Har qanday barqaror an'anaviy takror bilvosita umumiyl timsoliy ma’no asosida muayyan matn tarkibida xususiy mazmun kasb etishini tog’ va tuman obrazni ishtirokidagi namunalar ham tasdiqlaydi. Umuman olganda xalq dostonlarida tog’ va tuman obrazlari ishtirokida qo’llaniluvchi barqaror she’riy takrorlarning umumiyl ma’nosini bir-biriga yaqin va ular muayyan matnda o’z ma’no qamrovini yanada kengaytirishi oydinlashmoqda.

2. Tog’ va ot obrazni ishtirokidagi barqaror she’riy takrorlar. Tog’ va ot obrazlari ishtirokidagi epik formulalarini eng faol, turg’un an'anaviy shaklga kirgan formulalar sirasida ko‘rish mumkin. Xalq dostonlari tarkibida ular quyidagi: “Ot chopilar baland tog’ning pastiga” (12 variantda kelgan), “Ot chopilar baland tog’ning pastidan” (3 variantda kelgan), “Ot chopilar baland tog’ning bastiga”, “Ot chopilar tog’ning baland-pastiga, (bir variantda uchradi) hamda “Ot chapsa gumbirlar tog’ning darasi”(11 variantda kelgan) barqaror she’riy formulalar keng takrorlanib keladi. “Ot chopilar baland tog’ning pastiga” (... pastidan, ... bastiga, ... baland-pastiga) Qo’rg’on dostonchilari ijrosidagi dostonlarda, “Ot chapsa gumbirlar tog’ning darasi” shakli esa Bulung’ur dostonchilari kuylagan dostonlarda faol ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ushbu barqaror she’riy takrorlarga qo’shilib keluvchi yordamchi epik formulalar orasida ham ma’lum bir misralar nisbatan barqaror shaklga kirgan. Masalan: “Ot chopilar baland tog’ning pastiga” (...pastidan) yoki “Ot chopilar baland tog’ning bastiga” misralariga “Quloq soling gapimning payvastiga” misrasi yordamchi formula sifatida kelishi ko‘proq kuzatiladi. Boshqa o‘rnarda vaziyat, qahramon ruhiy holati bilan bog’liq ravishda “Irim bilan mindik otning ustiga”, “Botir borar dushmanining qasdiga”, “Mard o‘g’lon yuradi dushman qasdiga”, “Qichab bordi, kuyganidan, qasdidan”, “Hech kim yo‘liqmasin dushman qasdiga”, “O’tkir xanjar botirlarning dastiga”, “Hech kim ayrilmasin suygan do’stidan” kabi misralar yordamchi epik formula bo‘lib kelgan. “Ot chapsa gumbirlar tog’ning darasi” barqaror she’riy takronning matnda kelishida ham shunday holatga guvohi bo‘lamiz. “Botirni ingratar nayza yaras” misra bu holatda nisbatan barqaror shakl olganligi kuzatilsa, “Botirlarga kor qilmas oz-moz yaralar”, “Mardlarni ingratar o‘lim yaras” ko‘rinishni variant sifatida qarash mumkin. “Bu ishlarni qildi Chambil to’rasi”, “To‘qqiz kunlik yo‘ldir Chambil orasi”, “Otam turur Chambil elning egasi”, “Hali ko‘rinmaydi ko‘lning qoras”, “Tortib gapirgin tilingni, Gado emas, o‘ylasam o‘xshaydi, Bir shaharning to’rasi” misralarini matn talabi bilan yordamchi formula shaklini olganligini ko‘rish mumkin.

Bevosita matnda tog’ va ot obrazlarning semantik doirasi ushbu obrazlar ifodalovchi ramziy ma’nolar ko‘lamiga chambarchas bog’liq holda namoyon bo‘ladi. Ot obrazni esa o‘zbeklar, umuman, turkiy xalqlar hayotida muhim o‘rin tutib, bu xalqlarning folklor asarlari tarkibida eng faol va timsol darajasida talqin olgan obrazlardan biri sanaladi. O‘zbek xalqi orasida keng yoyilgan maqolda: “Ot – yigitning qanoti” deb aytilsa, xalq tasavvur tushunchalari mujassam topgan xalqona tush ta’biriga ko‘ra: “Ot – murod”, “Tushida ot ko‘rgan, ot mingan kishi murodi maqsadlariga yetishadi” deb talqin etiladi. “Ot chopilar baland tog’ning pastiga”, “Ot chapsa gumbirlar tog’ning darasi” va boshqa tog’ va ot ishtirokidagi barcha barqaror she’riy formulalarning tub ma’nolari ayni tasavvur hamda tushunchalarga bog’liq talqin oladi.

“Ot chopilar baland tog’ning pastiga,  
Quloq soling gapimning payvastiga,  
Qaddingdan, yo‘l bo‘lsin, yurtning egasi?  
Qo‘yan qadamlaring diydam ustiga...” (7-bet. Ravshan)

---

“Ravshan dostonida” kelgan ushbu baytda safarga otlangan qahramon va so‘rovchi o‘rtasidagi munosobatini oydinlashtirish maqsadida kelgan dialogda aytimoqda: “Ot chopilar baland tog‘ning pastiga, Quloq soling gapimning payvastiga” barqaror she’riy formula mazmuni so‘roqchining: “Qaddingdan, yo‘l bo‘lsin, yurtning egasi? Qo‘ygan qadamlaring diydam ustiga” misralari orqali tiniqlashadi. Bu o‘rinda barqaror she’riy formula: “Sen bir ulug‘ maqsad bilan yo‘lga otlangan ko‘rinasan, bu maqsadlaringga men ham qo‘shilaman, tilaklaringga tilakdoshman”, degan ma’no anglanadi.

### 3. Tog‘ va qor obrazlari:

“Tog‘” va “qor” obrazi ishtirokidagi barqaror she’riy takrorlar orasida *“Erisin tog‘larning qori erisin”* / *“Erisin tog‘larning qori”* (15 o‘rinda kelgan) eng faol shakl ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Doston matnida *“Erisin tog‘larning qori erisin”* tayanch barqaror epik formula sifatida kelib, unga aksariyat holatlarda *“Yer ostida dushman tani chirisin”*, *“Mergan otar baland tog‘ning bo‘risin”*, *“Har kim yarashig‘i bilan qarisin”*/ *“Har banda olgani bilan qarisin”* kabi misralar yordamchi epik formula vazifasini bajarib keladi.

Ko‘kaman alp Barchindan qimiz so‘radi. Barchin kaniziga: “Bu qimizni bizdan irim bilan so‘rayapti. Bir jom suv bergen... umidini uzib ketsin”, deb aytdi. Ko‘kaman alp kosani ko‘rib... suv ekanini bilib... achchig‘i kelib, kanizning bilagiga qamchi bilan soldi... Jom jingirlab yerga tushib qoldi. Suqsur kaniz Ko‘kaman alpdan bu zulmni ko‘rdi. Ko‘ngli buzilib, o‘z holiga bir so‘z deb turgan ekan:

*Erisin, tog‘larning qori erisin,  
Yer ostida dushman tani chirisin,  
Iloyim musofir yurti qurisin.  
Quloq solmas mening aytgan tilima,  
Achchiq qamchi urdi badbaxt qo‘lima,  
Mushtiparman, qaramadi holima, (56-bet. Alpomish. Fozil shoir)*

Qalmoq yurtida, musofirchilikda, qalmoq alpidan jabr ko‘rgan Suqsur kanizning bu murojotida kelgan “Erisin, tog‘larning qori erisin” barqaror she’riy takror va unga yordamchi sifatida aytileyotgan “Yer ostida dushman tani chirisin” misrasi ma’nolari qahramon holati, ruhiyatini o‘ta ramziy tasvirlab bermoqda. Tayanch barqaror she’riy takror – ota yurtdan kelib ayroliqda qolgan Qo‘ng‘irot elining boshidan bu qaro kunlar ketsin, el yurtiga qaytsin, dushmanlar, yovuz niyatli kuchlarning maqsadlari amalga oshmasin, degan tilak ifoda qilinmoqda.

Surxayil maston to‘qqiz kampir bo‘lib, eliboylardan xabar olishga keldi. Itlarga taldi. Boysarining ayoliga, qizingni Qorajonga ber, rozi bo‘lmasang, alplar siyosat bilan qizingni tortib oladi, keyin yuzing tuman bo‘lib qoladi, deb do‘q qilganida Boybichaning javobi aynan:

*Erisin, tog‘larning qori erisin,  
Yer ostida dushman tani chirisin,  
Iloyim Qorajon o‘g‘ling qurisin.  
Sen eshitgin mening aytgan so‘zimni,  
O‘g‘ling ololmaydi Barchin qizimni.  
Mening so‘zim ola berding qiyoma,  
Qo‘lingdan kelganin qilgin, ayama! (48-bet. Alpomish. Fozil shoir)*

Barchinining onasi tilidan aytigan ushbu qo‘shiqda ham xuddi Suqsur kaniz istagiga uyg‘un mazmun mavjud. Bu o‘rinda ham tog‘ obrazi ota-bobolar yurti, Boysun qo‘ng‘irot haqidagi totli orzularning ramziy ifodasi bo‘lib kelayotgan bo‘lsa, qor obrazi qavm boshiga tushgan musibatlarning ramziy obrazi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

4. Tog‘ hamda gul, daraxt, nabotot, osmon yoritqichlari bilan bog‘liq obrazlar ishtirokidagi barqaror she’riy takrorlar.

Dostonlar tarkibida tog' obrazi turli gul, o'simlik, daraxt va osmon yoritqichlari obrazi bilan birga kelgan barqaror she'riy takrorlar ham keng qo'llaniladi. Bu xil she'riy takrorlar orasida "Bahorda ochilar tog'ning lolasi" she'riy takror nisbatan faol ekanligini kuzatish mumkin. "Alpomish" dostonining Po'lkan shoir variantida Barchinday qizi, elati ni Alpomish bilan Boysunga kuzatib, o'zi qolgan Boybo'ri bilan boybichani Qalmoq shohi toshbo'ron qilib o'ldiradi. Chopar kelib, bu xabarni yetkazgan sahnada shunday misralar aytilgan:

*Bahorda ochilar tog'ning lolasi,  
Timmay oqib ikki ko'zning jolasi,  
Voy ota, deb nayzasini suyanib,  
Ham kuyovi Mulla Hakimday bolasi. (84-bet. Alpomish. Po'lkan)*

Alpomishning bo'lgan voqeadan qayg'uga tushgani "Bahorda ochilar tog'ning lolasi" va unga qo'shimcha ma'no ochqich vazifasini bajaruvchi: "Timmay oqib ikki ko'zning jolasi" misralari orqali tasvirlangan. Barqaror she'riy takrorning matnda o'z ma'no qirralarini kengaytirib, bevosita vogelikka mos mazmunga ega bo'lishi "Bahorda ochilar tog'ning lolasi" misolida ham namoyon bo'ladi. Alpomishning Qalmoq yurtiga borishida murodi Barchin vasliga yetish va Qo'ng'irot elini o'z yurtiga olib qaytish edi. Alpomish raqiblarini yengib, bu vazifani uddaladi, ya'ni uning bahori keldi, kutgan lolasi gulladi. Lekin shu vaqtida bu qayg'uli xabar yetib kelib, uni motamga soldi. Bu sovuq xabar ko'z yoshining jala bo'lib oqishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, tog' obrazi ishtirokidagi barqaror epik formulalar boshqa she'riy takrorlar qatorida barcha dostonchilik maktablari an'analarida amal qiluvchi formulalar, ma'lum bir dostonchilik maktablari doirasida amal qiluvchi namunalar va bir ijrochi ijodiga xos shakllarda uchraydi.

Xalq dostonlarida eng faol qo'llanuvchi tog' obrazi ishtirokidagi turg'un shakllardan biri Asqar tog' obrazi bilan bog'liq va bu obraz zamiridagi an'anaviy eranlar hududi, ajoddar ruhi qo'nim topgan muqaddas joy, epik qahramon an'analar jarayonidan o'tuvchi makon, qahramon yashayotgan hududning ma'lum bir qismi, yurt, vatan, timsoli va qahramon makoni, o'zga yurtlar o'rtaсидаги chegara, yo'l masofasini bildiruvchi epik o'lcham ma'nolari bu she'riy formulalar ramziy ma'nolariga asos bo'lib keladi. She'riy formulalar tarkibida tog' obrazi tuman, ot, qor, lola, gul, daraxt, osmon yoritqichlari va boshqa obrazlar bilan birligida kelib, muayyan matnda an'anaviy ma'no doirasini aniq matn bilan bog'liq kengaytiradi. Tog' va ot obrazlari ishtirokidagi epik formulalar eng faol, turg'un an'anaviy shaklga kirgan formulalardandir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. Alpomish dostonining o'zbek variantlari. – T.: Fan, 1968, 141-145-b.
2. Eshonqulov. J. Epik tafakkur tadriji. – T.: Fan, 2006, 49-50-b.
3. Mirzayeva S. Barqaror epik formulalar poetikasiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti, 1999. №6. 37-42-b.
4. Mirzayeva S. Barqaror epik formulalarning xoslanishi. // O'zbek tili va adabiyoti, 2000. №3. 33-36-b
5. Mirzajonova M. Barqaror epik formulalar haqida ba'zi mulohazalar. // O'zbek tili va adabiyoti, 2000. №6. 34-36-b.
6. H. Ro'zimboyev "Go'ro'g'li" eposining poetikasi. – Urganch: 2005. 11-b.
7. Жирмунский В.М. Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М: ГИХЛ, 1947. – С. 141-145.

**Komiljon KARIMOV,**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI direktori o'rinnbosari

## AXBOROT-KOMMUNIKATSION TARMOQLAR ORQALI TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK UYUSHMALAR UZLUKSIZ PEDAGOGIK TA'LIMNING TARAQQIY ETAYOTGAN MODELI SIFATIDA

### **Annotatsiya**

Maqolada axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etiladigan pedagogik uyushmalar uzluksiz pedagogik ta'larning taraqqiy etayotgan modeli haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushma faoliyatining axborot-metodik ta'lomitini boshqarishning asosiy jihatlarini ochib bergan.

**Kalit so'zlar.** Axborot-kommunikatsion tarmoqlar, uyushma, model, bosqich, pedagog, jihat, indikator.

В статье изложены мысли автора о педагогических объединениях, организуемых через информационно-коммуникационные сети как развивающаяся модель непрерывного педагогического образования. Также автором раскрываются особенности организации информационно-методического обеспечения педагогических объединений через информационно-коммуникационные сети.

**Ключевые слова.** Информационно-коммуникационные сети, объединение, модель, этап, педагог, особенности, индикатор.

The article highlights the pedagogical communities organizing through informational-communication networks as developing model of continuous pedagogical education. In addition, the author discovers the main features of managing informational-methodological providing of pedagogical communities, organizing through informational-communication networks.

**Key words.** Information and communication networks, community, model, stage, pedagogue, aspects, indicator.

**P**edagog kadrlar malakasini oshirishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimni modernizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj asosan malaka oshirishni pedagogik faoliyatning kundalik amaliyotiga mazmuniy, hududiy ma'noda yaqinlashtirish, pedagogning ta'limi ehtiyoji va uni qondirish o'tasidagi farqni kamaytirish zarurligidan kelib chiqadi.

Malaka oshirish tizimi ta'lim tizimining ichki imkoniyatlardan, aynan pedagog amaliyotchilar tajribasidan yetarli darajada foydalanmaydi. Uning tajribalarni umumlashtirish va tarqatishning turli shakllari ko'rinishidagi tasavvurlari yetarli emas, chunonchi, ko'pchilik hollarda innovatsion-pedagogik tajribani o'zgarmas holda ko'chirib

bo’lmaydi. Bu tajribaga nisbatan baholash-refleksiv faoliyatni olib borishga esa malaka oshirishning an’anaviy tizimi imkoniyat bermaydi.

Bundan kelib chiqib, ta’limni rivojlantirishning yo’nalishlaridan biri bo’lib, o’quv faoliyatini tashkil qilishning konsepsiyalarini qaytadan ko’rib chiqish hisoblanadi. Fikrimizcha, tarmoqli ta’lim modellarini shakllantirish konsepsiysi pedagog kadrlar malakasini oshirishning an’anaviy o’qitish modeli o’rniga kelishi lozim.

Tarmoqli ta’lim texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan vositalardan foydalanish, malaka oshirish tizimini qayta tuzish yo’nalishlarini nafaqat kuchaytiradi, balki ularning doirasini ham kengaytiradi. Bu bilan bog’liq holda, axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan pedagogik uyushmalardagi o’qitish modeli uzuksiz pedagogik ta’limning kelajagi porloq modellaridan biri sifatida ko’riladi.

Uyushma – aniq tuzilmaga ega bo’lgan katta bo’lмаган guruhalr va tuzilmaga ega bo’lмаган tarmoqlar orasida joylashgan tuzilmadir.

Boshqacha so’z bilan aytganda, uyushmalar markazlashmagan, o’z-o’zini tashkil qiluvchi tizimlarga misol bo’ladi.

“Uyushma” tushunchasining yana bir ta’ifi Jon Dyui tomonidan “uyushma – bu bir-birlari bilan o’zaro muloqot qiluvchi odamlar to’plami” deb berilgan. Dyui yozgan ediki, odamlar uyushmada ularni birlashtirib turuvchi umumiylilik borligi tufayli yashaydilar, muloqot esa ushbu umumiylikni paydo qiluvchi vositadir.

Uyushma xulq-atvori uning subyektlarini oddiy qoidalarga roya qilgan holda oddiy xatti-harakatlari asosida vujudga keladi. Oddiy xatti-harakatlar natijasida ancha murakkab bo’lgan muloqot tizimi shakllanadi.

Reyngold virtual uyushmalarni bir guruh odamlarning muntazam ravishda ochiq munozaralar o’tkazishlari natijasida tarmoqdan o’sib chiquvchi ijtimoiy birikmalar sifatida ta’riflaydi. Uyushmaning aniqlovchi belgisi bo’lib ochiq munozara, bir guruh odamlarning Internet axborot tarmog’i orqali muloqot qilishi bo’ladi.

Ta’lim uyushmasi modeli umumiyligi ta’lim resurslaridan turli loyihalarni amalga oshirishda foydalanuvchi pedagoglar orasida o’zaro tajriba almashishni tashkillashtirish shakli sifatida namoyon bo’ladi<sup>1</sup>.

Tajriba almashish uyushmalari konsepsiysi E.Venger ishlarida o’z rivojini topdi va turli-tuman ta’lim uyushmalari ichida vujudga keladigan munosabatlarni tahlil qilishda keng qo’llanildi<sup>2</sup>.

Har qanday uyushma uchun tajriba almashish va o’zlashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu masalalar ta’lim uyushmalari uchun dolzarbdir, chunki uning a’zolarini kasbiy manfaati boshidan tajriba almashish bilan bog’langan.

Ta’lim uyushmalari ichidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun hozirgi paytda taklif qilinayotgan ko’plab modellarini ichida funksional sxema e’tiborni o’ziga jalb etmoqda.

Ta’lim uyushmasi modeli funksional sxemasini ko’rib chiqish uchun quyidagi tu-shunchalardan foydalanish mumkin:

- uyushma faoliyati mazmunini aniqlovchi bilimlar sohasi;
- xulq-atvor va faoliyati usullari hamda vositalarini belgilovchi tajriba almashish uyushmalari;

<sup>1</sup> Иллич И. Освобождение от школы. Пропорциональность и современный мир / Пер. с нем. М. Чередниченко, Пер. с англ. Ю. Турчаниновой, Э. Гусинского; Под ред. Т. Шанина. – М.: Просвещение, 2006.

<sup>2</sup> Etienne Wenger Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity Cambridge University Press, 1998

- 
- tajriba almashish uyushmalari qatnashchilarini bir-biri bilan bog'lovchi murabbiylar;
  - uyushma faoliyati usullari va vositalarini o'zlashtiruvchi qatnashchilar;
  - tajriba almashish uyushmalariga kirishga xizmat qiluvchi loyihibar;
  - uyushma ichida yaratilinadigan va keyinchalik ta'lif materiallari sifatida foydalaniladigan elektron materiallar;
  - uyushma tomonidan ishlatalinadigan dasturiy vositalar.

Ta'lifning bugungi kundagi rivojlanish bosqichi zamona viy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) hamda global Internet tarmog'i tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanish bilan bog'liq.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalarni vosita sifatida qo'llash o'zining ochiqligi, foydalanish imkoniyatlari, dolzarbligi bilan o'ziga jalb etadi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalar – bu ham-fikrli insonlar, tajribalari bilan almashishni, bahslashishni, o'zi haqida gapirib berishni, kerakli axborotni olishni istovchi turli hududlar pedagoglarini o'zaro muloqoti uchun yaratilgan internet-resursdir.

Bugungi kunda Internet pedagoglarga axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalarda ishtiroy etish uchun keng tanlash imkoniyatlarni yaratib bermoqda: "Ijodiy pedagoglar tarmog'i", "Pedagogik g'oyalar festivali", "Virtual pedken-gash" va boshqalar.

Pedagogik uyushmalar pedagoglar oldida quyidagi imkoniyatlarni ochib berishi mumkin:

- ochiq elektron resurslardan foydalanish;
- mustaqil ravishda tarmoqli ta'lif tarkibini tuzish;
- axborot konsepsiyalari, bilimlari va ko'nikmalarini o'zlashtirish;
- uyushma qatnashchilarini faoliyatini kuzatish;
- mustaqil ta'lif shaklining asosiy afzalliklari;
- tajriba almashish o'qituvchi-amaliyotchilar orasida amalga oshishi;
- metodik yordam shaxsiy va manzilli bo'ladi.

Hozir pedagoglarning turli-tuman virtual birlashmalari va axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

### Ijodiy pedagoglar tarmog'i

Portal Microsoft korporatsiyasi ko'magida AKTdan ta'lilda foydalanish bo'yicha o'qituvchilarga axborot va materiallar almashish hamda muloqot qilish imkoniyatini bershish maqsadida yaratilgan.

Portalda masofaviy tanlovlар va o'rgatuvchi master-sinflar faol o'tkazib turiladi, mualliflik metodik ishlalmalarining eng yirik Internet kutubxonalaridan biri (25 mingdan ortiq) to'plangan. Ushbu saytda:

- AKT qo'llangan o'quv loyihibarining tayyor kutubxonasidan foydalanish;
- turli elektron resurslardan foydalangan holda darslar o'tish metodikasi bibliotekasidan foydalanish;
- pedagoglar uchun qiziqarli bo'lgan maqolalarga murojaatlar uchun to'plamdan foydalanish;
- ro'yhatdan o'tish va hamkasblar bilan muloqot qilish imkoniyatlari mavjud.

Pedagogning turli xil master-sinflarda ishtirok etishi, shubhasiz mustaqil ta'lif darajasini oshiradi. Bu yerda masalalar bo'yicha maslahat olish mumkin bo'ladi.

Moodle virtual ta'lif muhiti pedagoglarning mustaqil ta'lifi uchun ko'p imkoniyatlarga ega.

Axborot va kommunikatsion texnologiyalar pedagogning faoliyat sohasini sezilarli darajada kengaytirish bilan uning kasbiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalarda ishtirok etish orqali o'qituvchi o'zining pedagogika, metodika bo'yicha bilimlarini kengaytiradi, bu bilan o'zining kasbiy kompetentlik darajasini ham ko'taradi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalarni tashkil etishning mohiyati shunday: agar xabar bir manbadan o'n besh kishiga yuborilsa, unda kommunikatsiya qiymati 15 ga teng. Agar shu 15 kishi manba bilan ma'lumot almashsa, unda kommunikatsiya qiymati 152 ni tashkil etadi, bu esa bir tomonlama kommunikatsiya bo'lganidan 15 barobar ortiq. Agar bir-birlari bilan xabar almashishi mumkin bo'lgan 15 kishidan iborat uyushma paydo bo'lsa, unda kommunikatsiya qiymati 215 ni tashkil etadi.

Bilimlarni almashish uyushmasiga a'zolik uyushma a'zolarining o'z faoliyatida foydalananadigan resurslarni o'zlashtirishi bilan bog'liq. Uyushma resurslariga nafaqat axborotlar va ularni qayta ishslash vositalari, balki bilimlar va faoliyat tajribasiga ega bo'lgan uyushma ishtirokchilarining o'zlarini ham taalluqlidir.

Uyushmaning har bir a'zosi bilimlarning yig'masini o'zlashtirishgagina emas, balki uyushmaga o'zining shaxsiy bilimlari va tajribasini olib kirishga harakat qiladi.

Bilimlar va faoliyat usullarini o'zlashtirish uyushma ishtirokchilarining o'zaro muloqot qilishi jarayonida yuzaga keladi. Bu muloqot uyushmaning barcha ishtirokchilari tomonidan yaratilgan dinamik va o'zaro bog'liq resurslarning yetarli darajadagi turli xillarini keltirib chiqaradi.

Ishtirokchilarining shaxsiy bilimlari uyushma rivojlanishining qo'llab-quvvatlovchi axborot-ta'lif tarmog'ini tashkil etadi, u esa o'z navbatida tarmoqning rivojlanishini va tarmoq rivojlanishi orqali uyushmaning alohida ishtirokchilarining mustaqil ta'lifini qo'llab-quvvatlaydi.

### **Axborot-ta'lif tarmog'i tushunchasi**

*Tarmoqli ta'lif texnologiyalaridan biri* – bu o'quv materialini intensiv o'zlashtirish asosida tinglovchilarining ijodiy qobiliyatlarini va mustaqil ta'lif olish va o'sishdan bo'lgan manfaatdorligini rivojlantiruvchi axborot-ta'lif tarmog'idir.


*Axborot-ta'lif tarmog'i* – bu o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy Internet texnologiyalarini qo'llash bilan o'tkazish imkoniyatini beruvchi interfaol elementlar integrallash-tirilgan ko'p funksiyali modulli majmuasidir.

Axborot-ta'lif tarmog'i uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich tarmoqning yadrosi, aynan kafedraning ta'lif portalidan iboratdir.


Ikkinci bosqichi internet-testlash, elektron kutubxona, o'quv videofilmlari, o'quv kurslari bo'yicha individual o'quv veb-saytlari kabi zamonaviy ta'lif tizimi elementlarini o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich uning asosiy vazifasi sifatida tinglovchilar va o'quv fani o'qituvchilarining interfaol uyushmalarini tashkillashtirish turadi, bu esa onlaysiz rejimida muloqot tashkil qilish, fayllarni almashtirish, ta'lif saytlarida yangiliklarni muhokama qilish imkoniyatini beradi.



1-sxema. Axborot-ta'lif tarmog'i

Axborot-ta'lif tarmog'i asosida zamonaviy Internet texnologiyalarini qo'llagan hol-da, har bir o'quv mashg'ulotini qiziqarli va dinamik shaklda o'tkazish mumkin.



Uyushma faoliyatida ishtirok etish uchun zarur bo'lган amaliy bilim va ko'nikmalar uyushma ishtirokchilari harakatlarini quyidagi resurslar bilan bog'laydi.

*Elektron obyektlar kolleksiysi.* Elektron obyektlar – bu elektron kutubxonalar tomonidan taqdim etiladigan kitoblar, ma'lumotnomalar, dasturiy vositalar, audio va video materiallar, testlarni tashkil etadi. Elektron obyektlardan o'quv materiali sifatida ham, uyushma ishtirokchilarining tarmoqda ommalashtiradigan xabarlarini kengaytiradigan materiallar sifatida ham foydalanish mumkin.

*Axborot servislari* – uyushmaning mayjudligini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlardir. Birinchidan, bu yangiliklarni tarqatish, muloqot va o'zaro faoliyat bo'yicha sheriklar ni qidirish, axborot qidirishni ta'minlovchi umumiyl tarmoq servislardan iborat. Ikkinchidan, ular jamoaviy faoliyat, materiallarni filtrlash, taddiqotlar o'tkazish, xabarlarini kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydigan maxsuslashtirilgan agentlardir. Axborot servislari elektron obyektlarni ma'ruba materiallari, munozaralar va ijodiy loyihalarga kiritish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalar tajribasidan olingen misollar, axborot servislari va elektron obyektlardan foydalanib tuzilgan o'quv loyihalardan iborat. Uyushma ichida amalga oshiriladigan loyihalarning bir-biridan farqi ularning uzluksiz xarakterga egaligidir. Bir loyiha jarayonida yaratilgan obyektlar, vositalar va g'oyalar keyinroq o'zgartirilishi va boshqa loyihalarda foydalanilishi mumkin.

Har qanday qoidalar o'zining yangiligi tufayli ishtirokchilarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida kiritilishi va o'zgartirilishi lozim – bu ijtimoiy tarmoqlardagi harakatning xususiyatlaridan biridir.

Tajriba almashuvning axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmalarni boshqarish asosida har qanday bilimning uyushmaning har bir ishtirokchisi uchun ochiqlik tamoyili yotadi. Uyushma ichidagi kasbiy o'zaro harakatlarning shakllari, metodlari va vositalarining variativligi bunga imkoniyat yaratadi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushma faoliyatining axborot-metodik ta'minotini boshqarishning asosiy jarayonlarini shunday belgilash mumkin: uyushmaning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning ishtirokchilari faoliyatini motivlashtirish. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmaning axborot-metodik ta'minotini boshqarishga ta'sir ko'ssatadigan ko'plab faktorlari quydigilardan iborat:

1. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushma doimo kengayishga intiladi. Shuning uchun uyushmaning umumiylarini jilovlash choraclarini ko'rish lozim.

2. Masalaning innovatsionliligi, axborot-metodik mazmun uchun javobgar bo'lgan, tarmoqli faoliyat, tarmoqli muloqot ko'nikmalariga ega bo'lgan, jamoada ishlashni bildaigan malakali mutaxassislarining bo'lishini taqozo qiladi.

3. Pedagoglarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi bo'yicha faoliyatini axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmaga o'tkazish pedagog kadrlar malakasini oshirishning yagona axborot-kommunikatsiya muhitini yaratishni nazarda tutadi.

4. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmadagi qat'iy ierarxik tuzilmaning yo'qligi, uyushmaning real ishtirokchilarini jalb qilishning odadagi usullarining almashinuviga ham olib keladi. Uyushma ishtirokchilari sonining va o'zaro harakatlari samaradorligining oshishiga faqatgina axborot-metodik ta'minot ishtirokchilarining real talablariga mosligi bilan erishish mumkin.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmaning axborot-metodik ta'minoti pedagogik va metodik xodimlarning moderator, metodist, tyutor, tarmoqdagi loyihaning rahbari kabi yangi lavozim vazifalarini shakllantirishni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar ta'lif oluvchining tajribasiga assoslangan quydigilardan iborat bo'lgan bosqichi jarayoni davomida amalga oshirilishini ko'ssatadi:

Bosqich	Amallar
Aniq tajriba	Kuzatish va shaxsiy tajribadan olingen ma'lumotlarni to'plash, o'quvchilar tajribasini qayd etish
Refleksiv kuzatish	Olingen ma'lumotlarning ma'nosi va qiymatini izlash, ta'lif jarayoni ishtirokchilarining nuqtayi nazarini solishtirish va umumlashtirish

Abstraktli konseptuallashtirish	Umumlashtirilgan ma'lumotlarni mavjud bilimlar tizimiga integratsiyalash, abstrakt tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirish
Faol tajriba-sinov o'tkazish	Topilgan yechimlarni yangi holatlarda sinab ko'rishga yo'naltirilgan harakatlar

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushma yetarli darajada egiluvchan va o'z-o'zini tashkil etishga intiluvchan bo'lganligi sababli, tarmoqdagagi o'zaro harakat jarayonida hamkorlikdagi faoliyatning mazmuni va usullarini ham aniqlash va kelishish yuz beradi. Uyushmaning har bir ishtirokchisining o'zaro harakat tizimidagi o'rni aniqlanadi. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan pedagogik uyushma samaradorligining har tomonlama bahosini olish uchun sifat parametrlarining quyidagi tuzilmasidan foydalanish mumkin:

1. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan pedagogik uyushmaning ijtimoiy samaradorligi parametri.

2. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan pedagogik uyushmaning tashkiliy samaradorlik parametri.

3. Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan pedagogik uyushmaning resursli samaradorligi parametri.

Pedagogik uyushmaning *ijtimoiy samaradorligi* – ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishishga bo'lgan qobiliyatini ko'rsatuvchi sifat parametridir. Ijtimoiy samaradorlikning indikatorlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ijtimoiy-pedagogik yo'nalishdagi axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmaning harakatchanligi indikatori (talab va taklifni solishtirish);

- ommaviylik indikatori – pedagoglarning umumiy sonidagi uyushma ishtirokchilarining ulushi;

- pedagoglarning AKT kompetentligi shakllanganligining o'sishi indikatori (uyushma ishida ijtimoiy servislardan foydalanish ko'rsatkichlarida aks etadi);

- faoliyk indikatori – axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmada tashkil etiladigan tadbirdilarga kiritilishi va ishtirok etishi darjasini ko'rsatkichi;

- uyushma intellektual resursining talab qilinganlik indikatori, ishtirokchilarining g'oyalari (metodik ishlamalar) va (muhozama davrida) olgan bilimlarini boshqa ishtirokchilarining kasbiy faoliyatida qo'llash ko'rsatkichlarida ko'rindi;

- elektron ta'lif resurslari kolleksiysi va tarmoqdagagi ijtimoiy servislarning barcha foydalanuvchilar uchun barqaror ochiqligi indikatori.

Uyushmaning ijtimoiy samaradorligini tahvil qilganda hisob ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin. Ular: jalb qilingan axborot almashinuvi shakllarining soni (chatlar, saytlar, portallar), ularga kiruvchilar va faol ishtirokchilarining soni hamda uyushma faoliyatini (tarmoqning axborot xavfsizligini ta'minlashni qo'shganda) texnik jihatdan ta'minlab borishning sifatidan iborat.

Shunday qilib, ijtimoiy samaradorlikni aniqlash jarayonida u yoki bu indikatorlar amalga oshirilayotgan vazifalarning mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi.

*Tashkiliy samaradorlik* deb, pedagogik uyushmaning ichki tuzilmaviy o'zaro harakatlari va tashqi aloqalarini optimallashtirishni baholash tushuniladi.

*Resurs samaradorligi* deb, pedagogik uyushmaning mavjud bo'lgan resurslaridan faoliyat jarayonida samarali foydalanishga bo'lgan qibiliyatini baholash tushuniladi.

Axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali tashkil etilgan uyushmaning ishga tu-shirilishi amaldagi malaka oshirish tizimiga va uni metodik qo'llab-quvvatlashga taya-nishi lozim. Buning asosiy sharti shundaki, malaka oshirish ta'lif muassasalarida ham kunduzgi, ham masofaviy ta'lif shakllarida amalga oshiriladigan, ta'lif tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan o'zgartirilgan ta'lif dasturlaridan foydalaniladi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-maydagi PQ-1761-sod qarori. "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'llimi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. 2012. №22 (522).
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining asosidir, – T., 1997.
3. Каримов И.А. Информационные и телекоммуникационные технологии в Узбекистане //Интервью корреспонденту газеты "Today" (Сингапур), 24 января 2007.
4. Андриянова В.И. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учебное пособие. –Т., 2005. – С. 96.
5. Ахрапов Ш.С. Педагогические основы формирования информационной и учебно-технической культуры будущих учителей в системе педагогического образования. Автореф. дисс... док. пед. наук. –Т., 1994. – С. 39.
6. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО "МОДЭК", 2002. – С.352.
7. Винер Н. Кибернетика и общество. – М., 1958.
8. Маслоу А. Г. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – С. 478.
9. Переаудов Ф.И. Системная деятельность и образование // Качество высшего образования. Хельсинки, 1990. – С. 76–77.
10. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16.02 2006. № 25 "О дальнейшем совершенствовании системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров".
11. Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан № 25 от 16.02.06, "О государственных требованиях, предъявляемых к переподготовке кадров (педагогов) и повышение их квалификации" /Собрание законодательства Республики Узбекистан. – Т.: -№ 6-7 2006.
12. Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и социально-педагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане (на материалах реализации национальной программы по подготовке кадров). Дисс. ...докт. пед. наук. – Т., 2005. – С.311.

**Norbek TAYLAKOV,**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI direktori, p.f.d., professor

**Raxmon ESHIMOV,**

Samarqand Davlat arxitektura qurilish instituti bo'limi mudiri

## TA'LIM MUASSASALARIDA KOMPYUTERLI O'QITISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

---

**Annotatsiya**

---

Maqolada ta'lif muassasalarida kompyuterli o'qitish vositalaridan foydalanish asoslari hamda elektron o'quv qo'llanma va darsliklarga qo'yildigan asosiy talablar haqida fikr yutilgan. Shuningdek, mualliflar kompyuterli o'qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlarini oshib bergan.

**Kalit so'zlar.** Kompyuterli o'qitish vositalari, elektron o'quv qo'llanma, elektron darslik, virtual tajriba, elektron o'quv-uslubiy nashrlar.

В статье изложены основа использования компьютерных средств обучения в образовательных учреждениях а также требования к электронным учебным пособиям и учебникам. Авторами раскрыты особенности компьютерных технологий обучения и их преимущества.

**Ключевые слова.** Средства компьютерного обучения, электронные учебники, электронные учебные пособия, виртуальный опыт, электронные учебно-методические издания.

The article is devoted the basis of the usage of computer training in educational institutions and basic requirements of e-learning training manual and handbook. The authors also revealed basic specialities and advantages e-learning technologies.

**Key words.** PC training, electronic text-books, e-books, virtual expierence, e-learning means.

**B**ugungi kunda ta'lif muassasalari o'quvchilarining mustaqil ishslash faoliyini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatimizda muhim o'rinni egallashi bilim uzatilishining yangi shakllari va vositalarini ishlab chiqishini taqozo etadi. Bunday shakllardan biri kompyuterli o'qitish texnologiyalari asosida o'qitishdir.

Elektron ta'lif zaxiralari vositasida ta'lif berish pedagogik adabiyotlarda kompyuterli o'qitish texnologiyasi deb yuritiladi.

Kompyuterli o'qitish texnologiyasining asosiy xususiyatlari va afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- o'qitish jarayonida axborot vositalari va zaxiralarining faol integratsiyasi ta'minlanishi;

- o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishining ortishi;
- ta’lim olishning qulayligi va natijaviyligi ta’minlanishi;
- kompyuterli texnologiya ta’lim oluvchining mustaqil fikrashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilganligi;
- o‘qituvchi ta’lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashishi;
- ta’lim oluvchining mustaqil ishlash va izlanish malakalari shakllanadi.

Ayrim xorijiy mamlakat tadqiqotchilar kompyuterli o‘qitish texnologiyasining quydagi salbiy jihatlarini ham qayd etib o‘tgan. Xususan, yapon pedagogi S.Sudzuki “Kompyuterli o‘qitish, bir tomonidan, ta’lim oluvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan esa bilimni mustahkam egallahshni ta’minlay olmaydi”, degan fikrni bildirgan.

Fransuz pedagogi L.Legren “Kompyuterli mashg‘ulotlar ta’lim oluvchilarning asabi buzilishiga va ko‘rish qobiliyatining pasayishiga olib keladi” deb aytib o‘tgan.

I.G.Zaxarova fikricha, kompyuterli o‘qitishda har bir ta’lim oluvchi ma’llum bir vaqtida “virtual o‘quvchi” sharoitida bo‘ladi. Demak, o‘quvchi virtual muhitga ko‘nikib borishi kerak.

Xorijiy tadqiqotchilar zamonaviy o‘qitish vositalarini qo’llashda tizimli yonda-shuvni, ya’ni bu tizimda o‘qituvchilarni sifatli tayyorlash va qayta tayyorlash lozimligini, olimlar, pedagoglar va mutaxassislar bilan hamkorlikni rivojlantirishni tavsiya etadilar.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasini joriy etishda asosan elektron o‘quv uslubiy majmualar, elektron o‘quv qo’llanma va darsliklardan foylaniladi.

Elektron o‘quv qo’llanma va darsliklar (EO‘QD) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) nazariy materiallar;
- 2) masala va mashqlarni yechish uchun praktikum;
- 3) kursni o‘rganish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar;
- 4) izohli lug‘at.

Har bir modul (bo‘lim)da tasvir, jadval, grafikaga ega bo‘lgan gipermatn mavjud. Avtomatlashtirilgan laboratoriya praktikumi dasturiy va uslubiy vositalar majmuasini o‘zida jamlaydi. Bu vositalar laboratoriya ishlarini real fizik obyektlar yoki matematik modellar yordamida o‘tkazishni ta’minlaydi.

EO‘QDlar fanning mazmuni va mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma’llumotlarni qarab chiqish va ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga imkon yaratadi. Ta’lim oluvchilarni murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi. O‘rganishning barcha bosqichlarida o‘z-o‘zini test orqali tekshirib ko‘rish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. EO‘QD tajribali o‘qituvchi vazifasini, cheklanmagan tu-shuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bilimlar taqdim etadi.

EO‘QD bilan o‘qitishda tashkiliy shart-sharoitlarni ta’minalash zarur bo‘ladi. Quyida umumiy o‘rtalama maktablarida aniq fanlarni EO‘QDlar vositasida o‘qitishning ba’zi bir tashkiliy jihatlarini yoritish bo‘yicha o‘z mulohazalarimizni keltiramiz. Amaliyotdagi ahvol bilan tanishish va tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida kompyuterli o‘qitish sohasida quyidagi muammolar mavjud:

- umumiy o‘rtalama maktablarida butun o‘quv yili davomida kompyuter sinflari-da mashg‘ulotlar o‘tkazib bo‘lmaydi, lekin hamma sinflarda ta’lim oluvchilar kompyu-

---

ter sinflarida dars jadvaliga binoan mashg'ulotda qatnasha olishda teng imkoniyat-larga ega bo'lishi kerak;

– har bir mashg'ulot davlat standarti talablariga hamda aniq fan dasturlariga mos holda uslubiy ishlanmalar bilan kompyuter sinfida yoki oddiy auditoriyada o'tkazilishi-ga bog'liq bo'Imagan holda ta'minlangan bo'lishi lozim.

EO'QD uslubiy ta'minotni ishlab chiqishda quyidagi asosiy elementlarni inobat-ga olishni nazarda tutadi:

– fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning kompyuterli qo'llab-quvvatlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yangi ish rejalari;

– har bir mashg'ulot bo'yicha to'liq tavsiyalardan iborat bo'lgan uslubiy qo'llan-malar;

– ta'lim olishga mo'ljallangan kompyuterli dasturlarning mavjudligi, tarkibi va im-koniylari to'g'risida ulardan o'quv sinflarida foydalanish bo'yicha yozilgan uslubiy tavsiyalari bilan birgalikda to'liq ega bo'lishi kerak.

Bunday tipdagi EO'QD virtual tajribalar yaratadigan, masalan, kimyo fanini o'r-ganishda tezlashtirilgan va sekinlashtirilgan vaqt hajmida turli jarayonlarni o'rganish imkonini beruvchi modellashtiruvchi komponentlarga ega bo'ladi.

EO'QDda ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda nazorat qilish uchun tuzilgan avtomatlashtirish dasturlari mavjud bo'lishi zarur.

EO'QD o'quvchilarda real borliqning rivojlanishi qonunlarini tushunish, o'quvchi-larni vatanzavarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, boyliklardan faxrlanish, o'z Vatanini ko'z qorachig'idek asrash, bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantiruvchi his-tuyg'usini kamol toptirish uchun xizmat qilishi va shu bilan bir qatorda EO'QDda jamiyat taraqqiyotida, inson kamolotida mehnatning tutgan o'rnnini ko'rsatishga alohida ahamiyat beriladi.

EO'QD mazmuni o'quv dasturiga muvofiq ravishda yoritilishi, ayni paytda har bir mavzuni bayon etishda undan ma'lum darajada chetga chiqishi, me'yorlangan bilimlarning puxta o'zlashuvini ta'minlashi lozim. Shuning bilan bir qatorda fan asos-larining muhim tomonlari, o'quvchilarning amaliy faoliyatida egallagan bilimlardan muvaffaqiyatli EO'QDda teran bayon etiladi.

Yuqoridaqilar bilan bir qatorda EO'QD:

- ta'lim oluvchiga mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'tkazilish tartibi haqida ma'lumot yetkazishi;

- javobning to'g'riliqi yoki noto'g'riliqi haqida axborot berishi;

- har bir ta'lim oluvchining bilimini nazorat qilishi;

- topshiriqlarning zaruriy nazariy materiali va bajarish uslubini ko'rsatishi;

- "pedagog-darslik-ta'lim oluvchi" tartibotida teskari aloqani amalga oshirishi ke-rakligi;

- mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kompyuter xonalarining tayyorgarlik holati tek-shirilishi;

- ta'lim oluvchilarning kompyuter savodxonligi va ularda ishslash ko'nikmalari aniqlanishi;

- EO'QDlar vositasida o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha tarqatma mate-riallar, fanni o'zlashtirish bo'yicha ta'lim oluvchilar bilimlarini baholash testlari ishlab chiqiladi.

EO'QD vositasida o'qitishda quyidagi qulay imkoniyatlar yaratiladi:

- kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda, ta'lif oluvchilar katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga ulgurib, yechimlar va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun sarflanadigan vaqt ni tejashlari;

- kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkoniga ega bo'lishlari;

- ta'lif oluvchilar bilimi tez va samarali nazoratdan o'tkazilishi.

O'qituvchiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarda o'zining xohishi bo'yicha hajm jihatidan kichik, ammo tarkibi bo'yicha o'ta muhim bo'lgan materiallarni yetkazishga, ta'lif oluvchilarning auditoriya mashg'ulotlari doirasidan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni yechishda mustaqil shug'ullanishlariga sharoit yaratilishi quyida-gildan iborat:

- o'qituvchini uy topshiriqlari, turli hisoblashlar va nazorat ishlarini tekshirishdek mashaqqatli mehnatdan ozod etadi;

- ta'lif oluvchi bilan, ayniqsa, uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ish-lashni individuallashtirish mumkin.

EO'QDlar vositasida o'qitish asosan ta'lif oluvchilarning kompyuter bilan ish-lash bo'yicha tayyorgarlik darajasiga va aqliy imkoniyatiga moslashtirilishi kerak.

EO'QDlar vositasida o'qitishni takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak:

- qo'shimcha elektron zaxiralarni, ma'lumotlar va kutubxonalarini yaratish, tarmoqdan axborotni izlashni ta'minlovchi maxsus dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

- o'qituvchilarning o'quv-uslubiy ishlarini takomillashtirish, internetdan foyda-lanish, axborot texnologiyalari va psixologiya sohalari bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlikni o'rnatish;

- EO'QDni fan-texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari bo'yicha ma'lumotlar bilan muntazam to'ldirib borish;

- EO'QDlar vositasida o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol metod-larni qo'llash.

Ta'lif mazmunining zamonaviy fan-texnika va madaniyat yangiliklariga muvofiq takomillashib borishini ta'minlashi EO'QDda o'ta muhimdir. O'quv dasturidagi materi-allarni ilmiy bayon etish, eng avvalo, dalillar va ularning mayjud aloqalarini haqqoni yaks ettirish voqealarini ularning sodir bo'lish va taraqqiy etishi holida olib o'rganish, asosiy tushunchalar, qonunlar va nazariyalarni hozirgi zamon ilm-faniga muvofiq tarzda dalillar yordamida asoslash demakdir.

EO'QDda o'quv dasturi asosiga qo'yilgan barcha ilmiy g'oyalalar tizimli va izchil suratda aniq bayon etilishi kerak. Mazkur g'oyalarni aks ettiruvchi ilmiy nazariyalar va umumiylar qonunlar dalillar yordamida bayon etilibgina qolmay, turli voqealarni hodisalar va ularning qonuniyatlarini keng ochib berishi ham zarur. Bunda asosiy e'tiborni materiallarni animatsiya orqali ochib berishga e'tibor qaratiladi.

EO'QDda o'z ifodasini topadigan materiallarning tavsifi va hajmi o'quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim. EO'QDda o'quv materiallarining murakkablik darajasi tabiiy ravishda oshib borishi, o'quv fani mazmunini ochishda ichki aloqa, davomiylilik bo'lishi talab etiladi.

---

Tanlangan dalillar miqdori ko'p bo'lmasi ligi, lekin xulosa va umumlashmalar chiqarish uchun yetarli bo'lishi zarur.

EO'QDlar ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lgan har xil materiallar, turli detallar va qismlardan holi bo'ladi. Elektron matnlar haddan tashqari kengayib ketmasligi, EO'QD materialidagi asosiy fikrni ochishga xalaqit beradigan narsalar, hayotda ishlatalmaydigan dalillardan imkon darajasida foydalanilmaslik lozim.

EO'QD yaratishda dasturda belgilangan asosiy tushunchalardan tashqari EO'QDni shakllantirish jarayonida kiritiladigan ko'pgina xususiy tushunchalar ham bo'lishni nazarda tutiladi. Bayon etilayotgan materialning umumiy hajmi o'quv kursini o'rganish uchun ajratilgan soatga muvofiq kelishi zarur.

EO'QD materialini bayon etishda mantiqiy fikrlashning turlicha shakllaridan taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish, induksiya va deduksiya, mavzu bo'yicha xulosa chiqarish, isbotlashning turli usullaridan keng foydalanish lozim. Materialni bayon etishda induktiv va deduktiv yondashishlar o'tasidagi mutanosobilikni vujudga keltirish ayniqsa muhim hisoblanadi.

EO'QD o'quvchilarni turli zamonaviy axborot texnologiyalari, ishlab chiqarish tarmoqlarining muhim texnik qurilmalari va texnik jarayonlari, energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa vositalari va boshqalar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. Davlatimizning ijtimoiy qurilishidagi muvaffaqiyatlarni yoritib borish, ayrim texnika, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga oid vazifalarni ilgari suradi.

Unda keltirilgan nazariy bilimlar keyingi materialni tushuntirishda ham, yangi bilmlarni egallahsha ham asqotishi, ya'ni bilimlarni uzviy egallahsha qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, EO'QD o'quv dasturi va elektron o'quv-uslubiy nashrlarga qo'yilgan talablarga javob berishi, o'rganilayotgan fan mazmunini ochib berishi va o'quv-uslubiy maqsadlarga erishishi uchun yetarli bo'lgan hajmga ega bo'lishi, yetarli illyustrativ elementlarga ega bo'lishi (ya'ni kompyuterning multimediali imkoniyatlidan imkon qadar ko'proq foydalanish), zarurat tug'ilganda tashqi WEB-manbalariga va resurslarga murojat qilish imkon bo'lishi, o'quvchining materialni o'zlashtirish darajasini mustaqil baholashi uchun o'z-o'zini tekshirish imkonini beruvchi nazorat savollariga ega bo'lishi hamda o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Taylakov N.I., Kulanov I.B. *Elektron o'quv majmular va ularni yaratishga qo'yiladigan talablar*. Uzlusiz ta'lim, 2008. №3. 8-13-b.
2. Taylakov N.I., Allambergenova M. *Interaktiv o'quv majmualarni yaratish bosqichlari*. Xalq ta'limi. – T., 2010. №2. 24-27.
3. Hamdamov R., Taylakov N.I., Begimqulov U. *Ta'limda axborot texnologiyalari*. Monografiya. O'zME davlat ilmiy nashriyoti. –T., 2010. 120-b.
4. Hamdamov R., Taylakov N.I., Begimqulov U. *Elektron o'quv uslubiy majmular*. Monografiya. O'zME davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2010. 144-b.

Zilola MADAMINOVA,

Namangan viloyati Norin tumani 44-umumta'lif maktab o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA YANGI AVLOD DARSLIK MAJMUALARI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

### Annotation

Maqolada boshlang'ich ta'lif jarayonida ona tili va ingliz tili fanlarini o'qitish, darsliklardagi ayrim grammatik tafovutlar tahlili, o'quvchi o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida darsliklar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ona tilini, ingliz tilining grammatiskasini takomillashtirishga oid o'z fikrlarini bayon etgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich ta'lif maqsadi, ona tili va ingliz tili o'quv materiali, ta'lif sifati, grammatika.

В статье представлен анализ некоторых грамматических различий в родном и английском языках в учебниках для начальной школы, раскрыты особенности их усвоения учащимися. По утверждению автора, сначала учащиеся должны освоить грамматические основы родного, а затем второго языка.

**Ключевые слова.** Цель начального обучения, учебные материалы в учебниках родного языка и английского языка, качество образования, грамматика.

The article presents an analysis of the textbooks of native language and English for primary schools in particular and shows the difference in the grammar of the language, especially the assimilation of some topics by the students. According to the author, students must first learn the basics of grammar of the native language, and then other language.

**Key words.** The aim of primary education, educational materials of english and native language textbooks, the quality of education, grammar.

**T**a'lif-tarbiya shaxs kamolotining asosi bo'lsa, boshlang'ich ta'lif shaxsning uzluksiz ta'limi poydevoridir.

Taraqqiyot ta'lif sohasida ham o'z talablarini qo'yib, uning doimiy rivojlanib, takomillashib borishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishslash, asosiy mavzularni, hisoblashlarni bilish va ularni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijobiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, chet tillarini o'rganishni boshlash, ta'lifi faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Aytish joizki, sog'lom va barkamol, dunyoqarashi keng, tafakkuri teran yosh avlodni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu mas'uliyatli vazifani bajarishda hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy mahoratini muntazam

---

oshirib borishi, ilg'or texnologiyalardan foydalaniib, talablarga javob beradigan darsni tashkil eta olishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson etib tarbiyalash davlat siyosati darajasida ko'tarilgan. Shundan kelib chiqib, hozirda biz boshlang'ich sinf va ingliz tili fan pedagoglari birlashib, ta'larning zamonaviy shakl va usullarini izlab topish, ta'lim olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va ingliz tilini o'rgatish davomida bor salohiyatimizni ishga solib, e'tiborimizni shu masalaga qaratmog'imiz lozim.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qaroriga binoan uzlusiz ta'larning barcha bo'g'inlarida, jumladan, boshlang'ich sinflarda chet tillarni o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonining maqsad hamda uning umumiyo yo'nalgaligi, o'ziga xosligi, ta'lim turlari orasidagi munosabatni anglash muhimdir.

Respublikamizdagi maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uch yildan buyon ingliz tili fanidan chuqur ta'lim olmoqdalar. Agar bugungi ta'larning talabi bolani o'qitish sifatiga qo'yilsa, biroq shunga muvofiq sharoit yaratilmasa, bola ta'lim-tarbiya faoliyatining obyekti sifatida qoladi va ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Masalan, o'quvchi shaxsining ona tili hamda ingliz tili fanlarini birdek o'zlashtirib keta olishi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi va ingiliz tili fan o'qituvchisi hamfikr, hamsuhbat, doimiy aloqada ish olib borishlari lozim. Pedagog darsliklarda berilgan og'zaki nutqni rivojlantirish, fonetika, talaffuz qoidalar, grammatik (so'zlar, gaplar tuzish, matn yaratish, og'zaki so'zlay olish) qoidalar kabi mavzularni o'qitishda hamohang, uyg'unlashtirgan holda ish olib borishi lozim. O'quvchilar o'z ona tilida o'rganmagan ayrim grammatik mavzularni ingliz tili darslarida o'rganmoqda. O'z ona tilini bilmay turib, ingliz tili grammatikasini o'zlashtirish o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradi.

O'quvchilar ingliz tilini o'zlashtirish davrida asosan qisqa, oddiy gaplardan ko'proq foydalanadilar. Masalan, darslarda kishilik olmoshlardan ko'proq foydalinish kuzatiladi. Boshlang'ich sinflarda Xalq Ta'lim vazirligining ishlab chiqqan o'quv rejasiga ko'ra, haftada ona tili darslari 1-2-sinflar uchun 4 soatdan, 3-4-sinflar uchun 5 soatdan, ingliz tili darslari uchun esa 1-2-3-sinflarda 2 soatdan ajratilgan. Lekin soatlardagi farqlarga qaramay ona tili darslariga nisbatan ingliz tili darslarida tillar grammatikasi kuchliroq o'qitilmoqda. Shunga ko'ra, har bir sinfdagi darsliklarni qiyoslab, taklif va mulohazalar jadval asosida ma'lumot uchun taqdim etiladi. Ushbu jadvallarni tuzishdan maqsad avvalo, o'quvchilar o'z ona tilini, so'ngra ingliz tili grammatikasini o'zlashtirishsa, o'quvchi uchun til o'rganish qiyin bo'lmaydi.

### 1-sinf darsliklari uchun

Ona tili darsligida berilgan mavzular	Ingliz tili darsligida berilgan mavzular	Fikr va mulohazalar
1. Tovushlar va harflar. (Ushbu bo'limda o'quvchilar tovush va harflar, unli va undosh tushunchalarni, tutuq belgisini, alifbo, bo'g'in, bo'g'inlab ko'chirish qoidalari o'rganadilar.)	1. Salomlashish. Men 1-sinfman. Mening oilam. Mening do'stim. (Ushbu bo'limlarda o'quvchilar dialoglar tuzishni, berilgan savollarga javob berishni, raqamlarni o'rganadilar.)	1. 1-sinf ona tili darsligiga "-lar" ko'plik qo'shimchasi alohida mavzu sifatida hamda "birlik"va "ko'plik" atamalari kiritilishi kerak. Chunki ingliz tili darsligida -s, -es (-lar) qo'shimchasidan dastlabki mavzulardanoq foydalanigan.

2. So'z. (Ushbu bo'limda so'z, so'zning ma'nosi, so'zning ma'no turlari, atoqli otlarning bosh harfda yozilishi, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi, so'zning ma'no turlariga so'roq berishni o'r-ganadilar.)	2. O'yinchoqlar, ranglar, tana a'zolari, fasllar, tabiat hodisalari, uy va yovvoyi hayvonlar, sabzavotlar, mevalar.(Ushbu bo'limlarda narsalar nomini inglizcha atalishi, ular ishtirokida qisqa gaplarni so'zlay olishni, tuzilgan gaplarni so'roq va inkor (bo'lissiz) shakliga aylantirishni o'r-ganadilar.)	2. 1-sinf ona tili darsligiga kishilik olmoshlari sodda shaklda, birlik va ko'plikdagi variant darslikka kiritilishi kerak. Chunki ingliz tili darslarida, asosan, I(men), you (sen,siz), he ( u, o'g'il bolalar uchun ), she ( u, qizlar uchun), it ( u, narsalar uchun); we (biz), you (sizlar), they (ular) olmoshlardan foydalanib, qisqa gaplar tuzadilar. O'zbek tilida olmoshlarni puxta o'zlashtirilsa, ularni qo'llab gap tuzish osonlashadi
3. Nutq. Gap. (Ushbu bo'limda nutqning og'zaki va yozma shakli, gap, gapda bosh harfning o'rni, gapda qo'llaniladigan tinish belgilari tushuntiriladi.)	3. Biz bajara olamiz. Er-taklar olami. (Ushbu bo'limlarda o'quvchilar harakatni anglatuvchi so'zlarni, belgini bildiruvchi so'zlarni , so'zlar ishtirokida gaplar tuzishni, savollarga ha, yo'q deb javob berishni o'r-ganadilar.)	3. 1-sinf ingliz tili darsligida lug'at berilishi lozim. Chunki ota-onalar uchun lug'at zarur. Ota-onalar talabiga ko'ra, bo'lim mavzularining nomi tarjimasi bilan yozilishi kerak.

## 2-sinf dasrliliklari uchun

Ona tili darsligida berilgan mavzular	Ingliz tili darsligida beril-gan mavzular	Fikr va mulohazalar
1. 1-sinfda o'tilgan mavzularni takrorlash. (Ushbu bo'limda tovush va harflar, unli va undoshlar, tutuq belgisini, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalari o'r-ganiladi.)	1.Tovush va harflar. (O'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, harflarni yozishni, this is..., that is... olmoshlarini, hafta kunlarini o'r-ganadilar. )	1. 2-sinf o'quvchilar o'zbek tilida harflarni yozma shaklda yozadilar, ingliz tilida bosma shaklda yozadilar. Bu esa o'quvchilarning husnixatga oid biliimlari buzilishiiga olib kelmoqda.
2. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar. Ularning harf bilan ifodalaniishi. ( Ushbu bo'limda jarangli, jarangsiz undosh tovushlar talaffuzi, tekshiruvchi so'z, aytishida tushib qoladigan tovushlar, ketma-ket kelgan bir xil undoshlar grammatikasi o'r-ganiladi.)	2. Artikllar. ( a, an, the artikllarining qo'llanishi yoki qo'llanmaydigan holari grammatiskasi o'r-ganiladi. Ular ishtirokida gaplar tuzishni, multimediada berilgan topshiriqlarni bajarish ko'nikmalarini o'r-ganadilar.)	2. Artikllar o'zbek tili grammatikasida mavjud emas, lekin ingliz tilidagi bu artikllarni o'r-gatish uchun kishilik olmoshlardan foydalaniladi. Shu sababdan ona tili darsligiga ham olmoshlar (1-sinfda kishilik, 2-sinfda kishilik, egalik olmoshlari.) mavzusi kiritilishi kerak.
3. So'zlar. (Ushbu bo'limda shaxs va narsa nomini, uning harakatini, belgisini, sanog'ini bildirgan so'zlar, birlik va ko'plikdagi ot so'zlar, atoqli otlarda bosh harflar, so'zlarning ma'no turiga qarab so'roq berish hamda tegishlicha belgilash, gap tarkibidagi so'zlarni ma'no turlariga ajrata olish grammatikasi o'r-ganiladi.)	3. Otlarda birlik va ko'plik. (Otlarning birlik va ko'plik shakli, -s, -es qo'shimchalarining talaffuzi, qo'llanish qoidalari grammaticalari o'r-ganiladi ).	3. O'zbek tilida ham, ingliz tilida ham birlik va ko'plik tushunchasi beriladi. Shunday bo'lsa-da, ona tili darsligiga 3-sinf darsligidagi -lar ko'plik qo'shimchasi mavzusi 2-sinf ona tili darsligiga kiritilishi kerak. Chunki barcha so'zlarga ham -lar ko'plik qo'shimchasi qo'shilavermaydi.

4.Gap. (Ushbu bo'limda gap tuzilishi, xabar, so'roq, his-hayajonli gaplar, ularda tinish belgilarinining to'g'ri qo'llashi, gap chegarasini aniqlash, gapda birinchi so'zni bosh harf bilan yozish, gapning asosini aniqlash, gapda so'zlarning bog'lanish grammatikasi o'r-ganiladi.)	4. To be – "bo'lmoq" – "bor bo'lmoq" fe'l. Have (got) – "ega bo'lmoq", "bor" fe'l. (am, is, are; have, has fe'llarining bo'lishli, bo'lishsiz shakllari, ularni so'roq gaplarda qo'llanish grammatikasi o'r-ganiladi.)	4. 2-sinf ona tili darsligida ham, ingliz tilida ham gaplar tuzish o'r-ganiladi, biroq tillardagi gap tuzish grammaticalari ikki xil. Gapning asosi mavzusi o'tilayotganda gapning ega va kesimini aniqlash qoidalari o'r-gatiladi, lekin ega va kesim atamalaridan foydalanilmaydi. Agar 2-sinf ona tili darsligiga bu atamalar kiritilsa, o'quvchilarga ona tilimizda ega gap boshida, kesim gap oxirida kelishini, ingliz tilida esa egadan so'ng kesim kelishini tushuntirish qulayroq bo'ladi.
5. Nutq. Matn. ( Ushbu bo'limda nutq turlari, rasm asosida og'zaki va yozma matn tuzish, reja asosida tayyor matnni qism-larga ajratib yozish, rasmlardan foydalanib, reja asosida hikoya tuzish va sarlavha qo'yish grammatikasi o'r-ganiladi.)	5. Olmoshlar. (Kishilik va egalik olmoshlaringin shaxs-sonda qo'llanishi, ko'rsatish olmoshlari – that is..., this is... dan foydalanish grammatikalar o'r-ganiladi.)	5. 2-sinf ona tili darsligiga kishilik olmoshlari mavzusi od-diy gaplarda qo'llanilish qoidalarini kiritib, III ta shaxsda kesim tarkibida bo'ladigan o'zgarishni o'qituvchi eslatib ketishi kerak.
	6. Oddiy hozirgi zamon fe'l. Can modal fe'l. (I, you, we, they – do, he, she, it – does; can modal fe'l; qila olmoq, qo'ldan kelmoq; mumkin, ruxsat ma'nosida) gapda fe'lning bo'lishli, bo'lishsiz, so'roq shakllarining grammatikalar o'r-ganiladi.	6. 2-sinf ona tili darsligida fe'llar harakat bildiruvchi so'z sifatida berilgan. Ingliz tili darsligida fe'llarning bo'lishli, bo'lishsiz, so'roq shakllari berilgan. Bu mavzularni ikki tilda teng o'rganish uchun 2-sinf ona tili darsligiga ham ish-harakatning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari kiritilishi kerak.
	7. There is, there are (bor) iboralar. ( birlik otlarda there is, ko'plikdagi otlarda there are qo'llanishi grammatikalar o'r-ganiladi.)	7. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanish grammatikasi ikki tilda ham o'r-ganiladi. Ona tili darsligiga birlik va ko'plik atamasi kiritilishi kerak.
	8. Gerund. (Otlashgan fe'llar). (Gerundiy fe'lining (-ash, -ish) qo'shimchasi, bu fe'lning yasalish shakllari grammatikasi o'r-ganiladi.)	8. 2-sinf ona tili darsligida fe'llar harakatni bildiruvchi so'zlar sifatida oddiy gaplar tarkibida o'r-ganiladi. Fe'lning yasalishi o'tilmaydi.
	9. Sonlar. (Sonlarning harflarda ifodalaniishi, “.” ishlatilish grammatikasi o'r-ganiladi.)	9. Sonlar mavzusi ikki tilda ham o'r-ganiladi, lekin ona tili darsligiga sonlarning yozilish qoidalari kiritilishi kerak.
	10. Predloglar. When? (qachon?), where? (qayerda?) so'roqlari, at, in, on predloglarining qo'llanish grammatikasi o'r-ganiladi.	10. 1-2-sinf ona tili darsligiga joy nomlarini bildiruvchi so'zlarga qayer? so'rog'ini berish qoidasi kiritilishi kerak.

### 3-sinf darsligi uchun jadval

Ona tili darsligida berilgan mavzular	Ingliz tili darsligida berilgan mavzular	Fikr va mulohazalar
1. 2-sinfda o'tilgan mavzularni takrorlash. (nutq. gap. so'z, tovushlar va harflar. Bo'g'in, alifbo, tutuq belgisi. Sh, ch, ng harf birikmalar. Jarangli, jarangsiz undoshlar. Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlar.)	1. 2-sinfda o'tilgan mavzularni takrorlash. (Artikllar, otlar birlik va ko'plikda qo'llanishi. Kishilik va egalik olmoshlari. Gerundiy fe'lining yasalishi shakllari.)	1. Agar 1-2-sinflar darsligiga otlardagi birlik, ko'plik tushunchalari, kishilik olmoshlari mavzulari kiritilsa, o'tilgan mavzularni takrorlash davrida mashqlarda turli topshiriqlar berish kerak.
2. Gap. (Gap maqsadiga ko'ra, turlari darak, so'roq, buyruq, his-hayajon gap)	2. Fe'l. (To be fe'li hozirgi zamonda. Can modal fe'li. Have (got) fe'li. Fe'llarning bo'lishli, bo'lishsiz, so'roq shakllari.)	2. Agar 1-2-sinflarda gapning bo'lishli, bo'lishsiz shakllari mavzusi kiritilsa, 3-sinfda gapning maqsadiga ko'ra turi o'rganilayotganda, fe'llarning bo'lishli, bo'lishsiz shakllarini ham mustahkamlashga doir mashqlar berilishi mumkin.
3. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar. (Ega va kesim.) Ikkinchidagi darajali bo'laklar. Gapda so'zlarning bog'lanishi. Ularni tegishlicha belgilash o'rganiladi.)	3. Oddiy hozirgi zamonda. (Oddiy hozirgi zamonda darak gap, so'roq gap, inkor gapning yasalishi grammatikasi.)	3. Ingliz tili darsligiga gap bo'laklarini, ega va kesimni aniqlash mahsulotlari kiritilishi kerak. Shunda o'quvchilar ikki til grammatikasidagi farqni yanada chuqurroq tushunib, ingliz tili didaktik o'yinlarida o'qituvchidan ko'ra faolroq ishtirok etadi.
4. So'z tarkibi. (O'zak va o'zakdosh so'zlar. Qo'shimchalarini aniqlash. So'z yasovchi -chi, -la, -li, -kor, -dosh, -siz qo'shimchalar. So'zlarni o'zaro bog'lovchi -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalar.)	4. Ko'rsatish olmoshlari. (This, that, these, those olmoshlarining birlik va ko'plikda, uzoq va yaqindagi narsalar uchun qo'llanish grammatikasi.)	4. O'quvchilar ingliz tili darsligida o'rganilayotgan kishilik va egalik olmoshlarini o'zlashtirishlari mumkin, lekin ko'rsatish olmoshlari ularni chalg'itadi. Shuning uchun ko'rsatish olmoshlari mavzusini darslikdan chiqarib tashlash kerak.
5. So'z turkumlari. Ot. (Ot so'zlar va so'roqlari. Otlarda birlik va ko'plik. -lar qo'shimchasi. Ot yasovchi -chi, -kor, -dosh, -zor, -loq qo'shimchalar. Atoqli otlarda bosh harf. Otning ma'no turlari.)	5. There is, there are iboralari. (There is birlikdagi biror narsaning, there are ko'plikdagi biror narsaning borligini aytishda ishlatalidigan til qurilmalari grammatikasi.)	5. Agar otlardagi birlik ko'plik, -lar qo'shimchasi 1-2-sinflarda o'rganilsa, 3-sinfda bu mavzular murakkab gaplar tarkibida yoki she'r, maqol, topish-moqlar tarkibida o'rganilishi mumkin. Ot yasovchi qo'shimchalar 4-sinf darsligiga olinishi kerak.
6. Sifat. (Sifat so'zlar. So'roqlar. Gapda bog'lanishi. O'z va ko'chma, ma'nodosh, qarama-qarshi ma'nonli sifatlar. Sifat yasovchi -li, -siz, -dor. qo'shimchalar.)	6. Fe'lning "-ing" shakllari. (Fe'llarga "-ing" qo'shilganda grammatik qoidalar.) Sonlar (1 dan 31 gacha bo'lgan sonlarning yozilishi grammatikasi.)	6. Ingliz tili darsligida ko'proq olmoshlari va fe'lllar grammatikasiga e'tibor qaratilgan. Ingliz tili darsligiga sifat so'zlar, ayniqsa, shaxs belgisini bildiruvchi sifat so'zlar kiritilishi kerak. Sifat yasovchi qo'shimchalar 4-sinf dasrligiga, sifat ma'no turlari 3-sinf darsligiga kiritilishi kerak.

7. Son. (Son so'zlar va so'roqlar. Sanoq sonlar. Tartib sonlar. -nchi, -inchi qo'shimchalar. Sonlarning yozilishi. Sonlarning gapdag'i vazifasi.)	7. Predloglar. (Payt predloglari at, in, on; O'rin-joy predloglari in, on, at, under, on the right, on the left, between, opposite, next to ning qo'llanishi grammatikasi. (By) va (on) predloglari.)	7. 3-sinf ona tili darsligida sonlar mavzusini o'tilayotganda uch, to'rt xonalni sonlarni so'z bilan yozish mashqlarda berilishi kerak. Chunki bir, ikki xonalni sonlarni so'z bilan yozish malakalari 1-sinfdayoq o'rgatiladi.
8. Fe'l. (Fe'l so'zlar va so'roqlari. Ma'nosi yaqin va qarama-qarshi bo'lgan fe'l-lar. Harakatning 3 xil paytda bajarilishi. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar. Fe'l yasovchi -la, -illa, -ulla qo'shimchalar.)	8. Buyruq gaplar. (Bo'lishli buyruq gap, inkor buyruq gaplarning yasalishi grammatikasi.)	8. Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari quyidagi sinflarda, 3-sinfda esa fe'l zamонлари о'ргатилса bo'ladi. Chunki fe'l zamонлари ingliz darslarida qisman o'rganilmoqda. Fe'l yasovchi qo'shimchalar mavzusi 4-sinf darsligiga olinishi kerak.
	9. Sifat darajalari. (Sifatlarning oddiy, qiyosiy, orttirma darajalarining yasalishi grammatikasi.)	9. Ingliz tili darsligidan sifat darajalari mavzusini chiqarib tashlash lozim. Uning o'rnidagi sifatning ma'no turlarini o'rgatish kerak.
	10. Hozirgi davomli zamon fe'l. ( Hozirgi davomli zamon fe'lining shaxs – sonda va bo'lishli bo'lishsiz shakllarining yasalishi shakllari.)	10. Ingliz tilidagi hozirgi davomli zamon fe'lining mavzusini olib tashlash kerak. Chunki bu mavzu bola yoshiga mos emas.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'lif-tarbiya xususida so'z yuritar ekan, "Shuni unutmasligimiz kerakki, ke-lajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lif va tarbiya olishlariga bog'liq", deb ta'kidlaydi. Yurtimizning qayerida bo'lmasin, ta'lif olayotgan har bir o'quvchi uchun yoshiga mos darsliklar ishlab chiqishda, ularni yanada takomillashtirishda ustoz va murabbiylarning fikr-mulohazalarining ahamiyati katta. Takomillashtirilgan bunday darsliklardan o'quvchilar bilim olishi uchun bir muncha qulayliklar yaratilgan bo'lar edi. Chunki bugungi barcha sa'y-harakatlarimiz farzandlarimizning kelajagi uchun poydevordir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Umumiyo'tta ta'lif maktablarining 1-2-3-4-sinflari uchun ona tili darsliklari. – T., 2014.
3. Umumiyo'tta ta'lif maktablarining 1-2-3-sinflari uchun ingliz tili darsliklari. – T., 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'r-ganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qarori.

Anvar HAYITOV,  
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

## BOSHLAG'ICH SINF O'QITUVCHISINING SHAXSIY IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

### Annotation

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisinin shaxsiy ijodiy qobiliyatini shakllantirish haqidagi fikr yuritilgan. Shuningdek, bola shaxsini tarbiyalash uchun kerak bo'ladigan ijodiy qibiliyatni rivojlanish bo'yicha qator tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Pedagogik qobiliyat, ijodiy qobiliyat, evristik ijodkorlik, kreativ ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodiy fikrlash.

В данной статье речь идет о формировании личных творческих способностей учеников начальных классов. Даны рекомендации по развитию творческих способностей учащихся.

**Ключевые слова.** Педагогические способности, творческая способность, эвристическое творение, креативное творение, творческая деятельность, творческое мышление.

This article is devoted to personal creative skills of primary grade pupils. Also there given recommendation on developing creative abilities of pupils.

**Key words.** Pedagogical ability, creative ability creativeness, evristic creative works, creative activity, creative idea.

**O**'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturda boshlang'ich ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining turi (pog'onasi) ekanligi qayd etib o'tilgan. Shuningdek, dasturda shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi ekanligi ta'kidlangan hamda asosiy e'tibor kadrlarni har tomonlama mukammal, bilimli, qobiliyatli, irodali va o'z kasbining mutaxassisi bo'lishi uchun bir qancha ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va ular hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Pedagogik qobiliyatning yuzaga kelishida boshlang'ich sinf o'qituvchisidagi nafaqat kasbiy bilimlarning mavjudligi bilan kafolatlanadi, balki unda ijodkorlik qobiliyatiga bo'lgan ishtiyoq, layoqat va intellekt ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, eng asosiysi har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbi va fanini surʼat qilishi, qadrlashi hamda o'z pedagogik faoliyatiga nisbatan qiziqishlari juda katta ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi o'z kasbi va faniga qiziqmasa, bunday o'qituvchida hech qanday pedagogik qobiliyatlar rivojlanmaydi, bu holat amalga oshirilganda ham juda qiyin kechadi. Shunday ekan, unda nafaqat ijodkorlik qobiliyatini, balki pedagogik qobiliyatlarning boshqa turlarini rivojlanish uchun o'qituvchi o'z kasbiga nis-

---

batan hurmatda bo'lishi va unga qiziqishi shart. O'z kasbiga qiziqqandan so'ng esa unda o'z-o'zidan ijodiy faoliyatlar rivojlanadi, ya'ni ijodkorlik qobiliyati vujudga keladi. Ular pedagogik faoliyatning samarali amalga oshirishda o'z faniga ijodkorona yondashishga va shu yondashish natijasini dars jarayonida o'quvchilarning har tomonlama bilimlarini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Ijod va ijodkorlik murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchi ijodiy faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Chunki bular o'qituvchining fikrlashi, dunyoqarashi, mustaqil va erkin faoliyat ko'rsatishi, xotirasi, diqqati, ilmiy tafakkuri va irodasi bilan chambarchas bog'langandir. Bu esa o'qituvchidan juda katta matonat va mehnatni talab qiladi.

Quyida ijodga taalluqli bir necha tushunchalarga to'xtalib o'tamiz:

**Ijod** – insонning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlар yaratish faoliyati. Unda insон tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi.

Ijod dastlab insон tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasi dan izlanishlar olib boriladi va shu tarzda ijodiy faoliyat davom etadi.

**Ijodiyot** – ijod etuvchi, yaratuvchi, bunyodga, vujudga keltiruvchi.

**Ijodiy qobiliyatlar** – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligni tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatları, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari va h.k.) qobiliyatlaridir.

**Ijodkorlik** – bu avvalo, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zlashtirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir. Bu tushunchalar o'qituvchi egalashi lozim bo'lgan va o'z ijodiy faoliyatida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tushunchalar hisoblanadi.

Adabiyotlarda pedagogik qobiliyatlar sirasida aynan, ijodkorlik qobiliyati to'g'risida bir qancha akademik olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tgan. Jumladan, akademik X.A.To'raqulov quyidagi takliflarni bildirib o'tadi.

O'qituvchidagi shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda umumpedagogik qibiliyatlar assosiy poydevor bo'llib xizmat qiladi. O'qituvchida bu umumpedagogik qibiliyatlarning mavjudligini tekshirishda quyidagi qobiliyat qirralariga ahamiyat berish lozim:

- didaktik qobiliyat;
- akademik qobiliyat;
- tashkilotchilik qobiliyat;
- gnostik qobiliyat;
- perceptiv qobiliyat;
- kreativ qobiliyat;
- nutqiy malakalar;
- tadqiqotchilik qobiliyat;
- istiqbolni ko'ra bilish (pedagogik tasavvur, proqnoz) qobiliyati;
- diqqatni to'g'ri taqsimlay olish qobiliyati;
- o'z ijodi natijalarini pedagogik faoliyatda joriy qilishdagi pedagogik samaradorliklarni aniqlash mezonlaridan samarali foydalanish qobiliyati va shu kabilar.

O’qituvchi ijodiy faoliyatni bevosita uning shaxsiy ijodiy rejasiga bog’liq bo’lib, u quyidagi manbalarga tayanilishi lozim:

- ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy, pedagogik, psixologik boshqa uslubiy manba va adabiyotlarga;
- mavzuga taalluqli ilmiy-tadqiqot ishlari, natijalari va ularning ta’limni rivojlantirishdagi pedagogik samaralariga;
- axborot va axborot texnologoiyalariga, shuningdek, Internet xizmatidan foydalaniib, ta’limni texnologiyalashtirishga;
- mavzuga mos xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiylarda ko’tarilayotgan dolzarb muammolar yechimiga;
- mavzuga mos davra suhbatli, ilmiy-uslubiy seminarlar faoliyatiga.

Bu qayd etilganlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, har qanday o'qituvchi, avvalo, ijodkor bo'lishi kerak, ayniqsa, uning shaxsiy ijodiy faoliyatni bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar sifat darajasini yanada yuqori ko'tarishga muhim asos bo'ladi.

Yuqorida o'qituvchi amalga oshirishi mumkin bo'lgan qobiliyat turlari va izlanishlar olib borishi mumkin bo'lgan manbalardan foydalangandan so'ng, ijod o'zining rivojlantiruvchi funksiyasini amalga oshiradi.

Ijodning rivojlantiruvchi funksiyasi – bu ta'lim-tarbiya jarayonini o'zaro uzviy bog'lab olib borish uchun xizmat qiladi va shaxsning intellektual (texnik-texnologik fikrashi va tasavvuri, xotirasi), sezgirlik va o'z xohishi bilan intilish kabi jihatlariga erishganlik darajalarini o'z ichiga oladi. Shu ma'noda fandagi hozirgi zamon ishlab chiqarishning umumiy ilmiy-texnik tomonlarini oshib beruvchi qonun va tushunchalar orasidagi bog'lanishni o'rgatishi ijodkorlik faoliyatni mohiyatini tashkil qiladi. Shu sababli, bu faoliyatni o'qituvchilarini o'z kasbiy faoliyatida samarali mehnat qilishga tayyorlashning muhim vositasidir. Aynan shu ijodkorlik faoliyatining rivojlantiruvchi funksiyasi mohiyatini ifodalaydi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, haqiqiy va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

O'qituvchida mavjud bo'ladigan ijodkorlik bosqichlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarining asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatdi, ya'ni uning asosiy g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyatni, fikrash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarini yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, o'qituvchi shaxsiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda foydalanishi mumkin bo'lgan manbalar har qanday boshlang'ich sinf 110

---

o'qituvchisi ijodiy qobiliyatning quyidagi kategoriyalardan foydalanish tavsija qili-nadi. Bular:

- ijod;
- ijodiy fikrlash;
- ijodiy faoliyat;
- ijodkorlik;
- kasbiy faoliyati davomida duch keladigan muammolarga ijodkorona yonda-shish;
- adabiyotlar ustida to'g'ri va ijodiy ishlay bilish qobiliyati;
- o'z ijodiy faoliyatini nazorat qila bilish va kerakli tuzatishlarni kirita olish qobi-liyati va shu kabilar.

Yuqoridagi mualliflarning fikrini inobatga olgan holda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy qobiliyati "nafaqat o'qituvchi faoliyatini yuksaltira-di, balki bola shaxsini tarbiyalashda va bilim berishda yuqori natijalarga erishishning muhim omili " sifatida e'tirof etish mumkin.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, pedagogik faoliyatda o'qituvchining o'z kasbini qadrlashi, hurmat qilishi va qiziqishi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga sa-bab bo'ladi va bu quyidagi ijobjiy natijalarga olib keladi:

- ta'liming sifat samaradorligi oshadi;
- o'qituvchida ijodiy qobiliyat yanada takomillashadi;
- bu qobiliyat orqali ilg'or g'oyalar hamda yangiliklar yaratiladi va ta'lrim jarayo-niga tatbiq etiladi.

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan muammoning asl mohiyati va tushunchalari rivojlanmoqda va pedagogik qobiliyat bilan bog'liq bo'lgan omillar (xususiyatlar, ijodiy qobiliyatlar, tavsiflovchi belgilari) hozirgi kungacha dolzarbligicha qolmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol av-lod – O'zbekiston taroqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. To'raqulov X.A., Hasanboyev J.J., Usmonov N.O'. va b. Ilmiy tadqiqod meto-dologiyasi. – T.: Fan tehnologiya, 2011. 55-56-b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 58-59-b.
4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod moliya, 2011, 54-b.

**Hazrat JABBOROV,**

O’zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasи  
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## SHAXSLARDA MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

### **Annotation**

Maqolada o’quvchilarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, mafkuraviy kurashlar, mafkuraviy tahidilar, globallashuv, ommaviy madaniyat ko’rinishlari, inson ongini zaharlovchi mafkuralar va unga qarshi shaxslarda shakllanishi lozim bo’lgan mafkuraviy immunitetning psixologik mexanizmlari (o’zlikni anglash, milliy iftixor, milliy g’urur, milliy qiyofa, milliy xarakter, insonparvarlik g’oyalari, bунyodkor g’oyalalar) psixologik jihatdan tadqiq qilingan.

**Kalit so’zlar.** Mafkuraviy immunitet, milliy mafkura, psixologik mexanizm, milliy istiqlol g’oyasi, ijtimoiy hodisalar, ijtimoiy ong.

В статье раскрыты психологические механизмы формирования идеологического иммунитета учащихся общеобразовательных школ. Также исследованы в психологическом плане такие вопросы, как идеологические противоборства, идеологические угрозы, глобализация, виды массовой культуры, идеи, направленные на отравление сознания человека и психологические механизмы формирования идеологического иммунитета (познание самого себя, национальная гордость, национальное самосознание, национальный характер, идеи гуманизма и созидания).

**Ключевые слова.** Идеологический иммунитет, национальная идеология, психологический механизм, идея национальной независимости, социальные ситуации, общественное сознание.

This article considers psychological mechanisms of forming ideological immunities (in the example of pupil). This research work mostly represents psychological sites of ideological conflicts, threats, globalization, different forms of mass culture, threats and ideological immunities and mechanisms (self-consciousness, national proud, national image, character, humanitarian ideas) against them.

**Key words.** Ideological immunity, national ideology, psychological mechanism, idea of national independence social event, social consciousness.

**B**ugun jahon siyosiy muhitida mafkuraviy tahidilar va kurashlar tobora avj olib borayotgan bir davrda shaxslarda (ayniqsa, maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi, o’smirlik) barqaror “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish yo’llari juda muhim masala sifatida qaralmoqda. Zero, har bir insonning shakllanishida, o’zligini anlashda, o’zligini qaror toptirishda hamda davlatning rivojlanishida bунyodkor g’oya va mafkuralarning o’rni beqiyosdir.

Fuqarolarning yurtimizda va uning tashqarisida sodir bo’layotgan ijtimoiy hodisalariga, yakka voqelikka, shaxslararo va millatlararo muomala xususiyatiga, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga nisbatan munosabati ijtimoiy makro (katta) va mikro (kichik) muhitning harakatlantiruvchi kuchini o’zida mujassamlashtiradi.

---

Yosh avlodni mafkuraviy tafakkurini oshirish uchun umumta'lim muassasalarda "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darslari o'qitilmoqda. Biz tadqiqotimiz davomida shunga amin bo'ldikki, hozirgi kunda maktab ta'llimida psixologiya (shaxsning o'zligini anglashga va to'laqonli o'zligini qaror toptirishga yo'naltirilgan) fanlari mavjud emas, vaholanki, psixologiya darslari matab yoshidagi o'quvchilar ongiga milliy istiqlol mafkurasini singdirishimizda yana bir qo'shimcha kuch bo'lar edi.

"Mafkuraviy immunitet – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, jymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi", deb ta'rif beriladi falsafiy qomusiy lug'atda. Mafkuraviy immunitet, o'z navbatida, shaxsni to'g'ri yo'ldan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib kirib, keyin pushaymon bo'lislardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo'linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Buni o'z vaqtida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov: "Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur" ekankigini alohida ta'kidlaganlar. Shu bois shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lmos'i kerak. Yuqoridagilarni inobatga olib, tadqiqodimiz maqsadini shakllantirdik:

- shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlariga bog'liq omillarni o'rganish;
- shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishida psixologik bilimlar, ko'nikma, malaqa va motivlarning rolini aniqlash;
- shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari bilan bog'liq empirik ma'lumotlar to'plash va uning natijalarini tegishli psixologik mezonlar asosida tahlil qilish;
- shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlariga ta-alluqli konsepsiya ishlab chiqish.

Tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqib, ishning vazifalari shakllandi. Ular quyidagilar:

- ta'lim tizimida mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan fanlar tuzilmasi holatini aniqlash;
- shaxslarda mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi psixologik omillarni tahlil qilish;
- barcha soha vakillarida mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi psixologik modelni ishlab chiqish va uni amaliyatga tatbiq qilish.

Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlar tarkibida milliy mafkuraning mustaqilligi, mustahkamligi, barqarorligi, qudratiligi mamlakatimiz fuqarosi istagi, intilishi, faoliyat rejasi, xulq odobi, yaqqol rejasi va vazifasi bilan bevosita uyg'unlashuviga bog'liqdir.

Insонning ijtimoiy hodisalarga, holatlarga, vogelikka nisbatan munosabatining psixologik mohiyati uning ongli, faol, yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy shartlangan shaxsiy tajribasining tizimiga asoslangan muvaqqat aloqalarning ham obyektiv (tabiiy), ham subyektiv (shaxslararo munosabatga oid) jabhalarining majmuasidan iboratligidadir.

Shaxslarning mafkuraviy immunitetini hayotga, insonlarga, davlat rivojiga nisbatan munosabat bildirish shakllarini quyidagicha psixologik ko'rinishlarga ajratdik:

- aqliy (ratsional: fikrlash, ijodiy izlanish, anglash, tushunish);
- emotsiyonal (hissiyotga berilish, yuksak his-tuyg'ular zamirida);
- onglilik (ongostililik, ongsizlik va o'ta onglilik);
- obyektiv (tabiiy sharoitlar, irsiy belgilar, tug'ma mayllar);
- subyektiv (hayot davomida shakllangan ichki shaxsiy fazilatlar negizida);
- umumiyl (xalq, omma, millat, elat va millatlararo birlik);
- xususiy (yakka shaxs tarzida).

Hodisa va voqeliklarning xalq tomonidan baholanishi va berilgan bahoning xalqchiligi yoki uning his-tuyg'ulari, emotsiyonal kechinmalar tazyiqi ostida amalga oshirilganligi kayfiyat, shijoat, asabiylashishi (affekt) zo'riqish, tanglik (stress) jarayonlarida yuzaga keladi. Ijtimoiy hodisalar bilan g'oyalar, mafkuralar o'tasidagi jarayonlarning o'zaro muvofiqligi, mutanosibligi, mosligi yoki ularning bir-biriga nisbatan zidligi, qarama-qarshiliagi, nizoli, mojaroli xususiyatga ega ekanligi ommaviy baholashning asosiy ko'rsatkichi (mezoni) vazifasini o'taydi. Mazkur mafkura va baholashning zamirida har xil xususiyatlari ovozalar, mish-mishlar, vasvasalar, parokandaliklar tug'ilishi va keng ko'lamda tarqalishi mumkin.

Ijtimoiy hodisalar va holatlarni baholash yakka shaxs, guruhi, jamoa tomonidan taqlid (imitatsiya), yuqtirish (yuqish), ishontirish, ta'sir o'tkazish kabi vositalar orqali ijtimoiy turmushda amalga oshadi.

Insonning biror bir holatga yoki narsaga taqlid qilishi ixtiyoriy tarzda hosil bo'lsa, ommaviy yuqish esa ixtiyorsiz ravishda vujudga keladi. Tabiatda yoki jamiyatda sodir bo'lgan voqelik yuzasidan dalillar keltirish, bildirilgan fikrni mantiqiy shakllar yordamida asoslash tufayli inson shu narsaga ishontiriladi, buning natijasida fikrlarda, mafkuralarda umumiyl yuz beradi.

Yakka shaxsga yoki muayyan guruhga ta'sir o'tkazishdan iborat vosita orqali hodisalarga baho berishda rag'batlantirish, jazolash, qo'rqiitish, homiylik qilish, vasiylik, va'da berish yo'llaridan foydalaniladi.

Yuzaga kelgan, sodir bo'lgan hodisani ommaviy tarzda baholash jamoa a'zolarining aql-zakovatiga, madaniy va mentalitet darajasiga, mentalitet ko'rsatkichiga, qarashlariiga, e'tiqodlariga (maslagiga), fikrlashning mustaqilligiga, ijodiyligiga, fikrlarning chuqurligi, teranligi va tezligiga, favqulorra yuzaga kelgan yaqqol sharoitga bog'liqdir.

Ijtimoiy munosabatlar omma (fuqarolar) orasidagi **stereotiplar** (ajodolar o'gitlari, xulq-atvor meroslari)ga, **assotsatsiyalar** (hodisalarning o'xshashligi, yondoshligi, qarama-qarshiliagi)ga, **identifikasiya** (kattalarning ijobji sifatlarini o'zlashtirish, gohida il-latlarini ham egallash)ga, **refleksiya** (kelajakda amalga oshirish rejalashtirilgan ezgu niyatni aniq baholash, oqilona nazorat qilish, bashorat etish)ga, **antitsipasiya** (istiqbol rejasing modelini yaratish)ga asoslanadi.

Fuqarolarning ijtimoiy ongida eski mafkura qoldirgan izlarni, sarqitlarni batamom siqib chiqarish uchun quyidagi holatlarning xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq deb o'yaymiz:

- eski o'rnashib qolgan g'oyalar bilan yangi g'oyalar o'tasidagi o'zaro aloqalar hamda munosabatlar tizimi (meros, ichki kurash, ziddiyat, nizo, mojarol va boshqalar);
- ijtimoiy ong bilan milliy g'oyalar o'tasidagi o'zaro munosabatlar (an'analar, axloq-odob, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar, milliy qiyofa, milliy tuyg'u, milliy xarakter, milliy ta'b, milliy til, milliy kuy, milliy musiqa va h.k.);
- hozirgi zamon kishisining his-tuyg'usi, kayfiyat, e'tiqodi, motivatsiyasi, intilishi, talabgorligi hamda qadriyatlar, turmush tarzi, odatlar, xulq-atvor va tajriba malakalari o'tasidagi aloqalarni qat'iy ravishda mustahkamlash;

---

– individual va ijtimoiy ongga milliy g'oyalar, qarashlar, e'tiqodlar, ommaviy faollik harakatlari ta'sirchanligini singdirish;

– ma'naviyat bilan ijodiyot, motivlar bilan qadriyatlar uyg'unligini kuchaytirish;

– ijtimoiy psixologiyaning fenomenlaridan (imitatsiya, stereotipizatsiya, identifikasiya, atraktsiya, yuqish, suggesteziya, antitsipatsiya, ommaviy xulq kabilaridan) unumli foydalanish.

Shunday qilib, shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarida vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulariga asoslangan, ajdodlarimizning buyuk merosidan, ta'limotidan kelib chiquvchi milliy mafkura davlatimiz uchun ijtimoiy zaruriyatdir, ma'naviy mustaqilligimiz ne'mati va mahsulidir. Milliy mafkuraning psixologik tarkibiy qismlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

– mustaqillik his-tuyg'usi va uni fuqarolar tomonidan haqqoniy ravishda idrok etish;

– fidoyilik, jasorat, mehnatsevarlik negizida quriladigan umumiyo safarbarlik;

– ko'p millatli O'zbekiston xalqining vatanparvarligi;

– milliy ma'naviyatni egallah, kelajakni rivojlantirish, komil insonlikka erishish uchun betinim izlanish, axloqiy, aqliy zaxiralarni ro'yobga chiqarish;

– milliy mafkurani fuqarolar ongiga xalqchil va tushunarli qilib singdirish;

– milliy o'zlikni anglash, vatanga, qadriyatlarga, ajdodlarimiz xotirasiga, ona diyorimizning ko'p ming yillik buyuk tarixiy o'tmishiga sadoqatini shakllantirish va barqarorlashtirish;

– shaxslarda o'zligini to'laqonli anglagan va to'g'ri qaror toptirgan holda ijtimoiy me'yorlarga hurmat va rioya qilishi, vatan, jamiyat oldidagi ijtimoiy rolini, burchini, mas'u liyatini to'laqonli anglash bilan bog'liq psixologik omillar.

Bizningcha, mafkuraviy immunitet shakllanishida axloq va odob malakalarini egal-  
lash, ota-onha va kattalarni hurmat qilish, samimiylilik, inoqlik, qadr-qimmat, viqor, vijdo-  
niylik, iffatlilik, o'zaro yordam singari insoniy sifatlarning barqarorlashuvi juda ahamiyat-  
lidir. Zero, xalqimizning his-tuyg'usidagi tug'ishganlariga nisbatan iliq munosabat, qarin-  
dosh-urug'chilik rishtalari milliy ruhiyatimizni aks ettiradi.

Yuqorida fikrlarimizni umumlashtirib xulosa qilganda, mamlakatimiz o'z xalqi tan-  
lagan ochiq erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat qu-  
rish yo'lini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Vatanimizni yanada mustahkamlash  
maqsadida mafkuraviy immunitetni tarkibiy qismlari hisoblangan milliy g'urur, milliy o'z-  
likni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash doimiy faoliyatimizga aylanishi kerak. Millatning  
milliy xarakterini, mentalitet xususiyatlarini, etnopsixologik jihatlari kabi sifatlarni barqa-  
rор va to'laqonli shakllanishiga hamda eng asosiysi milliy istiqlol mafkurasini yoshlar  
ongiga singdirish barcha soha vakillarini birday oliv va muqaddas burchiga aylanmog'i  
zarur. Shundagina biz shaxslarda mafkuraviy immunitetini kuchli, barqaror va sog'lom  
tizimi shakllanishiga erishgan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 34-b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., 2012. 27-b.
3. Karimova V., Umarov A., Qur'onov M. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. – T.: Yangi asr avlod, 2001. 53-b.
4. Qodirova M. Yoshlar ongida g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish. – T.: Yangi asr avlod, 2002. 25-b.
5. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012. 49-b.

**Madina BADRITDINOVA,**  
Namangan Davlat universiteti o‘qituvchisi

## TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDА TAFAKKUR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o’smirlarning tafakkuriga xos kognitiv uslubning namoyon bo’lishi, uning o’ziga xos jihatlari, va rivojlantirishning psixologik xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so’zlar.** Kognitiv uslub, tafakkur, jarayon, ta’lim, psixologiya, o’smirlik, individual xususiyat.

В этой статье раскрываются особенности мышления подростков, их когнитивной деятельности, определены особенности психологического развития учащихся в процессе обучения.

**Ключевые слова.** Когнитивный стиль, мышление, процесс, психология, обучение, подросток, индивидуальные особенности.

This article highlights special point of youth thinking, their cognitive activity and psychological peculiarities of the cognitive development in the process of educational activity.

**Key words.** Cognitive style, thinking, process, education, psychological, youth, individual peculiarity.

**B**ugungi islohotlar davri o‘qitishning samarali metodlarini yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning yetakchiligini ta’minlashni, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg‘ularini e’tiborga olib, ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’lim sohasiga ham milliy didaktik nuqtayi nazardan yondashib, uni quyidagicha ta’riflagan edilar: “Ta’lim O’zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O’sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo’ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o’tadi”<sup>1</sup>.

Yuqorida fikrlarga tayangan holda, pedagogik jarayondagi ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o‘qitish sifatini tubdan yangilash, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo’lga qo‘yish, o’zaro sog’lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyatga joriy etishimiz zarurdir.

O‘quvchilar tomonidan bilimlarni muvaffaqiyatl o’zlashtirilishi ular tafakkuring tezligi, izchilligi, mazmundorligi, mustaqilligi va boshqa bir qator xususiyatlariiga

<sup>1</sup> Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

bog'liqdir. Shuning uchun ham ta'lif jarayonida o'quvchilarning tafakkuriga xos kognitiv uslubini o'rganish va diagnostika qilish muhim ahamiyat kasb etadi, ularni rivojlantirish esa zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

O'smirlik davridagi bolalarda ta'lif jarayonida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrda o'quvchilar atrof-olamdag'i bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'lib, ilmiy-nazariy bilimlarni egallab olishi, tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyatni rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'la boshlaydi. Umumiy o'rta ta'lif muassasasida o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan o'smir tafakkurining yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11–12 yoshdan boshlab o'smirlarda mantiqiy fikrlash rivojilana boshlaydi. O'smirlar bu yosha kattalar singari keng qamrovli tahsil etishni o'rganadi. Xolodnayaning fikricha, o'smirlar tafakkurning nazariy darajasiga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi, uning intellektual jihatdan rivojlanishini ham belgilab beradi.

O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faoliyatlardan farqlanadi. Bu faoliyot o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarni namoyish etish, shuningdek, ularda atrofdagilar tomonidan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smirning kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladi. O'smirlarning tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi.

O'smirlarda o'quv faoliyatida namoyon bo'ladigan tafakkurga xos bo'lgan uslubni o'rganish maqsadida 3 ta umumiyligi o'rta ta'lif maktabidan jami 92 nafar 15 yoshli o'smirlar ustida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqotda A.A.Alekseyeva va L.A.Gromovalar tomonidan 1993-yilda ishlab chiqilgan "Tafakkur uslubini aniqlash" so'rovnomasidan foydalanildi. O'tkazilgan tadqiqot jarayonida erishilgan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### **"Tafakkurning individual uslubini aniqlash" testi natijalari tahlili**

Tafakkur tiplari	Sintezatorlik	Idealistik	Pragmatlik	Realistik	Analitiklik	Natijalar % hisobida
1-umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarning natijalari (jami 30 nafar o'quvchi)	2.7	21.2	2.9	3.0	5.7	35.5
2-umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarning natijalari (jami 31 nafar o'quvchi)	3.1	15.3	3.2	2.5	6.3	30.4
3-umumiyligi o'rta ta'lif maktabi o'quvchilarning natijalari (jami 31 nafar o'quvchi)	2.9	20	2.6	3.2	5.4	34.1
<b>Umumiyligi % hisobida</b>	<b>8,7%</b>	<b>56,5%</b>	<b>8,7%</b>	<b>8,7%</b>	<b>17,4%</b>	<b>100%</b>

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliga ko'ra, tajribada ishtirok etgan 92 nafar o'quvchilarning 8,7 foizida pragmatiklik tafakkur uslubining ustunligi aniqlanib, mazkur tafakkur uslubiga ega o'smirlar unchalik murakkab bo'lмаган г'oyalarni taklif qilib, asoslab bera oladilar. G'oyasini isbotlash uchun kichik namunalar ko'rsatib, o'zaro fikr almashish, "aqliy hujum", mohirona berilgan savollarni yoqtirishlari bilan ajralib turadilar. Zerikarli, quruq, o'ta jiddiy, hazil-mutoyibadan yiroq suhbatlarni yoqtirmaydilar. Yangilik va tajribalarni yechimini tezroq topishga bo'lgan ishtiyoqi, taktik tafakkur va rejalashtirishga moyilligi borligi bilan xarakterlanadilar.

Tekshiriluvchilarning 17,4 foizida analitik tafakkur uslubi kuchli ekanligi tadqiqotda aniqlanib, analitiklar boshqalarga umumiyoq qoidalar, aniq tasdiqlovchi faktlarni tushuntirishga harakat qiladilar. Hodisalarni to'liq tavsiflab bera olishlari, puxta rejalashtirilgan, ratsional tahlil qilingan masalaning mantiqiy, tahliliy o'rganilganligidan qoniqish hosil qilishlari bilan ajralib turadilar. Mantiqsiz, maqsadsiz juda ham "noan'anaviy", behuda hazil va yumorga ega suhbatlarni yoqtirmaydilar. Analitiklar variantlarni izchil tahlil qilishadi, vaziyatni tahlil qilishda kichik detallarga asoslanishadi.

Tadqiqotda ishtirok etgan o'quvchilarning 8,7 foizida realistik tafakkur uslubi ustunligi aniqlanib, realistlar boshqalarga o'z fikrini taklif qilishlari, ma'lumotlarni sharhlab, vaziyatni to'liq tavsiflab bera olishlari, lo'nda, qisqa va aniq faktlarga asoslangan axborotlardan qoniqish hosil qilishlari bilan ajralib turadilar. Haddan ziyod nazariy ta'sirlantiruvchi, subyektiv, foydasiz "uzundan-uzoq" suhbatlarni yoqtirmaydilar. Zo'riqishli vaziyatlarda o'ta qo'zg'aluvchan. Amaliy jihatdan natijalarini baholashda mutaxassislarining mulohazalariga asoslanadilar.

Natijalar tahliliga ko'ra, o'quvchilarning 8,7 foizida sintezatorlik tafakkur uslubi kuchli darajada ifodalangan bo'lib, mazkur tipga mansub kishilar boshqalarga qarama-qarshi fikrlar, qarashlar va nazariyalarni ifodalashga moyil bo'lib, nazariy, falsafiy, intellektual bahslardan qoniqish hosil qilishi, juda sodda, yuzaki, zerikarli suhbatlarni yoqtirmasligi, zo'riqishli vaziyatlarda hazil mutoyiba qilishi, ko'pincha tashqaridan kutuvchi bo'lib turishi, salbiy analizga moyilligi bilan ajralib turishadi.

Natijalar tahliliga ko'ra, o'smir yoshidagi o'quvchilarning 56,5 foizida idealistik tafakkur ustun bo'lib, ular tashqi tomonidan o'ta e'tiborli, ilhomlantiruvchi, tabassumga moyil, rozilik alomati sifatida boshini tez-tez qimirlatadilar, sheriklar bilan muloqotda verbal qayta aloqalari kuchli; "Sizga shunday tuyulmayaptimi...?", "Menimcha,...", "Siz o'ylamayapsizmi, bu ...?" kabi iboralarni ko'p qo'llashadi. Umidlantiruvchi, biroz o'ziga ishonchsiz, ba'zan xafsasiz bo'lib tuyuladigan nutqqa ega; insonlarning g'am-tashvishlari va his-tuyg'ulari, qadriyatlariga oid fikrlarni aniq ifodalaydilar. Muayyan ma'lumotlar bilan cheklanib qoladigan suhbatlarni yoqtirmaydilar. O'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliga ko'ra, o'smir yoshidagi o'quvchilarda idealistik tafakkur uslubiga ega bo'lganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

O'quv jarayoniga xos tafakkur uslublarini o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida o'zaro aloqalarni aks ettiruvchi statistik metod sifatida Spermenning korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash formulasidan foydalanildi. O'quvchilarning tafakkuridagi idealistik uslubi bilan o'zlashtirishlari o'rtaqidagi korelliyatsion bog'lanish  $p=0,67$  ga teng ekanligi aniqlandi. O'quv faoliyatida namoyon bo'ladigan tafakkurga xos bo'lgan individual uslubni o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning tafakkur uslubi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtaida ijobiya aloqa mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalarining matematik – statistik tahlili bizga o'quv va boshqa

---

faoliyatlarda tafakkurga xos individual xususiyatlarning namoyon bo'lishida o'ziga xoslik mavjudligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda respublikamizning bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tishi munosabati bilan o'smir yoshidagi o'quvchilarda amaliy tafakkur ancha erta rivojlanmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar: tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblilik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar kiradi. Bu sifatlarni bolalarda rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O'smir yoshidagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq, ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishda qo'llash orqali amalgalash mumkin. O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Al-batta, bu ularning temperamentiga ham bog'liq bo'ladi. Barcha o'smirlarni tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularga biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan uni yechishning umumiy qoidalarni o'rgatib borish mumkin. O'smirlilik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsidagi va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

O'quvchilarning tafakkur uslubiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini samarali diagnostika qilishni ta'minlash va ularni rivojlantirish maqsadida pedagoglar, amaliy psixologlar uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir ta'limga muassasasi amaliy psixologlari tomonidan o'quvchilarning bilish jarayonlari, xulq-atvori va o'zaro munosabatlaridagi individual xususiyatlarni diagnostika qilishning psixodiagnostik metodlari bazasini yaratish;
2. O'quv faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish orqali ularning tafakkuriga xos individual xususiyatlarini rivojlantirishga imkoniyat beruvchi vaziyatlarni yaratish;
3. O'quvchilarni mustaqil fikr lashga, kuzatuvchanlikka, atrof-muhitdagi har qanday yangiliklarga qiziqish bilan munosabatda bo'lishga, ijodkorlik va muloqot qilishga o'rgatib borish;
4. Ta'limga muassasalaridagi o'quv mashg'ulotlari sifatini yaxshilash orqali tafakkur uslubiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini rivojlantirishga erishish lozim.

Bu tavsiyalarga amal qilish jismoniy va aqliy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi, barcha xususiyatlariga ko'ra boshqalardan ajralib turuvchi shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – T., 1997-yil 29-avgust.

Solijon NORQO'ZIYEV,  
Namangan viloyati Norin tumani  
44-umumta'lim maktab tarix fani o'qituvchi

## VI SINF O'QUVCHILARIGA TARIX FANIDAN BILIMLARNI SINGDIRISH SOHASIDAGI TAJRIBALAR

### Annotation

Maqolada VI sinf tarix darslarida o'tiladigan muhim dars mavzulari – kishilik jamiyati tarixini davrashtirish tamoyillari, ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarining nomlanishi va sanalarini belgilash, ibtidoiy jamoa tuzumi davrlariga berilgan tasnif-ma'lumotlar kabi mavzular bibliografik ko'satskichlar asosida bayon qilingan. Muallif uzoq yillik o'z tajribalaridan yangicha usulda foydalaniib, o'quvchilar bilimini yanada boyitish borasida o'z qarashlarini aks ettirgan.

**Kalit so'zlar.** Ibtidoiy jamoa davri, mehnat qurollari, olduvay davri, ilk paleolit, mezolit, neolit, sivilizatsiya, tajribalar.

В статье освещены вопросы изучения на уроках истории в 6 классе некоторых тем, в частности: исторические принципы периодизации развития человеческого общества, определение названий и дат первобытно-общинного строя, характеристика эпохи первобытно-общинного строя (на основе библиографических указателей). Используя многолетний опыт, автор предлагает свои новые подходы к обогащению знаний учащихся.

**Ключевые слова.** Эпоха первобытно-общинного строя, орудия труда, ранний палеолит, мезолит, неолит, цивилизация, опыт.

In article issues of studying history lessons in the 6th grade of some subjects in particular are taken up: historical trailers of a periodization of development of human society, definition of names and dates of a primitive-communal system, the characteristic of an era of a primitive-communal system (on the basis of bibliographic indexes). Making use of long-term experience, the author offers the new approaches to enrichment of knowledge of pupils.

**Key words.** Era of a primitive-communal system, instrument of labor, early paleolith, Mesolith, Neolithic, civilization, experiences.

**U**mumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida Vatanimiz va jahon tarixining eng muhim mavzulari "Tarixdan hikoyalar" darsligi asosida o'quvchilarga jonli, qiziqarli, aniq rasm va ko'rgazmalar asosida tushuntirib beriladi. 5-sinfda o'tiladigan tarix darsligi mavzulari kelgusida o'quvchilarning tarix faniga dastlabki qiziqishini uyg'otishga xizmat qiladi.

Maktablarning 6-sinfidan boshlab tarix fanini izchil, tadrijiy, to'la qonli ravishda o'r ganishga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi. Bu jarayon 7-, 8-, 9-sinflarda, kasb-hunar kollejlarida davom ettililadi.

"Qadimgi dunyo tarixi" darsligi mavzularini o'rganish 6-sinf o'quv dasturidan o'rin olgan. O'quvchilarning bilimi, tajribasi va fikrlesh qobiliyati turlicha bo'lgani bois bu davr tarixiy ma'lumotlarini, dars mavzularini puxta o'zlashtirib olishlari qiyinroq kechadi. Taj-

---

ribalardan ma'lumki, bu sinfda aksariyat tarix fani o'qituvchilari muayyan qiyinchilik va muammolarga duch kelib turishadi. Shu bois tarix darslari jarayonini osonlashtirish va takomillashtirish maqsadida mazkur ishga qo'l urdik. O'ylaymizki, bu ta'lif sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixining eng qadimgi va uzoq davom etgan jarayonlarini quyidagi tamo-yillar asosida davrlashtirishga e'tibor berdik:

1. Mehnat qurollari va ularning takomillashtib borishi

2. Odamlarning yashash tarzi va uning o'zgarib borishi (ibtidoiyo'tda, ona urug'i va ota urug'i).

3. Xo'jalik turining o'zgarishi (o'zlashtiruvchi xo'jalik va ishlab chiqaruvchi xo'jalik).

4. Odam aqli va ongining yuksalib borishi (Xomo xabilis, Xoma sapiens)

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarining nomlanishi va sanalarini belgilash tarix darsi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Juda uzoq davom etgan qadimgi tosh davrini shartli ravishda 4 qismga ajratish mumkin. Davrning o'ta uzoq davom etganligini, eng qadimgi odamlarning ko'pchiligi shu davrda topilganligini nazarda tutsak, quyidagi tartibda har bir davr nomlandi va aniq sanasi belgilandi:

1. Ilk paleolit (Miloddan avvalgi 3 mln. yillik – miloddan avvalgi 1 mln. yillik) – Olduvay davri.
2. Ilk paleolit (m.a. 1 mln. yillik – m.a. 100 000 yillik) – Ashell davri.
3. O'rta paleolit (m.a. 100 000 yillik – m.a. 40 000 yillik) – Muste davri.
4. So'nggi paleolit (m.a. 40 000 yillik – m.a. 12 000 yillik) – Orinyak davri, Solyutri davri, Madlen davri.
5. Mezolit (o'rta tosh davri) (m.a. 12 000 yillik – m.a. 7 000 yillik).
6. Neolit (Yangi tosh davri) (m.a. 7 000 yillik – m.a. 4 000 yillik).
7. Eneolit (Mis – tosh davri) (m.a. 4 000 yillik – m.a. 3 000 yillik).
8. Bronza davri (m.a. 3 000 yillik – m.a. 2 000 yillik).
9. Temir davri (m.a. 1 000 yillik).

### **Olduvay davri**

Arxeolog olimlar tomonidan eng qadimgi mehnat qurollari topilgan makonlar haqida juda ko'p qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Xususan, 1959-yilda Amerikalik arxeolog Luis Liki tomonidan sharqiy Afrikada (Tanzaniya)dan Olduvay darasi topilgan. Luis Liki bu yerdan Zinjantrop odamining bosh suyagini, mayda hayvon suyaklarni, to'ng'iz, antilo-pa suyaklarni, dastlabki tosh qurollarini topdi. Zinjantroplar toshni-toshga urib, mehnat quroli yasay olgan va ular bundan 1,5-2,5 million yil avval yashagan dastlabki odam sanaladi.

### **Ashell davri**

Fransiyaning Ashell shahri yaqinidagi Sent Ashell g'oridan shu davrga oid tosh cho'qmor, bir yoki ikki tomoni o'tkir qilingan turli shakldagi chaqmoq toshlardan iborat qurollar topilgan. Bu davr odamlari daryo bo'yilarida ko'l va buloqlar atrofida to'dalashib yashagan, xo'jaligi termachilik, ovchilik bo'lgan. Olovdan foydalangan.

### **Muste davri**

Fransuz arxeologi G. Mortilos Fransiyaning janubiy g'arbidagi Le Muste g'oridan suyak va tosh qurollarni topdi. Gardishsimon Nukleis – uchburchakli tosh parrakchalari yog'och yo'nish, ishlash, kiyim va qurol tayyorlashda ishlatilgan tosh qurollar bo'lgan. Nayzasimon tosh qurollar o'roq, randa, qum tosh yoki ohaktoshdan yasalgan sharlar, keskich asboblar, qirg'ich, pichoq, suyak qurollar mavjud bo'lgan. Bu davr odamlari olovni saqlab qo'yishdan uni ishqalash yo'li bilan hosil qilishga o'tishgan.

### **Orinyak madaniyati**

Fransiyaning yuqori Garonna departamentida Orinyak g'ori nomi bilan atalgan joy mavjud. Orinyak madaniyatida tasviriy san'atning eng qadimgi turi – haykaltaroshlik paydo bo'lgan. Yorma texnika takomillashgan. Odamlar Xoma sapiensga aylangan.

### **Solyutri madaniyati**

Fransiya va shimoliy Ispaniya hududidan Sona va Luara departamentiga qarashli manzil Solyutri nomidan olingan. Miloddan avvalgi XVIII – XV ming yilliklarga oid mada niy yodgorlik sanaladi. Bu davrning asosiy xususiyati chaqmoq toshdan nayza uchining yasalishi edi. Xo'jaligi ovchilik va termachilik bo'lgan.

### **Madlen madaniyati**

Fransiyadagi miloddan avvalgi XV – VIII ming yilliklarga oid bo'lgan madaniy yodgorlik Le Madlen g'oridan tosh keskichlar, suyak va shoxdan yasalgan mehnat qurollari, g'or devorlariga solingan surat, suyak o'ymakorligi asboblari topilgan. Odamlar ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan xo'jalik yuritgan.

Ibtidoi jamoa tuzumini davrlashtirish mehnat quollarini tayyorlash uslubi va xomashyoning farqlanishiga asoslanadi. Bu davrda har qanday rivojlanishga asos bo'ladigan jarayon – bu aql bilan bajariladigan mehnat sanalgan. Chunki mehnat odamni hayvonot dunyosidan ajratib turgan.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, har bir tarixiy davrga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarini, zarur ma'lumot va tushunchalarini yaxlit bir joyga yig'ib, umumlashtirib yozib chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Har bir rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich tadrijiy, tegishli zaruriyat asosida ro'y berganini, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi davrlardan farqi, tafovuti bilan ajralib turishiga keng e'tibor qaratdik. Chunonchi:

#### **I. Poleolit**

(m.a. 3 million yillik – m.a. 1 million yillik)

1. Draupitek, 1858-yil, Avstriya yuqori Taronna hududi, “daraxtda yuruvchi odam”.
2. Avstralopitek, 1920-yil, Janubiy Afrika, janub maymuni.
3. Zinjantrop, 1959-yil, Sharqiy Afrika, Tanzaniya Zinja qishlog'i, Oldivay darasi.
4. Daryo bo'yłari, ko'l va buloqlar yonidagi pana yerlarda to'dalashib yashagan.
5. Uchi o'tkirlangan tosh (chopper), yer kavlagich tayoqcha, so'yil – asosiy mehnat qurolo bo'lgan.
6. Termachilik, ovchilik asosida kun kechirgan.

#### **II. IIk poleolit**

(m.a. 1 mln. yillik – m.a. 100 000 yillik)

1. Pitekotrop, 1890-yil, Yejen Duyubua, Indoneziyaning Yava oroli, maymunsimon odam.
2. Sinantrop, 1927 – 1937-yillar, Pekin shahri, Xitoy odami.
3. Fergantrop, 1985-yil, Farg'ona Selung'ur g'ori, Farg'ona odami.
4. Daryo bo'yłari, ko'l, buloqlar atrofida yashagan.
5. Havo issiq, iliq bo'lgani uchun boshpana, turar-joy va kiyim-kechakka ehtiyoji bo'Imagan.
6. Nutq shakllanmagan. Imo-ishoralar va turli tovushlar asosida o'zaro muloqot qilishgan.
7. Olovdan foydalangan. O'rtacha umri 20-30 yosh bo'lgan.

#### **III. O'rta poleolit**

(Miloddan avvalgi 100 ming yillik – m.a. 40 000 ming yillik)

1. Neandertal odam. 1856-yil Germaniya, Neandertal qishlog'i.
2. Neandertal bola (8-9 yosh), 1938-yil, O'zbekiston Teshiktosh g'ori. Arxeolog Okladnikov, antropolog V.V.Gerasimov.

- 
3. Muzlik davri boshlanib, havo keskin sovib ketgan.
  4. Hayvon terilaridan, jundan kiyim tayyorlab kiyishgan.
  5. Tabiiy olovdan foydalangan, olovni saqlab turishgan.
  6. G'orlarda yashashgan.
  7. Tosh pichoq, keskich, qirg'ich, nayza, tosh va suyak paykonlari yasashgan.
  8. Vafot etgan odamni dafn qilishni boshlashgan.
  9. So'zlashuv – muloqot ehtiyoji tug'ilgan turli so'zlar, imo-ishoralar, tovush, xitob va qichqiriqlardan foydalangan.

#### **IV. So'nggi poleolit**

(m.a. 40 000 yillik – m.a. 12 000 yillik)

1. Kroman'on odami. 1868-yil, Fransiya, Kroman'on g'ori.
2. Go'shtni pishirib yeyish boshlangan, sun'iy olov hosil qilingan.
3. Bu davr odamlarining muhim ixtirosi – turar-joylar qurishgan, yerto'la, chayla, kapalarda yashagan.
4. Ona urug'i (Matriarxat) davri boshlangan. Juft oilalar vujudga kelgan.
5. Yer yuzida odamlar uch irqqa: qora, sariq va oq irqlarga bo'lingan.
6. Ma'naviy madaniyat, til, ong va diniy e'tiqodlar paydo bo'lган.
7. Taqinchoqlar, munchoqlar, uzuklar, bilak uzuklar va tumorlar yasalgan.
8. Suyak garpunlar, qarmoq, sanchiqilar yasab foydalanganlar.
9. Musiqa asboblari, qoyatosh suratlari kashf qilingan.

#### **V. Mezolit (o'rta tosh davri)**

(m.a. 12 000 yillik – m.a. 7 000 yillik)

1. O'q-yoy, (kamon) kashf qilindi.
2. Ov – asosiy hayot manbaiga aylandi. Yakka ovning roli oshdi.
3. Muzlik davri tamom bo'ldi. Havo harorati isiy boshladи.
4. Hayvon bolalari qo'lga o'rgatildi. It birinchi uy hayvoni bo'ldi.
5. Ibtidoiy chorvachilik va ibtidoiy dehqonchilik yuzaga keldi.
6. Yog'och so'qa, uchi o'tkir tayoqcha bilan yerga ishlov berish, yog'och va suyak soplari tosh o'roqlar, yorg'uchdqda bug'doyni un qilish paydo bo'ldi.
7. Petroglif – toshga o'yib tushirilgan rasmlar vujudga keldi.

#### **VI. Neolit (yangi tosh davri)**

(m.a. 7 000 yillik – m.a. 4 000 yillik)

1. Toshga ishlov beruvchi – silliqlovchi, pardozlovchi, arralovchi, parmalovchi, burg'ulovchi yangi tosh quollar, tosh boltalar, tosh teshalar, daraxt tanasini o'yib qayiq yasash paydo bo'ldi.
2. Dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, zig'irpoya va jundan gazlama to'qish, kiyim tikish, hunarmandchilik turlari vujudga keldi.
3. Urug' jamoalari o'troq hayotga o'ta boshladи. Guvalali, paxsa devorli uylar qurildi.
4. Urug' va qabilalar uzoq yurtlarga tarqalib, turli tillarda gaplashadigan xalqlarga aylandi.
5. Endilikkda dehqon va chorvador istemol qilishi zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zi yetishtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu tom ma'noda "Neolit inqilobi" edi.
6. Odamning o'rtacha umr ko'rishi 35-40 yoshga yetdi.

#### **VII. Eneolit (mis-tosh) davri**

(m.a. 4 000 yillik – m.a. 3 000 yillik)

1. Mis ma'dani topildi, misdan mehnat qurollari, taqinchoqlar, bezakli buyumlar, zeb-ziynatlar yasaldi.
2. Hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar o'tasida mehnat taqsimoti ro'y berdi.
3. Kulollar, to'quvchilar o'z buyumlariga ziroatchi qo'shnilaridan, chorvadorlardan don, sabzavot, teri, jun ayriboshlash odati paydo bo'ldi.

4. Ho'kiz, ot, eshaklar qo'shilgan omoch bilan yer haydash, ekinzorlarni kengaytiresh, hosildorlikni oshirish imkonini topildi.

5. Qishloqlarda jamoalar yirik patriarchal (ota boshqaruvidagi) oilalarga bo'lindi. Yer jamoa mulkidan chiqib, ayrim oilalar mulkiga aylandi. Mulkiy tabaqlanish va tengsizlik paydo bo'ldi.

6. Qon-qarindoshlikka asoslangan urug' va qabilalar o'rniga hududiy qo'shnichilik jamoalari paydo bo'ldi. Bu jamoalarga harbiy yo'boshchilarni saylash odati shakllandi.

7. Manzilgohlarni himoya devorlari bilan o'rabi olish, guvala, xom g'isht va paxsadan ko'p xonali uylar qurish rasm bo'ldi.

8. Harbiy yo'boshchilar, jangchilar zodagon kishilar sifatida ulug'landi. Urushlarda asir olingen kishilar qabila boshliqlarining qullariga aylantirildi.

### VIII. Bronza davri

(m.a. 3 000 yillik – m.a. 2 000 yillik)

1. Mis, rux va qalay eritilib, ularning qo'shilmasidan bronza kashf qilindi.

2. Bronzadan yasalgan mehnat qurollari – pichoq, boltalar, teshalar, o'roqlar, keskir va chidamli bo'lgan qurollardan keng foydalanilgan.

3. Yerga ishlov berish osonlashdi, ekin maydonlari ko'paydi, sug'orma dehqonchilik paydo bo'ldi. Ortiqcha mahsulot vujudga keldi.

4. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu birinchi mehnat taqsimoti edi.

5. Ot, eshak, ho'kiz va tuyalardan transport vositasi sifatida foydalanishga o'tildi.

6. Kulolchilik charxi, g'iladirak, arava, qo'l tegirmoni kashf qilindi.

7. Xom g'ishtdan, paxsadan katta inshootlar qurildi.

8. Qarindoshlik otaga qarab belgilanadigan bo'ldi, oilada, jamiyatda erkaklarning mavqeyi oshib, ota urug'i gullab yashnadi.

### IX. Temir davri

(m.a. 1 000 yillik)

1. Temir metali topildi. Temirdan dastlab zeb-ziynat buyumlari, keyinchalik mehnat qurollari va yaroq-aslahalar yasaldi. Temirdan birinchi bo'lib old Osiyodagi xettlar (m.a. XIV-XII asrda) foydalangan.

2. Temirchilik kasbi, temirchi degan hunarmand paydo bo'ldi.

3. Ekin maydonlari kengaydi, koriz – yer osti kanallari kashf qilindi. Mehnat unum-dorligi keskin oshdi.

4. Hunarmandlar o'z sohalari bo'yicha ixtisoslashdi. Hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu ikkinchi mehnat taqsimoti edi.

5. Aholining to'rt guruhi: zodagonlar, harbiylar, dehqonlar, hunarmandlar shakllandi.

6. Nmana – oila, Vis – urug', Varzana – hududiy qo'shnichilik jamoasi, Zantu – qabilila, Daxyxa – qabilalar ittifoqi, yashash tarzi qaror topdi.

7. Jamiyatni boshqarish shakli: Oqsoqollar kengashi, xalq yig'ini, viloyatlar va tumanlarning hukmdorlari faoliyat ko'rsatgan.

8. Dastlabki ilk davlatlarning tashkil topishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy zamin vujudga keldi.

Ibtidoiy jamoa davri bosqichlarini mukammal bilib olgan o'quvchilar 6-sinfda Mespamatamiya (Qadimgi Misr), Xett, Mutanni, Ossuriya, Urartu, Finikiya, Falastin davlatlari, ahmoniyalar davlati, Hindiston, Xitoy, O'zbekiston hududidagi dastlabki davlatlar: Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm, qadimgi Yunoniston va Rim tarixi bilan tanishishni davom ettidilar. Ahmoniyalar, yunon-makedonlar bosqini, ularga qarshi vatanimiz xalqlarning olib borgan ozodlik va mustaqillik kurashlari, keyin o'lkamizda hukm surgan Salavkiylar davlati, Yunon-Baqtriya podsholigi, Xorazm, Qang, Dovon hamda Kushon podsholigi, shuningdek, Buyuk ipak yo'li haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishadi.

---

6-sinf o'quvchilari bu davlatlar xalqlari tarixini o'rganish asnosida "sivilizatsiya" tushunchasini ongli o'zlashtirib olishlariga to'g'ri keladi. Shu bois "sivilizatsiya" atamasini quyidagi tushuncha va ma'lumotlar asosida o'quvchilar ongiga singdirib borish maqsadga muvoifiqdir.

1. Muayyan bir hududda muayyan nomdagi davlatning vujudga kelishi (Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, Afina, Rim, Sug'diyona, Xorazm, Qang, Dovon va boshqalar).
  2. Mazkur davlatni boshqaruvchi – kuchli hukmdorning bo'lishi (Fir'avn, Podshoh, Xon, Sulton, Qirol, Knyaz va h.k.).
  3. Yaxshi qurollangan otliq va piyoda qo'shinlarning mavjudligi.
  4. Kuchli lashkarboshi va sarkardalarning borligi.
  5. Zimmasiga yuklatilgan vazifani mohirlik bilan boshqaradigan ziyoli amaldorlardan iborat uyushma yoki devonning ishlashi.
  6. Maxsus aniq tushumlar va qilinadigan xarajatlar markazi – xazinaga ega bo'lish.
  7. Muayyan qonunlar va tartiblarning o'rnatilishi, unga qat'iy rivoja qilinishi.
  8. Qamoqxonalarning tashkil etilganligi.
  9. Mehnat qurollarining boyib va takomillaшиб borishi.
  10. Shaharsozlikning rivojlanishi. Ibodatxonalar, kutubxonalar va boshqa inshootlarning ko'payib borishi.
  11. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini kuchaytiradigan turli xo'jalik tarmoqlarining mutanosib ishlashi (sanoat, dehqonchilik, chovachilik, savdo-sotiқ, transport va aloqa vositalari).
  12. Ilm-fanning rivoj topishi.
  13. Adabiyot, san'at, tasviriy-san'at va teatr larning ravnaq topishi.
  14. Yozuvning rivojlanishi.
  15. Madaniyat va me'morchilik yodgorliklarining ko'pligi va saqlanishi.
  16. Aholining turmush tarzi, darajasi, odamlar dunyoqarashlarining o'zgarganligi.
  17. Mamlakat aholisi turli qatlamlari va toifalari o'tasida qaror topgan ijtimoiy munosabatlar.
  18. Mazkur davlatning yaqin va uzoqdagi boshqa davlatlar bilan o'rnatgan diplomatič, iqtisodiy, savdo-sotiқ va sayyohlik aloqalari.
  19. Ma'naviyat, til va dinning yuksalishi.
  20. Oltin, kumush va misdan pullar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi.
- O'quvchilarga o'qiganini o'rgatadigan o'qituvchi chin murabbiy emas, balki kitob o'qishni o'rgatadigan o'qituvchi haqiqiy murabbiy va ustoz sanaladi. Bugun har bir o'quvchiga aniq maqsad bilan yondashishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'yemoqda.
- O'quvchilarga mavzularni zehn bilan o'rganish, atama va tushunchalarni to'g'ri matalaa qilish, ifodalananayotgan fikrda qanday mazmun va g'oya borligini anglash hissini kuchaytirish zarur.
- Shu maqsadda o'quvchilar bilan mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishga, belgilangan mavzular bo'yicha referatlar yozish va ularni ko'pchilik oldida himoya qilish, albomlar tayyorlash, muayyan topshiriqli sahna ko'rinishlarini tayyorlash, ayrim tushuncha va lug'atlar yuzasidan tezkor savol-javoblar tashkil qilish o'qituvchining odatiy tarbiyaviy ishiga aylanishi kerak.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Qadimgi dunyo tarixi. Maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, abiturientlar hamda tarix fani o'qituvchilari uchun qo'shimcha qo'llanma. – T., 2011.
3. 6-sinf "Qadimgi dunyo tarixi" darsligi.

**Salohiddin BABADJANOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## YOSH AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VA MEDIAKOMPETENTLIKNING ROLI

### Annotation

Maqlolada ilmiy-teknikaviy taraqqiyot talablariga mos holda oliv ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga informatika va axborot texnologiyalari fanidan dars jarayonlarida media vositalaridan foydalanish, talabalarda media vositalariga bo'lgan munosabat, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb mavzulardan biri ekanligi qayd etilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborotlashtirish, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, media manipulyatsiya, kompyuter texnologiyalari, internet, tarmoq texnologiyalari, global tarmoq, mediakompetentlik.

Статья посвящена вопросам развития медиакомпетентности студентов высших учебных заведений в соответствии с научно-техническим прогрессом. Также представлены научно-теоретические и методические основы разработки одной из актуальных тем развития творческого и критического мышления студентов, их коммуникативных способностей с помощью использования медиа средств.

**Ключевые слова.** Информатизация, информационные технологии, современное образование, медиа манипуляция, компьютерные технологии, интернет, сетевые технологии, глобальная сеть, медиакомпетентность.

Article is devoted to questions of development of media competence of students of higher educational institutions according to scientific and technical progress. Also Scientific-theoretical and methodical bases of development of one of hot topics of development of creative and critical thinking of students, their communicative capabilities by means of use of media of means are provided.

**Key words.** Informatization, information technologies, modern education, media manipulation, computer technologies, Internet, network technologies, global network, media competence.

**M**amlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Zamona-viy axborot texnologiyalari, raqamli va ko'p o'lchamli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // Xalq so'zi gazetasi. 2010-yil 30-yanvar. №21.

---

Hammamizga ma'lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiy madaniy mohiyati jahon iqtisodiyotining globallashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilmu fan, texnika, turli xil om-maviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma'naviy qadriyatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining hayotimizga beqiyos ta'sirini har jabhada kuzatish mumkin, bejizga XXI asr global axborot asri deb atalmagan.

Shubhasiz, axborot texnologiyalari insonlar hayotiga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, ularni umummadaniy kontekstdan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Shuning bilan birga mediaaxborot uning iste'molchilariga nafaqat ijobjiy, balki salbiy ta'siri ham oshib bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuz berayotgan, inson omilining roli kuchayib borayotgan sharoidta ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda oliv ta'lim muassasalarini talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish hozirgi zamon talablaridan hisoblanadi. Shu bilan birga informatika va axborot texnologiyalari fanidan dars jarayonlarida media vositalaridan foydalanish, talabalarda media vositalariga bo'lgan munosabat, ijobjiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, kommunikativ qibiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb mavzulardan biri sanaladi.

Hech kimga sir emas, bugungi davr jamiyatimiz taraqqiyoti barcha sohalariga yangidan-yangi texnologiyalarni, jumladan, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, mediata'larning keng joriy qilinishi, multimedia texnologiyasini jiddiy o'rganish yoshlardan kompyuter texnologiyasi bora-sida o'ta savodxon bo'lishni talab qilmoqda.

Yagona axborot makonini yaratish mediaaxborotni qabul qila olish va medialash-gan muloqotni amalga oshira bilishni talab qiladi. Hozirgi vaqtida mediakompetentlik shaxsning muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa – umumiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.<sup>2</sup>

Kompyuterlarning asosiy vazifalari axborotlar ustida amallar bajarish hisoblanib, jamiyatda axborot ham bilim manbayi, ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmash ekan, u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar.

Lekin shuni ta'kidlab o'tish joizki, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda, o'quvchilar ko'pincha foydaliroq ma'lumotlar olish o'rniqa foydasiz axborotlarga chuqur berilib ketishlari, ayniqsa, internetdagagi ma'lumotlarga qiziqishlari kundan-kunga ortib bormoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, axborotlarning ijobjiy va salbiy jihatlarini ham chetda qoldirmaslik kerak. Axborotlarning ijobjiy tomoni – o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatlari axborot insonlar, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi. Axborotlarning salbiy tomoni – hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharovchi ma'lumotlar ham mavjud. Ayniqsa, bunday ma'lumotlar internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analarimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan nojo'ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llariga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish bizning vazifamizdir.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> <http://edu.of.ru/mediaeducation>

<sup>3</sup> Федоров А.В. Медиаобразование – будущих педагогов. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2005. – С.314.

Aynan mana shu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim beruvchi tashkilotlar hamda pedagoglardan, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ayniqsa, mediata'lim asosida vujudga kelgan mediakompetentlik tushunchasiga e'tibor qaratishlariga ehtiyoj zarurligi oydinlashib bormoqda.

**Mediakompetentlik tushunchasi** (media competence) ta'limga kirib kelayotgan yangi atama hisoblanib, u media ma'lumotlarni turli ko'rinishda uzatish va baholash, o'rganish, yetkaza bilish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.<sup>4</sup> Mediakompetentlikni ta'lim sohasida ishlatalishida bir necha komponentlarini joriy qilish masalasiga to'xtalib o'tilishi ham bejiz emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, mediakompetentlik tushunchasi ostida yotadigan bir necha atamalar, jumladan, mediamadaniyat, mediatarg'ibot, mediata'lim, mediaaxborot, kompyuter madaniyati, mediasavodxonlik kabi atamalarga e'tiborliq bo'lish barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rinn egallaydi. Kompetentlik o'quvchi tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kompetentlik – ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmuyi bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirish, insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi.

Mediakompetentlikning yo'nalishlaridan biri bo'lgan televide niye orqali axborot qabul qilishda ko'plab kanallardagi mediakliplar va tomoshalarning namoyish qilinishida hech bir yomon jihatlari yo'qdek – yoshlar musiqa tinglab va kliplarni tomosha qilib, hordiq chiqarishadi. Ammo ayrim xorijiy kanallarda beriladigan kliplar, undagi yosh-larning kiyinish odobi, qo'shiqlarning ma'nosizligi va saviyasining pastligi, ko'rsatuvni olib boruvchilarning o'zini tutishi va ular tomonidan foydalanadigan so'zlar shuni isbotlaydiki, barkamol avlodni voyaga yetkazishda salbiy jihatlari ko'zga tashlanib, milliy qadriyatlarimizga zid kelishini kuzatishimiz mumkin.

YuNESKOning tahvililiy materiallari bo'yicha, har bir inson o'zining hayoti davomida o'rtacha 3 milliondan ziyodroq reklamalarga duch kelarkan. Ushbu reklamalarni biz televide niye, radio, gazeta, jurnallar, Internet orqali ko'rishimiz mumkin. Reklama bugungi kunda insonlar ongi uchun kurashda eng kuchli ta'sir vositasiga aylangan. Hozirda reklama sanoati shu darajada rivojlandiki, unda insonlar ongini manipulyatsiya qilishning tasavvur qilib bo'lmaydigan usul va vositalaridan foydalaniladi.

Masalan, "Red Bull", "Energizer" va shu kabi energetik ichimliklar reklamasini olaylik. Ular kuch-quvvat bag'ishlovchi effektga ega deb reklama qilinadi. Butun dunyoda ushbu ichimlikni iste'mol qiluvchilarning o'rtacha yoshi 14-18ni tashkil qilar ekan. Mana shu reklama ta'sirida asosan o'smir yoshlar hali organizmi to'la shakllanib ulgurmasdan, bu ichimliklarni me'yordan ortiq iste'mol qilishini va oqibatda uning zararidan nobud bo'lganlarini ham kuzatish mumkin.

Bunday sharoitda mediata'limga joriy etilishi alohida dolzarbli bilan yaqqol namoyon bo'limoqda. Mediata'lim xalqimizning urf-odatlariga, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatlarga asoslangan holda tashkil etilishi kerak.

<sup>4</sup> Safarova R.G., Jo'rayev R.X. Pedagogika ensiklopediyasi. 2015.

---

Mediata'lim yoshlarimizni zamonaviy OAV bilan xavfsiz va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi, ularda mediaogohlikni, mediasavodxonlikni, mediamadaniyatni va mediakompetentlikni shakllantiradi.

